

Hasanova Gulnoz Qosimovna

**MAKTABGACHA TA'LIMDA
PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA**



ISBN978-9943-8093-2-1



9 789943 809321

**5111800- Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun
O'QUV QO'LLANMA**

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

G.Q.HASANOVA

**MAKTABGACHA TA`LIMDA PEDAGOGIK
DIAGNOSTIKA**

**5111800- Maktabgacha ta`lim yo`nalishi
talabalari uchun o`quv qo`llanma**

**“KAMOLOT” NASHRIYOTI
BUXORO 2022**

UDK 37 (075)

BBK 75.5g33

G 33

Hasanova, Gulnoz Qosimovna Maktabgacha ta'limda pedagogik diagnostika [Matn] o'quv qo'llanma / G.Q. Hasanova.- "BUXORO DETERMINANT" MCHJning Kamolot nashriyoti, 2022.-148 b.

Ushbu o'quv qo'llanma 5111800- Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bakalavriat ixtisosligi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, qo'llanmada maktabgacha ta'limda pedagogik diagnostika fanining mazmun-mohiyati, maqsadi, metodlari, asosiy funksiyalari, ta'limda monitoring masalalari yoritilgan.

Mas'ul muharrir:

R.G`.Safarova - pedagogika fanlari doktori,professor

Taqrizchilar:

M.H.Maxmudov - pedagogika fanlari doktori,professor

B.B. Sa'dullayev - pedagogika fanlari nomzodi

Buxoro davlat universiteti ilmiy kengashida muhokama qilingan
va nashrga tavsiya etilgan

ISBN: 978-9943-8093-2-1

Ushbu o'quv qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2021-yil «18» avgustdagi « 356 »sonli burug'iga asosan nashrga ruxsat berildi. Ro'yxatga olish raqami 356/7-058.

© **Kamolot nashriyoti**

© **Hasanova Gulnoz Qosimovna**

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohoti "Ta'lim to'g'risida"gi qonun o'zining ilmiy-nazariy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy ifodasini topgan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining" maqsadi - ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir. Bu vazifani bajarish ta'lim jarayoni, uning mazmuni, shakl va metodlarini tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotiga yangicha qaraydigan mustaqil fikrlovchi, ishbilarmon, buyuk kelajak poydevorini kuruvchi yoshlarni tarbiyalash respublikamiz pedagoglari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi.

Qaror maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, qabul qilinmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonlaridan 08.05.2019 yilda “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” tasdiqlandi va u quyidagilarni nazarda tutadi:

- maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;
- maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;
- maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning sog‘lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlash;

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019 yilda amalga oshirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi»;

2019–2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari;

2025–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi har yili 1 dekabrga qadar o‘tayotgan yilning «Yo‘l xaritasi» bajarilishi yakunlarini batafsil o‘rganish asosida keyingi yil uchun «Yo‘l xaritasi»ni ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi, shuningdek, «Yo‘l xaritalari»ning bajarilishi ustidan doimiy monitoring olib boradi.

Ta’lim islohoti jarayonida bu ulkan vazifani to‘la amalga oshiradigan, zamonaviy va jahonning eng ilg‘or ta’lim texnologiyalardan mohirona foydalana oladigan pedagog kadrlarga ehtiyoj har qachongidan ortdi. Har qanday faoliyat zahirida ham amalga oshirilgan ishlarning pirovard maqsadi, vazifalari va kutilgan natijalari bo‘ladi. Faoliyat natijalarini sarhisob qilish, amaliy xulosalar chiqarish – bo‘sh èki muvaffaqiyatli urinishlarni belgilab olish, faoliyatning keyingi bosqichlarida uni hisobga olish diagnostika deyiladi.

Pedagogik diagnostika o‘quvchining o‘zlashtirishi, o‘qishdagi qiyinchiliklarini, uning o‘qishiga ta’sir qilaètgan ijtimoiy, oilaviy omillarni o‘rganishga yo‘naltirilgandir. Diagnostika natijalari esa ta’lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish, yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatish, psixologik-pedagogik profilaktika ishlarini olib borish imkonini beradi.

1-MODUL. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

1-MAVZU. Pedagogik diagnostika fanining maqsadi, obyekti, predmeti va vazifalari

1.1. Diagnostika ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlovchi jarayon.

Jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, zamonaviy o'qituvchidan (mutaxassis, sinf rahbari, psixolog) kasbiy faoliyatning: pedagogik, psixologik, ijtimoiy va boshqa turli metodikalari bilan qurollangan bo'lishni talab etadi.

Har qanday faoliyat zahirida ham amalga oshirilgan ishlarning yakuniy maqsadi, vazifalari va kutilgan natijalari bo'ladi. Faoliyat natijalarini sarhisob qilish, amaliy xulosalar chiqarish – bo'sh yoki muvaffaqiyatli jihatlarni belgilab olish, faoliyatning keyingi bosqichlarida uni hisobga olish diagnostika deyiladi.

O'quv-tarbiya jarayonidagi diagnostika o'quvchining o'zlashtirishi, o'qishdagi qiyinchiliklarini, uning o'qishiga ta'sir qilayotgan ijtimoiy, oilaviy omillarni o'rganishga yo'naltirilgandir. Diagnostika natijalari esa ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri rejalashtirish, yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish, psixologik-pedagogik profilaktika ishlarini olib borish imkonini beradi.

Diagnostika – ta'lim va tarbiya oluvchilar xususiyatlarini va mavjud moddiy - texnik imkoniyatlarni o'rganish orqali bu maqsadni to'g'rilash zarurligiga va ularga erishish vositalarini tanlashga imkon beradi.

Diagnostika o'qitishni jadallashtiruvchi axborotlarni tahlil qilish bilan bir vaqtda egallangan bilimlar sifatini nazorat etuvchi jarayon hamdir.

DIAGNOSTIKA TURLARI

Diagnostika turlari	Diagnostika ob'ekti	Diagnostika predmeti
Pedagogik diagnostika	Ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi va ta'siri	O'zaro pedagogik ta'sir sub'ektlarining individual-shaxsiy munosabatlari
Psixologik diagnostika	Inson va uning psixologik tavsifi	Qobiliyatlar, shaxsiy motivatsiya, psixologik me'yordan og'ish va x.k.z.
Ijtimoiy diagnostika	Inson jamiyatning bir qismi sifatida	Ijtimoiy jarayonlar kechishining umumiy tendensiyalari
Tibbiy diagnostika	Inson biologik tizim sifatida, bemor.	Inson organizmining me'yordan og'ishish natijasidagi kasallik belgilari
Texnik diagnostika	Texnik tizim, mashinalar, qurilmalar	Belgilangan me'yorlar va texnik holatlardan og'ish natijasida yuzaga keladigan defektlar

Pedagogik tadqiqotlarda eng ko'p tarqalgan uslublardan biri bu pedagogik diagnostikadir.

Pedagogik diagnostika tushunchasi 1968 yilda K. Ingenkamp tomonidan fanga kiritilgan. (Bu sana pedagogik diagnostika atamasining rasmiy "tug'ilgan kuni" hisoblanadi). Uning fikricha pedagogik diagnostika o'quv-tarbiya jarayonini kompleks o'rganish imkoniyatini yuzaga keltirib, pedagogik jarayon natijalari asosida jamiyat rivojlanishida ulardan foydalanishga

yordam beradi. Diagnostik faoliyat degendi u ilmiy mezonlar asosida pedagogning turli so'rovlar, anketalar, kuzatishlar natijasida olingan ma'ulomotlarni tahlil qilish orqali, bolalarning hatti-harakatlari va ularni yuzaga keltiruvchi motivlarni aniqlash va shu asosda ularning faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yishga imkoniyat beradigan jarayonni tushunadi.

Pedagogik diagnostika - bu mavjud vaziyatni oydinlashtirish, o'rganiluvchi subektning ta'lim va tarbiya olganlik darajasining haqiqiy holatini belgilovchi jarayondir.

Pedagogikada diagnostika yaxlit pedagogik jarayon asosida o'quvchi shaxsining shakllanganlik darajasining natijalarini tahlil etishga qaratiladi.

Pedagogik diagnostika - pedagogik faoliyat sohasida voqeliklarning mohiyatini belgilash, jarayonlarni har tomonlama o'rganish, pedagogik omillarning majmuaviy harakatini aks ettirish demakdir.

Uning vazifasi - pedagog va rahbarga sabablarning o'zaro bog'liq harakati, ularning qaysi biri shu lahzada kritik ahamiyatga ega bo'lishi haqida tezkor va ishonchli axborot beradi. SHuning uchun ta'lim-tarbiya va metodik jarayonlarning barcha tarkibiy qismlarini tashxis qilib turish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik diagnostikaning mazmuni deganda metodik va pedagogik jarayonning, bola shaxsi, pedagog yoki rahbarning faoliyati darajasidan qat'i nazar, tezkor o'rganilishi va baholanishi, tartibga solinishi va koreksiyasi (to'g'rilanishi) tushuniladi.

Pedagoglarning faoliyati va shaxsini o'rganish - metodik ishlarning sifati va samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Metodik ishlar pedagoglarning bolalarga ta'lim-tarbiya berish va ularni rivojlantirish bilan bog'liq faoliyatida yuqori natijalarga erishish uchun yordam berishga qaratilgan. Ushbu masalani nafaqat keyingi takomillashtirish, balki har bir pedagogning mavjud imkoniyatlarini har tomonlama hisobga olish shartlaridagina bajarish mumkin.

Pedagogik diagnostika o'quvchining o'zlashtirishi, o'qishdagi

qiyinchiliklarini, uning o'qishiga ta'sir qilayotgan ijtimoiy, oilaviy omillarni o'rganishga yo'naltirilgandir. Diagnostika natijalari esa ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri rejalashtirish, yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish, psixologik-pedagogik profilaktika ishlarini olib borish imkonini beradi.

Hozirgi kunda o'quv-tarbiya jarayoni zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida olib borish va bu jarayonda talabalarning shaxsiy faolligini ta'minlash muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Mashg'ulotlarning pirovard natijalarini tahlil qilish, o'rganish, kamchilik va xatolarini aniqlash, ularni tuzatish yoki oldini olish uchun pedagogik diagnostika o'tkazish zaruriyati tug'ilmoqda. SHu munosabat bilan pedagogik diagnostika fani vujudga keldi.

SHuning uchun mazkur kurs, asosan, amaliy xususiyatga ega bo'lish bilan birga nazariya bilan ham uyg'unlashgandir.

Jumladan:

1. Ilmiy asoslangan diagnostik metodlarsiz bolalarning o'quv-tarbiya jarayoniga tayyorligini bilish mumkin emas.
2. Rivojlantiruvchi ta'lim samaradorligini kuzatib bo'lmaydi.
3. O'quv-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan ta'lim metodlarning nisbiy mahsuldorligini, o'qitishning shakl va vositalarini baholash lozim bo'ladi. CHunki:

a) pedagogik diagnostika metodlarsiz o'quvchilarning turli yosh davrlaridagi intellektual rivojlanganlik darajasini belgilash mumkin emas;

b) har bir o'quvchiga ularning psixofiziologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda individual yondashish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'play olmaymiz.

Pedagogik diagnostikaning maqsadi- pedagogik jarayonni samarali boshqarish va tashkil etish uchun ob'ektiv ma'lumotlarni to'plash, yig'ish, tahlil etish, pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishdan iboratdir.

Pedagogik diagnostikaning o'ziga xos farqlanuvchi xususiyatlaridan biri uning o'ziga xos ob'ekti ya'ni-pedagogik jarayonning mavjudligidadir.

Pedagogik diagnostika o'quvchida yuz beradigan u yoki bu o'zgarishlarning pedagogik jarayonga ta'sirini bashoratlash va hisobga olishni nazarda tutadi. SHu sababli **pedagogik diagnostikaning ob'ekti** bo'lib: o'qituvchi, o'quvchi, pedagogik faoliyat mazmuni, o'qitish metodlari va vositalari, ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari hamda pedagogik faoliyat natijalari hisoblanadi.

Professor J.G'.Yo'ldoshev egallangan malakani aniqlashga qaratilgan pedagogik diagnostika yoki diagnostik faoliyatning ayrim jihatlarini quyidagicha tasnif etadi:

- 1) taqqoslash;
- 2) pedagogik tahlil;
- 3) avvaldan ayta bilish (prognoz);
- 4) interpretatsiya (o'ziga xos talqin);
- 5) pedagogik diagnostika natijalarini o'quvchilarga etkazib berish;
- 6) amalga oshirilgan turli diagnostik metodlarni o'quvchilarga etkazish;
- 7) pedagogik diagnostika metodlarini to'g'ri tanlay olish.

Pedagogik diagnostikaning eng muhim mezonlari:

- a) haqqoniylik;
- b) ishonchlilik;
- v) asoslanganlik deb hisoblaydi.

Pedagogik diagnostika o'quv-tarbiya jarayonining quyidagi muhim **vazifalarni** echish imkoniyatlarini beradi:

- bolalarning maktabga aqliy-intellektual, psixofiziologik xususiyatlari asosida tayyorgarlik darajasini o'rganish orqali tegishli o'quv-tarbiya maqsadlarini shakllantirish;
- o'quv motivatsiyalari asosida o'quv-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining aqliy rivojlanganlik darajasini aniqlash;
- o'quv-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faoliyati yakuni sifatida bilim natijalarini va ta'lim sifati darajasini aniqlash;
- o'quv-tarbiya jarayonida yuzaga keladigan kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga yo'naltirilgan metodikalar ishlab chiqish;

- ishlab chiqilgan ta'limiy mezonlar orqali o'quvchining sinfdan sinfga o'tishda, mutaxassislikka qabul qilinishida minimal talablarga javob berishini belgilash.
- shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish.
- o'qituvchi kasbiy diagnostika natijalarini aniq baholash.
- pedagogik jarayonda yuzaga keladigan xatolarni minimum darajaga etkazish.
- bola shaxsining o'z-o'zini rivojlantirishi uchun qulay shart-sharoitlarni aniqlash;
- o'qituvchi-tarbiyachi faoliyatini baholash (o'zining kasbiy rivojlanish darajasiga baho berish).

1.2.Pedagogik diagnostika mazmuni

Har qanday faoliyat zahirida xam amalga oshirilgan ishlarning pirovard maksadi, vazifalari va kutilgan natijalari buladi. Faoliyat natijalarini sarhisob qilish, amaliy xulosalar yasash - bush yoki muvaffakiyatli urirlarni belgilab olish, faoliyatning keyingi boskichlarida uni xisobga olish diagnostika deyiladi. Pedagogik diagnostika o'quvchining o'zlashtirishi, o'qishdagi qiyinchiliklarini, uning o'qishiga ta'sir qilayotgan ijtimoiy, oilaviy omillarni o'rganishga yo'naltirilgandir. Diagnostika natijalari esa ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri rejalashtirish, yo'l qo'yilgan hatolarni tuzatish, psixologik-pedagogik profilaktika ishlarini olib boorish imkonini beradi.

Bu muqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson o'z farzandining bahtu saodati, fazlu kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi, 'zini ayamaydi. Bola tug'ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf - odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, xis etadi.

O'zbek oilasi mustabidlik zamonida ham o'zining tarixan shakllangan qiyofasini yo'qotmadi. Ulug' adibimiz Abdulla Qodiruy qahramonlaridan birining: "Bu xonadondan hech kim norizo bo'lib ketgan emas", deya aytgan gaplarida elimizga xos

katta hayotiy falsafa mujassam. Bu yo'q joydan paydo bo'lgan gap emas. Ota - onaning farzand oldidagi burchlari, o'zlarining oxiratini obod etuvchi qarzlari bor. Dinu diyonatli xonadon oqsoqollaridan so'rasangiz, ularni lo'nda qilib sanab beradi: yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'lga topshirib, savodini chiqarish, ilimli, kasbli - hunarli qilish, boshini ikki, uyli - joyli qilish.

Mana shuning uchun ham bugungi kunda biz bu masalaga jiddiy e'tibor bermoqdamiz. Shuning uchun ham bu maqsadga qaratilgan loyihalar jamoatchiligimiz diqqat - e'tibori markazita o'tmoqda, tarbiya sohasi isloxoti bugungi eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammoga aylanmoqda.

Lo'nda qilib aytganda, bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri - bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz. Shu bilan birga, hammamiz yana bir haqiqatni anglab yetmoqdamiz. Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib obro'li o'rin egallash uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir.

Bunday boylikning ahamiyatini anglash uchun chor Rossiyasining Turkiston o'lkasidagi general - gubernatori M. Skobelev:

"Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi", deb aytgan gapini eslashning o'zi kifoya qiladi. Bunday yovuz qarashlarga qo'shimcha izoh berishga hojat

yo'q, deb o'ylayman. Lekin ulardan kerakli xulosa - saboq chiqarish uchun bugun ham kech emas. Shu bois mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim - tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda. ar qanday faoliyat zamirida ham amalga oshirilgan ishglarni pirovard maqsadi vazifalari va kutilgan natijalarini sarhisob qilish, amaliy, xulosalar yasash - bo'sh yoki muvaffaqiyatli 'rinlarni belgilab olish faoliyatni keyingi bosqichlarida uni hisobga olish diagnostika deyiladi

Fanning asosiy maqsadi talabalar psixologiyasining turli sohalaridan psixologiya va pedagogikaga oid bilimlar berish, ayniqsa shu fanlarning ilmiy tadqiqot metodlarini amalda qo'llashga o'rgatishdir.

Shuning uchun mazkur kurs asosan amaliy xususiyatga ega, lekin nazariya bilan uyg'unlashgandir.

- 1) Ilmiy asoslangan diagnostik metodlarsiz bolalarning maktabga tayyorligini bilish mumkin emas:
- 2) Rivojlantiruvchi ta'lim samaradorliginin kuzatib bo'lmaydi:
- 3) Turli metodlarning nisbiy maxsuldorligini, o'qitishning shakl va vositalarini baholash:
 - a) diagnostik metodlarsiz o'quvchilarning turli yosh davirlaridagi intellektual rivojlanganlik darajasini belgilash o'ta mashaqqat:
 - b) o'quvchilarga individual yondashish uchun zarur bo'lgan ularning individual hususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni to'play olmaymiz.

1.3.Pedagogik diagnostikaning asosiy vaziflari

Pedagoglarning kasbiy mahoratining asosiy komponentlaridan biri o'quv tarbiya jarayonini to'g'ri va samarali boshqara olishidir. Buning uchun pedagog texnik va uslubiy bilimlarni puxta egallaganli yetarli emas. Pedagog o'z ishi, faoliyati natijalarini tahlil qilishi, o'quvchilarda qiyinchilik tug'dirayotgan sabablarni

o'z vaqtida aniqlashi, bu qiyinchiliklarni o'quvchiga individual yondoshish jarayonida bartaraf qila olishi lozim. Shu o'quv tarbiya jarayonini boshqarishni takomillashtirish vosita va yo'llaridan biri ilmiy jihatdan asoslangan psixologik-pedagogik diagnostikadir. Bugungi kunda psixologik pedagogik diagnostikaning o'rni, ahamiyati qanchalik katta ekanini hech kim inkor qilmaydi. Individual yondashish, o'quvchi va talabalarning individual xususiyatlarini o'rganish shart ekanligi bir qancha davlat hujjatlarida aks ettirilgan. Pedagogik diagnostika pedagogika va psixologiya fanlarining oralig'idagi soha bo'lib, o'quvchi shaxsini, uning individual xususiyatlari, rivojlanish dinamikasi va ularga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganadi.

Pedagogika diagnostika ta'lim samaradorligi, ish mazmuni, olib borilgan pedagogik faoliyatni tahlil kilishda katta ahamiyatga ega bulib, ilgor ta'lim muassasalarida bu ish uslubi muvaffakiyatli tarzda amalga oshirilmokda, yutuklar mustaxkamlanib, yul kuyilgan kamchilik va nuksonlarni taxlil kilish asosida bosh strategik yunalishlar belgilab olinmokda va yukori darajadagi pirovard natijalar kulga kiritilmoqda. Savol tugilmoqda:

- bola kobiliyati, imkoniyati, bilimi, egallagan kunikmalarining ulchovi bormi?

- bolaning bilish va kunikmalariga belgilashga ukituvchi aralashgani ma'kulmi yoki uziga uzi baxo bergani avzalrokmi?

Manashu savollarga eng maqbul asoslarda javob berish pedagogik diagnostikaning predmetidir. Manashu maqsadni ro'yobga chiqarish yul-yo'riqlari, metodik mexanizmlarini ishlab chikish, joriy etish muhim vazifadir. Pedagogik diagnostikaning tarixi pedagogik faoliyati tarixi bilan deyarli tengdosh. Boshqa qilib aytganda, pedagogik jarayon ming yillardan beri mavjud bo'lsa, bu faoliyatning meyorlari va natijalarini belgilash ham shunchalik qadimiydir. Demokchimizki, o'quvchi bilimiga baho quyish, uni sinov va imtihon qilish, pirovard ish natijalarini belgilab olish boshlangan erda pedagogik diagnostika ham mavjud. Fakat fark shundaki, ibtidoiy va urta asr pedagogikasida bola bilimi va ixtidorini diagnostik tahlil kilishning ilmiy asosi yuq edi.

Pedagogik diagnostikani ilmiy asosda taxlil etish va yulga kuyish XX asr boshlarida amalga oshirilgan. Shu boisdan, bu pedagogik jarayonning nomlanishi xam turlicha bo'lgan.

Ayrimlar pedagogik diagnostikani taklif etilagan bilimlarni uzlashtirish asosi deyishadi. Boshkalar diagnostikani ukitishni jadallashtiruvchi axborotdir deb xisoblaydilar. Yana ayrimlar esa diagnostika egallangan bilim sifatini nazorat etishdir, degan fikrni ilgari suradilar. Tanikli pedagogik olim Macherman pedagogik diagnostikani «O'quvchi uzlashtirishi bilan, ukuv materialini tugri tanlash, maksadni tugri yunaltirish mezonidir» deb xisoblaydi. Aslida pedagogik diagnostika ukuv materialini bilish jarayonining asosini tashkil etib, makbul pedagogik xulosaga kelishga zamin yaratadi. Shu boisdan xam, pedagogik diagnostika:

birinchidan, o'quvchiga individual ta'lim berishni jadallashtiradi;

ikkinchidan, davlat va jamiyatning ta'limga kuygan talablaridan kelib chikib, o'quvchi bilimni tugri, adolatli baxolashni ta'minlaydi;

uchinchidan, ishlab chikilgan ta'limiy mezon, kriteriyalari orkali o'quvchining sinfdan sinfga utishda, mutaxassislikga kabul kilinishida minimal talablarga javob berishini belgilaydi.

Pedagogik diagnostika yordamida ta'lim-tarbiya jarayoni tugri taxlil etiladi va uning samaradorligi tugri baxolanadi. Boshkacha kilib aytganda, pedagogik diagnostika orkali ta'lim ob'ekti, ta'limiy tushunchalar qaydarajada uzlashtirilganligi taxlil etiladi, butun ukuv kursini, ukuv dasturlarinrini uzlashtirish darajasi baxolanadi. Pedagogik diagnostka muxim axamiyatga ega. U ukuv-tarbiya jarayonini yaxshilashga xizmat kiladi, ta'limiy faoliyat natijasida erishilansamaralarni xolislik bilan belgilab beradi, yul kuyilgan kamchilik va nuxsonlarni bartaraf etishga yul ochadi, pirovard natijada ta'limning takomillashib borishiga ijobiy ta'sir kiladi. Pedagogik diagnostika tarixiga nazar tashlasak utgan asrlarda u fakat o'quvchi bilimni baxolash orkali

amalga oshirilganini kuzatamiz. Unga 1864 yilda AQSh olimlari D.Fisher va R.Ressler asos solganlar, 1908 yildan boshlab esa, olim T.Stoun arifmetikadan test orkali o'quvchi bilimini sinash tizimini tadbik etgan. Egallangan malakani aniklashga karatilgan pedagogik diagnostika yoki diagnostik faoliyatining ayrim jihatlari:

- a) taqqoslash;
- b) pedagogik taxlil;
- v) avvaldan ayta bilish (prognoz);
- g) interpretatsiya;
- d) pedagogik diagnostika natijalarini o'quvchilarga etkazib berish;
- e) amalga oshirilgan turli diagnostik metodlarni o'quvchilarga etkazish;
- j) pedagogik diagnostika matodlarini tugri belgilashdan iborat bulgan.

Pedagogik diagnostikaning eng muhim kriteriylari esa:

- xakoniyluk (ob'ektivnost);
- ishonchlilik (nadejnost);
- puxtalik (validnost) ka asoslanadi.

Diagnostik taxlillar kachon ob'ektiv buladi?

*Agar: sinov natijalari turli tekshiruvlarda bir xil natijalar kursatilib, kursatkichlar uzaro bir biriga yaqin bulsa;

*Agar: sinov mezonlari, ulchovlari birligi xamda uning natijalari sinovni amalga oshiruvchi, aniqllovchining shaxsi xislati va munosabatlariga boglik bulmasa;

*Agar: sinov bir xil talab, bir xil munosabat va psixologik kayfiyatda amalga oshirilsa, haqiqiy axvolni aniklashda ob'ektiv natijalar olinishi mumkin.

Modomiki maksad xakikiy ta'limiy axvolni aniklash ekan, unga tugri, xalollik, xakoniyluk bilan yondashish zarur. Aks holda, diagnostikadan kuzlangan natijaga erishish, tugri tashxis belgilash mumkin emas. Bundan tashkari ayrim sinf ishlarini, ba'zan yozma ishlarni kupincha esa ogzaki berilgan javoblarni baholashda xar xil yondashuvlar qayd etilishi mumkin. Bu sinovchi, ya'ni

diagnostik taxlil utkazuvchi qilinayotgan ishlarning tub maksadiga tushunib etishiga, mas'uliyatiga, ishga bulgan yondashuviga va nixoyat uning saviyasiga boglik.

Budan kelib chiqadigan amaliy xulosa shuki, pedagogik diagnostikani amalga oshirishda rioya-andisha, oshna-ogaynigarchilik, tanish-bilishchilik yoki boshka noxushliklar aralashsa, xaqiqiy axvol aniqlanmaydi, umumiy ishga putur etadi, kamchilik va nuksonlar ochilmay xaspushlanadi, ta'limni takomillashtirishdan kuzda tutilgan maksadlar ochilmay koladi.

Pedagogik diagnostikaning ishonchliligi bir necha marta kilingan taxliliy xulosalar natijasining bir xilligi kayd etilgan xollardagina ta'minlanadi.

Agar buni muayan maktab, sinfnig xayotiy faoliyati bilan boglasak, mabodo o`qituvchi ilgarigi ishini oradan bir necha vaqt utib, aynan ushanday baxolasa, ishonchlilik paydo buladi, lekin bunday hol afsuski amaliyotda kam uchramoqda.

Pedagogik diagnostika natijalari kachon uzil-kesil tastiklanadi ?

Tajribalar, taxlillari shuni kursatadiki, pedagogik diagnostika test usullari vositasida amalga oshirilsa, natijalar xakkoniy buladi. Chunki bunda turt xil xulosa bir xil natija bilan baxolantladi. Bular,

- mazmunning tasdigi;
- har xil usul bilan olingan natijalarinshng bir xilligi;
- natijalarga kura amalga oshirilgan taxlillarning isbotlanishi;

loyixalashning tasdiklanishi ya'ni loyixalashtirishdagi natijalarning olingan xulosalarga uygunligi).

Nazorat uchun savollar:

1. Ta'lim-tarbiya jarayonida diagnostikaning ahamiyati qanday.
2. Diagnostika va pedagogik diagnostika atamalarini izohlang.
3. Pedagogik diagnostikaning maqsadi nima?
4. Pedagogik diagnostikaning vazifasi va xususiyatlarining mohiyatini ochib bering.

**2-MODUL.O'QUV TARBIYA JARAYONIDA
PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA
2-MAVZU: PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING
MOHIYATI VA FUNKSIYALARI
2.1.Ta'lim muassasasida pedagogik diagnostikaning asosiy
mohiyati**

Pedagogik tashxis pedagoglar bilan olib boriladigan metodik ishlarni tashkil etishda, ularning kasbiy va o'zaro rivojlanishida ilmiy yondashuvni ta'minlaydi. Shuning uchun u metodik, ta'lim-tarbiya jarayonlarida hamda maktabni boshqarish jarayonida muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining kasbiy rivojlanish darajasini o'rganishning tizimi sifatida olingan pedagogik tashxis qo'yish ishdagi kiyinchiliklarni aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi, ularni engib o'tishning muqobil usullarini izlashga undaydi. SHu bilan birga, u o'qituvchining kuchli tomonlarini aniqlashga, ularni mustaxkamlash hamda pedagogik faoliyat va o'qitish modelining yakkaalashtirilgan metodlarini rivojlantirish yo'llari hamda aniq usullarini belgilab olishga ham imkon beradi.

Pedagogik mahorat, pedagogning muvaffaqiyatlarini diagnostika qilish attestatsiya muammolarini muqobil hal qilishga imkon beradi, chunki u ta'lim muassasasi ma'muriyatining bahosidagi sub'ektivizmni chetlashtiradi. Biroq ta'lim muassasasi rahbarlari shuni yodda tutishlari kerakki, diagnostika - bu shaxsiy maqsad emas, balki maslaxat, korreksiya (to'g'rilash), moslashish va metodik-psixologik qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda pedagoglar bilan ishlash bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik faoliyat diagnostikasini, ayniqsa o'zini-o'zi diagnostika qilishni o'tkazish har bir pedagog tomonidan o'zini-o'zi tahlil qilish va baholash malakalarini egallashga yo'naltirilgan. Bu hol pedagogik kadrlar bilan olib boriladigan ishlarning o'zini tartibga solish va korreksiyalashning faol tartibiga o'tkazishga imkon beradi.

Pedagogik diagnostika har bir pedagogik bilish, har birining ko'ngliga yo'l topa olish singari murakkab masalalarni

muvaffaqiyatli echishda rahbar – metodistlarga yordam beradi. U o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini bilishga imkon beradi va shu bilan birga pedagog kadrlar bilan metodik ishlarning tashkil etilishini engillashtirib, ularning samarasini oshiradi.

Zamonaviy diagnostikaning vazifalari.

Yaqin vaqtlargacha pedagogik diagnostika biron-bir belgilarni baholash muammosiga taqalar ekan, shaxs esa bir figura, fotosurat ko'rinishida ifodalanar edi. Bugungi kunda pedagogik diagnostika ko'p tarmoqli bo'lib bormoqda va o'zida ma'lumot, asl diagnostika, baholash, korreksion, yo'naltiruvchi, tahliliy kabi vazifalarni mujassamlashtirmoqda.

Diagnostik yondashuv ham o'quvchilar, ham butun pedagogik jamoa faoliyatining turli bosqichlaridagi harakatining majmuaviy diagnostikasi, o'zini-o'zi sinovdan o'tkazish va monitoringi tizimini to'zish hisobiga amalga oshadi va shuning uchun boshqaruv faoliyatining natijalarini holisona baholashga imkon beradi.

Diagnostikani tashkil etish jarayonida sub'ektlarning rivojlanish dinamikasini o'rganish va holislikni oshirish uchun bosqichlilik, davriylikka rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ob'ektning nafaqat asl holatini, balki oraliq va yakuniy natijalarini o'rganish zarurligi sababli, kamida uchta kesimda bajarilishi lozim: birinchi kesim - kirish nazorati (birinchi boshlang'ich diagnostika), ikkinchi kesim - joriy nazorat (qiyosiy diagnostika) va uchinchi kesim - chiqish nazorati (yakuniy diagnostika).

Har bir pedagog mazkur ta'lim muassasasining metodik ishi tizimiga mos ravishda amalga oshirayotgan faoliyatni diagnostika va tahlil qilish dasturi pedagogik ta'lim-tarbiya va metodik - jarayonni tashkil etishdagi jarayon va omillarni aniqlash, zarur va kutilayotgan o'zgarishlarni bir ketma-ketlikka qo'yish, boshqaruv korreksiyasini amalga oshirish - bularning hammasi ta'lim muassasasiga yutuqlar asosida mavjud muammolarni hal qilishda ularning qay darajada ekanligini, an'ana bilan innovatsiya o'zaro qanchalik uyg'unlashganini, manfaatdorlik vaziyati vujudga

keltirilganligini, sinov, tajriba, izlanish va ilmiy-metodik tadqiqot jarayonida pedagogik jamoa ko'pchiligining ichki kechinmalarini bilish va ko'rishga imkon beradi.

Shuni yodda tutish kerakki, diagnostika u yoki bu sifatlar va xususiyatlarning mavjudligi yoki ularning yo'qligini ko'rsatib beradi, rahbar esa, uning natijalaridan foydalangan holda, pedagogning kasbiy usishining istiqbollari, yo'llari va usullarini aniqlashda yordam berishi kerak. Pedagogning o'rganish ishlari nafaqat diagnostik, balki istiqbolli tavsifga ega bo'lsagina, ushbu yo'nalishda olib borilgan ishlarning u yoki bu darajadagi natijaviyligi yoki uning foydaliligi to'g'risida gapirish mumkin (V. M. Lizinskiy).

Pedagogik diagnostika mohiyatini anglash uchun shifokor va o'qituvchi faoliyatini taqqoslash mumkin. Shifokor ishni bemor kasalligi sabablarini aniqlashdan boshlaydi, so'ngra uning davom etishini tashxislaydi hamda davolash muolajalarini belgilaydi.

Pedagog ham avvalo o'quvchisining "tarixi"ga nazar tashlaydi, so'ngra tarbiya jarayoni maqsadlari va ularning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini nazarda tutgan holda uning kelajagini belgilash bo'yicha chora-tadbirlarni belgilaydi. Faqat o'tmishni tahlil qilish va kelajakni ko'ra olish asosida voqelikdagi holatni tashxislaydi.

Pedagogik diagnostika mohiyatiga asosan quyidagi savollarga javob beradi :

Nimani va nima uchun o'rganish;

Qaysi ko'rsatkichlar asosida o'rganish;

Qaysi metodlar va usullar bilan o'rganish;

Qanday sharoitlarda o'rganish.

Pedagogik diagnostika — pedagogik jarayon sub'ektlari orasidagi ta'lim jarayoni sifatini yaxshilashga qaratilgan individual-shaxsiy rivojlanish hamda ayni vaqtdagi umumiy holatini aniqlash asosidagi faoliyatdir. Pedagogik diagnostika sub'ektning tarbiya ob'ektiga bo'lgan maqsadli ta'siri uchun teskari aloqani vujudga keltiradigan muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Pedagogik dignostika o'qituvchining pedagogik jarayonda muntazam yuzaga keladigan vaziyatlarni baholash, uning doimiy ob'ekti hisoblangan : bolalar, o'quvchi, talaba, guruh, jamoani o'rganishdagi kasbiy faoliyatini nazarda tutadi. U o'qituvchi-tarbiyachiga aniq pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, baholash va qaror qabul qilish uchun kalit vazifasini bajaradi. Demak, pedagogik dignostika ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash uchun ham shart-sharoitlar yaratib beradi.

Shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonidagi pedagogik vaziyatlarni "skaner" qilish (ing. scan — nazar maydoni) o'qituvchi va tarbiyachining samarali faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga turli texnologiyalar, innovatsiyalarni qo'llashning zamonaviy sharoitida ta'lim muassasalarida ro'y beradigan turli pedagogik hodisalar va jarayonlarning kuchli va kuchsiz tomonlari haqidagi ma'lumotlarni aniq solishtirish va qiyoslash tobora muhim ahamiyat kasb etib boradi.

Bunday ma'lumotlarni pedagogik diagnostika natijasida aniq olish imkoniyati tug'iladi. Chunki uning maktabdagi asosiy vazifasi quyidagi: **teskari aloqa, baholash, boshqaruv, tarbiyaviy, kommunikativ, konstruktiv, axborot, bashoratlovchi funksiyalarida** namoyon bo'ladi.

Pedagogik diagnostikaning asosiy funksiyasi ta'lim-tarbiya jarayonidagi **teskari aloqa funksiyasi** hisoblanadi.

Bu funksiyaning asosiy mazmuni ma'lum bosqichdagi o'quvchilarning ta'lim va tarbiya olganlik darajasi haqidagi diagnostik ko'rsatkichlar ilgaridagi pedagogik tajriba natijalarini tahlil qilish va kelgusidagi pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun asosiy ma'lumot bo'lib xizmat qilishidadir.

Diagnostika natijasida qo'lga kiritilgan axborotlarning to'liqligi va aniqligi tashxislashning dastlabki bosqichida ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish ishini eng maksimal darajada real talablarga yaqinlashtiradi, uni samarali rivojlantirishga olib

keladi. Ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirishda aniq natijalar asosida olingan axborotlar o'quvchilarda ularning ichki imkoniyatlarini to'liq ishga solish orqali DTS talablarini to'la o'zlashtirishga olib keladi.

Agar ta'lim-tarbiya natijasi bo'yicha zaruriy ma'lumotlar o'z vaqtida aniq va to'la holda har bir o'quvchi, o'qituvchiga xabardor etib borilsa, o'z vaqtida tuzatish ishlari olib borilsagina kutilgan pedagogik maqsadlarga erishishimiz mumkin.

O'qituvchi o'z faoliyati natijalarini nazorat qilmasdan turib, shaxsning shakllanishi jarayonini boshqara olmaydi. Bu teskari aloqaning asosiy mazmunini tashkil etadi

Baholash funksiyasi: pedagogik faoliyat samaradorligini baholash erishilgan pedagogik natijalarni mezonlar va ko'rsatkichlar orqali taqqoslashga asoslanadi.

Diagnostikaning baholash funksiyasi o'zining bir qancha jihatlariga. Bular:

- qadriyatli-yo'naltirilgan,
- doimiy-korreksiyalovchi,
- rag'batlantiruvchi,
- o'lchov asosidagi.

Qadriyatli-yo'naltiruvchi baho jamiyat talablari asosida o'quvchilarning ijtimoiy talablarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan munosabat darajasini belgilaydi. SHuningdek, aqliy, axloqiy, mehnat, estetik qarashlarini ijtimoiy talablarga moslashtiradi, o'stiradi, o'quvchida o'z qarashlarini qadriyatlar asosida ijobiy tomonga o'zgartirib boradi.

Doimiy-korrektiv aspektdagi pedagogik baholash o'quvchining o'z hatti-harakatlarini nazorat qilish hamda ularni jamoat va ijtimoiy normalar asosida tashkil etishga ko'maklashadi.

Rag'batlantiruvchi baho o'quvchining rivojlanishi, xulqiga mos ravishda qo'yilganda unga ijobiy ta'sir etib, uni yangiliklarga intilish sari ruhlantiradi.

O'lchov asosidagi baholashda o'quvchi boshqalar bilan o'zini solishtirish asosida undagi muvaffaqiyatlar yanada shaxsiy

o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holat o'quvchining yanada intilishi, qiziqishlariga sabab bo'ladi. U endi o'zini-o'zi rivojlantirish sari etaklaydi. Mustaqil izlanish, mustaqil mutolaa qilishga intiladi. Bunday hollarda o'quvchi o'ziga, o'z kuchiga ishonishi ortadi. Demak, o'quvchi o'z kuchiga ishonimini, u mantiqiy erkin fikrlashga, o'zini anglashga kirishadi

Boshqaruv funksiyasi- o'quvchilar jamoasini, o'quvchi shaxsining rivojlanishini, tarbiya topganligini boshqarishda namoyon bo'ladi. Bu boshqaruv uch bosqichda olib boriladi: boshlang'ich, korreksiyalovchi (joriy), umumlashtirilgan (yakuniy).

Sinf jamoasining ishini rejalashtirish va boshqarish jarayonida tarbiyaviy vazifalarni rejalashtirishdan avval hafta, chorak, yarim yillik, butun o'quv yili davomida o'qituvchi o'quvchining tarbiyalanganlik darajasini o'rganib boradi. O'quvchilardagi ijobiy, salbiy holatlarning o'zgarish dinamikasini kundalik kuzatuv asosida qayd etib boradi. Shu o'zgarishlarga asosan rejalariga korrektirovka etib boradi. Olingan axborotlar asosida tezda, o'z vaqtida ish uslubiga tuzatishlar kiritadi. Ular asosida o'quvchilarning intizomi, o'quv jaraëniga mas'uliyati, faolligi, mustaqil fikrlashini, mustaqilligi, sinf faoliyatiga ijodiy èndashishini nazorat eta oladi.

Tarbiyalovchi funksiya: o'quv-tarbiya jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar, qadriyatlar, motivatsiya, rag'batlantirish tizimini shakllantirish. Har bir o'quvchini real voqe'likka ishtirok etish hamda yaratuvchanlikka undash.

Kommunikativ funksiya (ta'lim jarayoni ishtirokchilarining individual-tipologik o'ziga xosliklarini inobatga olgan holda shaxslararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirish);

Konstruktiv funksiya (ta'lim jarayonini tashkil etuvchilarga o'zgartirishlar kiritish va pedagogik korreksiyalash);

Axborot funksiyasi (ta'lim jarayoni ishtirokchilarini pedagogik diagnostika natijalari bilan tanishtirish va o'qituvchi-o'quvchi o'rtasidagi "pedagogik sir"larni saqlash);

Bashoratlash funksiyasi (bashoratlash, rivojlanish istiqbollarini aniqlab olish).

Pedagogik diagnostikani muvafaqiyatli amalga oshirish uchun uning o'ziga xos jihatlarini ham hisobga olish zarur. Ayni holatda bular: asosiy prinsiplar, darajalar, bosqichlar, texnologiyalar va pedagogik diagnostika metodlari hisoblanadi.

Pedagogik diagnostikaning asosiy prinsiplari quyidagilar hisoblanadi:

majmuaviylik;

uzluksizlik;

yaxlitlik;

ob'ektivlik;

pedagogik hodisalar va faktorlarni o'rganish muntazamligi;

determinizm prinsipi;

analiza va sintez prinsipi;

bosh bo'g'in prinsipi.

Pedagogik diagnostika (tashxis) tamoyillari.

Umuman olganda, pedagogik diagnostika tamoyillarini quyidagicha ta'riflash mumkin.

Butunlik tamoyili. Pedagogik diagnostikaning ushbu tamoyiliga rioya qilishda ob'ektni ma'lum o'zaro bog'liq komponentlardan tashkil topgan butun bir tizim sifatida ko'rish lozim, chunki bunday yondashuv ob'ektning amal qilish mexanizmiga kirishga, uning tarkibiy qismlari o'zaro ta'sir aloqalarining ko'rinishini to'zishga, uni tugallangan bir narsa sifatida ko'rishga imkon beradi.

Bosh zanjir (bo'g'in) tamoyili. Pedagogik jarayon va uni boshqarish shu qadar ko'p qirrali va murakkabki, ularning har bir tarafini yoki aloqalarini diagnostika qilish mumkin emas. Qabul qilish, pedagogik dalillarni yozib olish o'zining ahamiyati va haqqoniyligi bo'yicha ko'p sonli xulosalarga olib keladi.

Ma'lumki, pedagogik jarayonga ko'pgina, ba'zan tasodifiy omillar ham ta'sir qiladi. SHu sababli o'rganilayotgan obektning amal qilishiga ta'sir qilayotgan asosiy zanjir(bo'g'in)ni ajratib olish zarur. Bu hol jarayonni boshqarish bo'yicha choralarni

ishlab chiqishga va boshqa ahamiyatsiz va tasodifiy omillarning ta'sirini kamaytirishga imkon beradi. Biroq diagnostika qilish dasturini to'zishda diagnostik jarayon vaqtida bosh zanjir qo'yilgan vazifalarning echilishiga qarab o'zgarishi mumkinligini hisobga olish zarur.

Haqqoniylik tamoyili. Ushbu umummilliy tamoyil butun diagnostik jarayonning o'zgartirilishi bilan bog'liq. Xususiyatlarni o'rganib, ichki va tashqi aloqalarni tahlil qila turib, pedagog mavjud dalillarni tushuntirishga, pedagogik xulosalar chiqarishga, ma'lumotlarga o'z munosabatini shakllantirishga harakat qiladi.

Pedagogik jarayonda bir qancha sub'ektiv ma'lumot mavjud bo'lganligi sababli ushbu tamoyilga rioya qilish muhimdir.

Shuning uchun pedagog o'ziga nisbatan o'ta talabchan bo'lishi, holatlarni baholashda, fikrlarini ifodalashda ilmiy yondashuvni qo'llashi, ularni har tomonlama tekshirishi kerak.

Determinizm tamoyili. Bu tamoyil pedagogik holatlarning sabab-shartlarini, ular orasidagi aloqalar va bog'liqliklarning turli qonuniyatlarini ta'kidlaydi.

Pedagogik holat ba'zida boshqa aniq holatlarning ta'siri natijasi sifatida paydo bo'lishini tan olish kerak. Ehtimol, sabab va oqibat orasidagi aloqa bitta holatning ikkinchisini keltirib chiqarishidadir. Shuning uchun ushbu aloqani izlab topish pedagogik diagnostika qilishda sabablarni aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil va sintez tamoyili. Pedagogik diagnostika ob'ekta bir qator omillardan tashkil topganligi sababli uning negizigacha darhol etib borishi mushkul. Buning uchun tahlil o'rganilayotgan ob'ektning hayolan taqsimlanib ketishi sifatida qo'llaniladi. Tahlil yordamida diagnostika qilinayotgan ob'ekt qanday mustaqil elementlardan to'zilganligi, qanday aloqalar, munosabatlar bilan tavsiflanishi aniqlanadi. Bu harakatlar turli tavsiflar, belgilar, xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan. Taqsimlanish natijasida tuzilmaviy birliklar, aloqalar, o'zaro ta'sirlar, o'zgarishlar maqsadli o'rganilayotgan predmetga aylanib qoladi.

Tahlil ob'ektning ajratilgan qismlarini hayolan yagona bir jismga birlashtirishga yo'naltirilgan sintez bilan bog'liq bo'lishi sababli, tahlil va sintez diagnostik jarayonda bir-biri bilan uyg'unlashadi.

Pedagogik diagnostika tamoyillari tizimining chegaralari, bizningcha, quyidagicha: ta'kidlash lozimki, mazkur tamoyillar pedagogik diagnostikaning barcha bosqich(daraja)larida qo'llaniladi, lekin pedagog tomonidan qo'llash koeffitsienta turlicha. U yoki bu tamoyilning qo'llanish xususiyati va ulushi har bir holatda maqsadi, xajmi va diagnostikaning tegishli bosqichi bilan aniqlanadi.

Pedagogik diagnostika darajalari

1-daraja – komponentli diagnostika.

Ob'ektda alohida komponentlar(tarkibiy qismlar)ni tanlab olib, ular alohida diagnostika qilinadi. Bu pedagogik diagnostikaning dastlabki darajasi hisoblanib, kamroq amaliy natijalarni beradi.

2-daraja tuzilmali diagnostika.

Diagnostikaning bu darajasida pedagogik jarayonning tuzilmasi aniqlanadi. Pedagogik jarayonnining turli komponentlari(tarkibiy qismlari) orasidagi munosabatlar o'rganilib, ma'lum farazlarni ilgari surish imkoniyati tug'iladi. Bunday diagnostika natijalarini amaliy jihatdan qo'llash samara berishni boshlaydi.

3-daraja – tizimli diagnostika.

Yaxlit pedagogik jarayonning alohida tomonlari funksiyalarini aniqlash va rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Diagnostikaning bu darajasi deyarli tugallangan hisoblanadi. Bu darajada alohida komponentlar o'rtasidagi aloqalar to'liq aniqlanadi, qo'yilgan maqsad va erishilgan natijani bog'lovchi tizimdagi barcha pedagogik vaziyatlar nazorat qilanadi.

2.2.Pedagogik diagnostika funksiyalari mazmuni.

Har o'quv yili uchun dastur asosidagi ta'lim, tarbiya va bolalar rivojlanishi natijalari, nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarning aniq faoliyat texnologiyasi talabalariga mosligi,

zarur texnologik ko'nikmalarni egallash, bola shaxsi rivojlanishi uchun zarur shart-sharoit, bolalarning ta'lim faoliyatdan qoniqishlari pedagogik diagnostikaning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Pedagogik diagnostika, maktab rahbariyati, tashqi ekspertlar, tajribali pedagoglar, uslubshunoslar tomonidan amalga oshiriladi.

Pedagogik diagnostika o'z mazmunida quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

-o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish - bu yo'nalish jamiyat talabalariga javob beradigan shaxslarning tarbiyalanganlik darajasi, ularning xulq-atvori, odobi ma'naviy - axloqiy qiyofasini o'rganishga qaratilgandir.

-tashkiliy-metodik diagnostika - o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini, o'quv-tarbi jarayonining metodik jihatdan ta'minlanganlik darajasini baholashga qaratiladi.

-didaktik diagnostika - pedagogik jarayonni samarali tashkil etish va takomillashtirish uchun xizmat qilishdir.

O'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayonidagi og'zaki va yozma javoblarini, javoblardagi tipik xatolarni, ularning sabablarini, o'quv faoliyatidagi salbiy o'zgarishlarni, shaxslarda o'quv mehnat malaka va ko'nikmalarning rivojlanganlik darajasini, ta'lim olishga nisbatan moyilliklari diagnostika qilinadi.

-ijtimoiy-pedagogik diagnostika - shaxslarning pedagogik qarovsizligi, moslashganlik darajasi, tarbiyasi og'ir bolalarni diagnostika qilishda ijtimoiy omillarni hisobga oluvchi yo'nalishdir. Diagnostika pedagoglar tomonidan maktabdan, o'quv yurtidan tashqarida olib boriladi. SHu sababli diagnostika jarayonida oila sotsiologiyasi va iqtisodi, xuquq sotsiologiyasi, dam olish sotsiologiyasi, iqtisodiy sotsiologiya kabi sohalarda qo'llaniladigan metodikalar va ko'rsatkichlardan foydalanishni taqozo etadi.

-ijtimoiy psixologik-pedagogik diagnostika - bu yo'nalish sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogikani o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, shaxslar, pedagoglar, ota-onalar guruhlarini,

shaxslarga ommaviy kommunikatsiya vositalarining (radio, televizor, gazetalar va h.k.) ta'sirini, shaxslarning burch va huquqlari, ular orasidagi munosabatlarni o'rganishga yo'naltirilgandir.

2.3.Pedagogik diagnostika bosqichlari

Agar istalgan texnologiyani birin-keyin amalga oshiriladigan bosqichlar tizimi deb hisoblasak, unda pedagogik diagnostika texnologiyasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

1. Pedagogik diagnostikaning ob'ekti, maqsadi va vazifalarini aniqlash.
2. Amalga oshirilishi mo'ljallangan diagnostikani rejalashtirish
3. Diagnostika vositalarini tanlash (mezonlar, darajalar, metodlar).
4. Tashxislanadigan ob'ekt haqida ma'lumotlarni yig'ish va to'plash.
5. Amalga oshirilgan diagnostika natijalarini qayta ishlash, tahlil qilish, tizimlashtirish.
6. Ob'ektning keyingi rivojlanish istiqobllarini bashoratlash. Pedagogik diagnostikani asoslash va baholash.
7. Pedagogik diagnostika natijalarini amalda qo'llash, pedagogik jarayonni boshqarishni takomillashtirish maqsadida korrektsiyani amalga oshirish

Pedagogikada kuzatish, eksperiment, anketa, suhbat, intervyu, so'rov, test, pedagogik hujjatlarni o'rganish(dasturlar, O'MM, shaxsiy faoliyat portfoliosi) kabi pedagogik diagnostika metodlaridan foydalaniladi.

Nazorat uchun savollar

1. "Pedagogik diagnostika" tushunchasining mazmun mohiyatini ochib bering
2. Pedagogik diagnostikaning funksiyalarini aytib bering.
3. Qayta aloqa funksiyasini tushuntiring.
4. Baholash funksiyasi mazmunini aytib bering.
5. Boshqaruv funksiyasi nimalarda namoyon bo'ladi?
6. Pedagogik diagnostikaning qanday darajalari va bosqichlari mavjud.

3-MODUL. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING UMUMIY TAMOYILLARI VA PEDAGOGIK HODISAIARNING DARAJALARI

3-MAVZU. PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING ASOSIY TAMOYILLARINING MOHIYATI VA MAZMUNI

3.1. Pedagogik diagnostikaning darajalari

Zamonaviy sharoitda «Pedagogika» fani har tomonlama rivojlangan, komil shaxsni tarbiyalab voyaga etkazish masalasini hal qilishga yo'naltirilgan. Asrlar davomida shakllangan ta'lim va tarbiya tizimi yuksak ong, tafakkur, dunyoqarash, axloqiy fazilatlar va hayotiy tajribaga ega shaxsni tarbiyalashga doir boy an'analarni o'zida aks ettiradi.

Kishilik taraqqiyotining turli bosqichlarida pedagogika amaliyotida ana shu boy an'analarga tayanib kelingan. Biroq mavjud pedagogik an'analarga turg'un xarakterga ega bo'lmay, o'z g'oyalari ijtimoiy borliqda ro'y berayotgan o'zgarishlar, erishilayotgan yutuqlar asosida dinamik, dialektik ravishda boyitib boradi. Bu esa o'z navbatida pedagogik jarayon, faoliyat va ilmiy-tadqiqot sohalarida yangidan yangi yo'nalishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Yangi yo'nalish g'oyalari, tamoyillarining tobora boyib, ko'payib borishi esa pedagogik turkum fanlar sirasida mustaqil fanlarning shakllanishini ta'minlaydi. So'nggi chorak asr mobaynida pedagogik turkum fanlarining soni «Ijtimoiy pedagogika», «Pedagogik texnologiya», «Innovatsion pedagogika», «Pedagogik innovatika», «Pedagogik konfliktologiya», «Pedagogik diagnostika» kabi mustaqil fanlar hisobiga oshdi. Mazkur fanlarning har biri pedagogika amaliyotida o'zining munosib o'rniga ega va ular dolzarb pedagogik muammolarni samarali tadqiq qilishga yordam bermoqda. «Pedagogik diagnostika» nisbatan yosh fan bo'lib, jahon ta'limi amaliyotida o'zining mustaqil o'rniga ega bo'lganiga hali unchalik ko'p vaqt bo'lmadi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida esa mazkur fanning o'quv fani

sifatida o‘qitilishi borasida dastlabki tajribalar to‘plangan bo‘lsa-da, biroq o‘qituvchilar «Pedagogik diagnostika»ning barcha imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish bo‘yicha boy amaliy tajribalarga ega emaslar. Shu bois ayni vaqtda respublikamiz ta‘lim muassasalarida fan imkoniyatlaridan samarali foydalanishga jiddiy e‘tibor qaratilmoqda.

Pedagogik diagnostikaning etakchi g‘oyalari, ustuvor tamoyillari bilan tanishish mazkur fanning kompyuter texnologiyasi vositasida shaxs loyihalash madaniyatini rivojlantirish yo‘lida tashkil etilayotgan pedagogik ilmiy tadqiqot samaradorligini ta‘minlashda amaliy ahamiyatga egaligiga ishonch hosil qilindi. Quyida shu haqida batafsil so‘z yuritiladi. Dastlab kompyuter texnologiyasi vositasida shaxs loyihalash madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat mohiyati, maqsadidan kelib chiqqan holda «Pedagogik diagnostika» tushunchasining mazmuni bilan tanishib olish maqsadga muvofiqdir.

«Diagnostika» (tashxis; yun. «diagnostikos» – bilish, aniqlash) tushunchasi «aniqlashga qodir» ma‘nosini anglatadi. Ushbu tushuncha ilk marotaba tibbiyotda qadimgi YUnonistonda qo‘llanilgan. Qadimgi yunonlar muvaffaqiyatli davolash uchun kasallik va uning sabablarini to‘g‘ri anglash, bemor organizmi xususiyatlari, kasallikning kechishi tavsifidan xabardor bo‘lish, turli davo vositalarining ta‘sirini bilish va shu sababli kasallikni davolashdan ko‘ra unga to‘g‘ri tashxis qo‘yish muhim ekanligini anglashgan.

Tibbiyot sohasida kasallikka tashxis qo‘yish borasida o‘sha davrlardayoq izlanishlar olib borilgan. Xalqning boy hayotiy tajribasi, o‘ziga xos davolash iqtidoriga ega shaxs (tabib, kohin) larning izlanishlari natijasida turli kasalliklarga to‘g‘ri tashxis qo‘yish amaliyoti ilmiy bilimlar bilan boyigan.

Kishilik jamiyatining ilk bosqichida tibbiyotda oddiy va ko‘z bilan ko‘rish mumkin bo‘lgan kasalliklarga tashxis qo‘yishda suyak sinishi, jarohat, qayt qilish, ich ketish, og‘riqni his qilish, isitma kabi belgilarga tayanilgan.

Qadimgi Misr va Hindistonda tana haroratining ko‘tarilishi, yurak faoliyatini eshitish, tanani paypaslab ko‘rishga e‘tibor qaratilgan bo‘lsa, qadimgi Xitoyda tomir orqali yurak pulsini o‘lchash, YUnonistonda esa tashxis qo‘yish ilmiy klinik (ham tashxis qo‘yish, ham davolash ishlari birga olib boriladigan) tibbiyot uchun boshlang‘ich asos bo‘lib xizmat qilgan. Tibbiy diagnostikaning asoschisi Gippokrat hisoblanadi. Uning tashxis qo‘yish uslubi bemor holatini kasallikning dastlabki va keyingi davrdagi holatini sinchiklab o‘rganish, kasallikning ayrim belgilariga ta’sir ko‘rsatish, ma’lum uskuna (masalan, naycha – naysimon asbob) yordamida ichki organlar holatini tekshirish, o‘pkadagi xirillash, o‘pka pardasidagi ishqalanishni eshitish, jigar va taloqni paypaslab ko‘rishdan iborat bo‘lgan. Uyg‘onish davri, ayniqsa, XVIII-XIX asrlarda tibbiyotda yangi, jumladan, harorat o‘lchovchi asbob (termometr), tanaga barmoq bilan urib ko‘rib eshitish (perkussiya), yurak urushi va o‘pkani eshitib ko‘radigan asbob (stetoskop), Rene Teofil Giatsint Laennekning¹ eshitib ko‘rish metodi va boshqa tashxis metodlari yaratildi.

Shunga ko‘ra dastlab «diagnostika» tushunchasi negizida kasalliklarni aniqlashda qo‘llaniladigan metodlar va ular to‘g‘risidagi ta’limot ifodalangan. Zamonaviy sharoitda esa mazkur atama bemor shaxsi, u mansub bo‘lgan ijtimoiy muhit, ruhiy holati, organizmining irsiy va fiziologik xususiyatlari, kasallikning kelib chiqish sabablari, kechishi, organizmda kechayotgan fiziologik holatlar, organizmning tashqi muhit omillari, turli davo vositalariga ta’sirchanligi, shuningdek, davo vositalarining boshqa organlar faoliyatiga ta’siridan iborat yaxlit jarayonni hamda davolovchi shifokorning kasallikni aniqlash va bemor holati bo‘yicha kuzatishlari, mulohazalarini ham anglatadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida iqtisodiy, madaniy o‘zgarishlar, sub’ektlarning hayot tarzidan kelib chiqqan holda «diagnostika» tushunchasi turli sohalarda ham qo‘llanila boshlandi. Masalan, texnika sohasida (texnik diagnostika;

¹ 1 Scherer J. R. Before cardiac MRI: Rene Laennec (1781- 1826) and the invention of the stethoscope. (англ.) // Cardiology journal. 2007, vol. 14, no. 5. –P. 518-519; Ларинский Н.Е., Абросимов В.Н. История физикальной диагностики в биографиях, портретах и фактах. – Рязань, 2012. –С. 220-221.

mashina, mexanizm, uskuna, inshoot, qurilma, boshqa texnik ob'ektlar)ning texnik holatini baholash metodlari va vositalarini o'rganish), iqtisodiy sohada (iqtisodiy diagnostika; iqtisodiy munosabatlar, o'zgarishlar mohiyatini tahlil qilish asosida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, mahsulotlarni etkazib berish va sotish, sohalarni malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, ularni boshqarishda ro'y berishi kutilayotgan muammolar, ularning tavsifi, belgilarini o'rganish), psixologiya sohasida (psixologik diagnostika; qobiliyati, qiziqishlari, mayllari, ichki imkoniyatlarini namoyon qilishi va bevosita ulardan foydalana olishni o'rganishi to'g'risidagi ma'lumotlarga tayangan holda shaxsni tadqiq qilish).

Pedagogik diagnostikaning rivoji psixologik diagnostika bilan bog'liq va bevosita uning negizida yuzaga kelgan. Psixologik diagnostikaning o'zi XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida psixologiya sohasida olib borilgan qator tadqiqotlarning g'oyalariga asoslangan holda mustaqil fan sifatida shakllana boshladi.

Bu davrda V.Vundt va V.Shtern tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda nafaqat yuqori psixologik funksiyalarni ifodalovchi holatlarga asoslanuvchi umumiy psixologik qonuniyatlar, balki shaxsning individual xususiyatlari (idrok, xotira, diqqat, ta'sirlanish tezligi va sh.k.) keng ko'lamda o'rganildi. Biroq bilish sohasida «psixologik diagnostika» tushunchasining bevosita qo'llanilishi G.Rorshax bilan bog'liq.

U tomonidan 1921 yilda «Psixologik diagnostika: idrokka asoslangan tashxislovchi test» nomli asarning e'lon qilinishi «Psixologik diagnostika» tarixining aynan shu nom bilan rivojlanib borishini ta'minladi². Bugungi kunda o'qituvchi kasbiy faoliyatining muhim tarkibiy qismiga aylanib borayotgan «Pedagogik diagnostika»ning tarixida nemis olimi Karlxayns Ingenkampning alohida o'rni bor.

² Пудочкина Т.С. Педагогическая диагностика: инструментарий, организация, проведение, обработка и использование результатов. // www.openclass.ru/node/249066.

Chunki aynan Karlxayns Ingenkamp³ 1968 yilda ta'lim sohasida «pedagogik diagnostika» tushunchasini qo'llash taklifini ilgari surdi. Muallif tashxisga asoslanuvchi pedagogik faoliyat negizida sifatning zarur ilmiy mezonlarini saqlab qolgan holda o'qituvchi tomonidan o'quvchilar faoliyatini anketa yordamida kuzatish, nazorat va so'rovlar natijalarini qayta ishlash orqali hatti-harakatlari mohiyatidan ularni xabardor qilish, natijalar uchun negiz bo'lgan sabablarni yoritish va istiqbolni izohlash jarayonini tushungan edi.

Pedagogik diagnostika darajalari va tamoyillari

Pedagogik diagnostika turli bosqichlarda amalga oshiriladi. N.K.Golubev va B.P.Bitinas pedagogik diagnostika qilishning quyidagi darajalarini umumiy shaklda ta'riflaydilar.

Birinchi bosqich- komponentalik diagnostika.

Ma'lumki, har qanday pedagogik holat va pedagogik jarayon ko'p sonli xususiyatlar, belgilar, o'lchamlar bilan tavsiflanadi. Ob'ektning alohida komponentlarini ajratib, keyin ularning ba'zilarini tavsifini olganda, pedagog komponentalik diagnostikani amalga oshiradi. Biroq komponentalik diagnostika beradigan istiqbollar har doim ham to'la amalga oshavermaydi va past amaliy ko'rsatkichlarga ega bo'ladi. Diagnostika amaliy ahamiyatga ega bo'lishi uchun uni davom ettirish lozim.

Ikkinchi bosqich- tuzilmaviy diagnostika.

Tuzilmali diagnostika bosqichiga o'tish pedagogning vazifasini murakkablashtiradi. U pedagogik jarayon alohida komponentlarining holatini aniqlashdan ular orasidagi aloqalarni aniqlashga o'tadi. Boshqacha aytganda, ushbu bosqichda jarayonning tuzilmasi aniqlanadi, demak, pedagogik jarayon alohida komponentlari orasidagi bog'liqlikning turli darajalarini aniqlash uchun taxminlarni ilgari surish imkoniyati paydo bo'ladi. Guruhdash o'rniga tahlil usullari kelib chiqadi, ular ob'ektning alohida tomonlarini shakllantirish uchun tanlangan sharoitlarning to'g'riligi va natijaviyligi orasidagi bog'liqlikning mavjudligini tasdiqlash yoki inkor qilishga imkon beradi. Diagnostikaning bu

³ Ингенкамп К. Педагогическая диагностика. / Пер. с нем. – М.: «Педагогика», 1991. –С. 238.

bosqichida o'lchamlar soni qisqaradi(asos qilib olingan ba'zi o'lchamlar chiqarib tashlanadi, boshqalari umumlashtiriladi). Demak, natijalar amalda qo'llanilishiga yakun bo'ladi. Shunga qaramay, faqat keyingi bosqichda diagnostika tugallanganlik ko'rinishiga ega bo'ladi.

Uchinchi bosqich- tizimli diagnostika.

Bu diagnostika turi pedagogik jarayon alohida taraflarining vazifasini bugun tizimli holat hamda ushbu jarayonni rivojlantirish vazifasi sifatida aniqlashga imkon beradi. Ushbu bosqichda nafaqat alohida komponentlar orasidagi aloqalarning to'la ko'rinishi namoyon bo'ladi, balki turli pedagogik tizimosti holatlarning o'zaro bog'liqligini aniqlash vazifasi ham qo'yiladi. Ko'p vaqtlar mobaynidagi kuzatish tanlanma tadqiqotlarining o'zini mujassamlashtiradigan pedagogik diagnostika qo'yilgan.

Shuni takidlashi kerakki pedagogik diagnostika barcha bosqichlarda cheklangan maqsadlarga erishishga yetarli bo'lgan ma'lum bir vazifani bajaradi. pedagogik diagnostika (tashxis) tamoyillarini quyidagicha tariflash mumkin:

butunlik tamoyili pedagogik diagnostika ushbu tamoliga rioya qilishda obektni ma'lum o'zaro bog'liq komponentlardan tshkil topgan butun bir tizim sifatida korish lozim , chunki bunday yondoshuv obektning amal qilish mexanizmga kirishga,uning tarkibiy qismlarga ta'sir aloqalarning ko'rinishini tuzishga uni tugallangan bir narsa sifatida ko'rishga imkon beradi.

Bosh zanjir (bo'g'in) tamoyili pedagogik jarayon va uni boshqarish shu qadar kop qirrali va murakkabki ularning har bir tarafini yoki aloqalarini diagnostika qilish mumkin emas qabul qilish pedagogik dalillarni yozib olish o'zining ahamiyati va haqoniyli boyicha ko'p sonli hulosalarga olib keladi. Ma'lumki pedagogik jarayonga kopgina bazan tasodifiy omillar ham tasir qiladi shu sababli o'rganilayotgan obektning amal qilishiga tasir qilayotgan asosiy zanjirni ajratib olish zarur.

Haqoniylik tamoyili. Ushbu umum milliy tamoyili butun diagnostik jarayoning ozgartirilishi bilan bog'liq.

Xususiyatlarini o'rganib ichki va tashqi aloqalarni taxlil qila turib pedagogik mavjud dalilarni tushuntirishga pedagogik xulosalar chiqarishga ma'lumotlarga o'z munosabatini shakillantirishga harakat qiladi.

Pedagogik jarayonda bir qancha subektiv ma'lumot mavjud bolganligi sababli ushbu tamoyili. Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'limni rivojlantirish natijasida pedagogik diagnostikani rivojlantirish va bolalarni xar tomonlama rivojlantirish sifatini oshirish asosiy muammolardan biridir.

Rioya qilish muhimdir shuning uchun pedagog oziga nisbatan ota talabchan bo'lishi fikrlarni ifodalashda ilmiy yondashuv qollashi ularni har tamollama tekshirishi kerak.

Determinizm tamoyili bu tamoyili pedagogik holatlarning sabab – shartlarni ular orasidagi aloqalar va bog'liklarning turli qanuniyalarini takidlaydi pedagogik holat bazida boshqa aniq holatlaning tasiri natijasi sifatida poydo bolishini tan olish kerak shuning uchun ushbu aloqani izlab topish pedagogik diagnostika qilishda sabablarni aniqlash uchun asos bolib xizmat qiladi.

Taxlil va sintez tamoyili. pedagogik diagnostika abektga bir qator omillardan tashkil topganligi sabobli uninig negizigacha darhol yetib boorish mushkul buning uchun tahlil organilayotgan otektning hayoli taqsimlanib ketishi sifatida qollaniladi. Tahlili yordamida diagnostika qilinayotgan obekt qanday mustakil elementlardan tuzilganligi qanday aloqalar munosabatlar bilan tafsiflanishi aniqlanadi buharakatlar turli tafsiflar belgilar hususiyatlarni aniqalshaga qaratilgan tahlil obektning ajratilgan qismlarni hayolan yagona bir jismga birlashtirishga yonaltirilgan sintez bilan bog'liq bolishi sababli tahlil va sintez diagnostika jarayonda bir biri bilan uyg'unlashadi .

Pedagogik diagnostika tamoiyllari tizimining chegaralari bizningcha quydagicha; takidlash lozimki maskur tamoyillar pedagogik diagnostikaning barcha bosqichlarda qollaniladi lekin pedagogik tamonidan qollash koefitsienti turlicha u yoki bu tamoliylning qollanish hususiyati va ulishi har bir holatda maqsadi xajmi va diagnostikaning tegishli bosqichi bilan aniqlanadi.

Albatta, har qanday fan sohasi o'ziga xos ob'ektga va predmetga va ularga mos keladigan tadqiqot yoki amaliy o'rganish metodlariga, o'z tamoyillariga egadir. Psixologik-pedagogik diagnostikada qo'llaniladigan metodlar va tomoyillar hozirgi zamon psixologiya fani va pedagogika fanida orttirilgan ilmiy, amaliy tajribalar, shakllangan tomoyillar asosida shakllanmoqda. Shu bilan birga o'z xususiyatlariga ega hamdir. Buning sababi pedagogik-psixologik diagnostikada qo'llaniladigan metodlar va tomoyillar fanda biror yangilik ochishdan ko'ra ko'proq mavjud bilimlar, metodlar, tamoyillarning amalda samarali qo'llanishiga xizmat qiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, psixologik-pedagogik diagnostikaning quyidagi tomoyillarini ko'rsatib o'tish mumkin.

1. Diagnostika nazariyasi va metodlarining ilmiy asoslanganligi. Diagnostika ob'ektini yaxlit ravishda genetik va tizimli tahlil qilish, ularni modellashtirish, qo'llaniladigan metodikalar, ko'rsatkichlarning ilmiy aniqligini, validligini puxta ishlab chiqilgan metodologik asoslarda ta'minlash. Ilmiy asoslanganlik tamoyili qo'llanilayotgan metodikalarning etnik ijtimoiy muhitga, shu jumladan diagnostika o'tkazilayotgan o'quv yurti va o'quv guruhiga mosligini talab qiladi. Bu tamoyilga amal qilish pedagog-dagnostlarni turli xil engil, ko'ziga yaxshi ko'ringan yoki qo'lga tushib qolgan metodikalarni bilib-bilmay qo'llashdan saqlaydi.

2. Diagnostikaning izchilligi va aniq yo'nalganligi. Psixologik-pedagogik diagnostika boshqa psixodiagnostik, pedagogik diagnostikadan farqli ravishda aniq yo'nalishga, aniq ob'ekt va maqsadga qaratilgan. SHu sababli diagnostika faoliyati (jarayonining) natijalari umumiy xulosalar, abstrakt mulohazalardan emas, balki aniq shaxsga, aniq guruhga tegishli bo'lishi, diagnostika natijasida aniq xulosa chiqarib, kamchiliklarni bartaraf qilish, yordam berishning aniq yo'llarini ko'rsatib berish lozim.

3. Diagnostika shakl va metodlarining optimalligi. Qo'llanilayotgan metodikalar, shaxsga yondashish usullarining

amaliyotchi psixolog, pedagog yoki pedagog-diaagnostga kam kuch va vaqt sarflab muhim, sifatli, katta amaliy ahamiyatga ega ma'lumotlar yig'ishga imkon berishi. Diagnostikaning shakl va metodlarining optimalligini ta'minlash uchun pedagogikada va psixologiyada ko'p yillar davomida qo'llanib kelayotgan, qulay, oddiy va shu bilan birga samarali metodlarini tanlash zarur.

4. O'rganish ob'ekti haqidagi faktlarni yig'ish, bayon qilish va to'g'ri yo'lga solishning birligi. O'rganilayotgan ob'ekt haqida ma'lumotlar yig'ish, ularni pedagoglarga ko'rsatish va diagnostika jarayonida o'rganilayotgan shaxsga yoki o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishda, kamchiliklarni bartaraf qilishda o'quv yurti rahbarlariga, pedagoglarga ma'lum psixologik, pedagogik yordamlar berish, to'g'ri yo'lga solish, qo'llab-quvvatlash funksiyalarining birgalikda olib borilishi.

5. Diagnostikaning ketma-ketligi va uzluksizligi diagnostikaning bosqichma-bosqich amalga oshira borib, o'quv jarayoniga, shaxsning o'zlashtirishiga xalaqit berayotgan sabablarni ochish, olingan natijalarni keyingi bosqichlarda, o'quv-tarbiya jarayonida uzluksiz foydalanishda yuzaga chiqadi.

6. Diagnostika metodlari va jarayonlarining qulayligi va ommabopligi. Diagnostika metodlarining oddiyligi, pedagoglar, amaliy psixologlar, o'quv yurti rahbarlari, tekshiriluvchi uchun qulayligi, ularda diagnostikaga nisbatan qiziqish, intilish uyg'otishga xizmat qilishini ta'minlovchi tamoyil.

7. Didaktikaning har tomonligi (kompleksliligi). Bu tamoyil shaxs shaxsini, o'zining individual-psixologik xususiyatlarini, ruhiy jarayonlarining rivojlanganlik darajasini, o'quv faoliyatining boshqa xususiyatlarini o'rganish uchun tanlangan metodlar va metodikalar shaxsning bir butun har tomonlama o'rganish, ta'riflash, yondoshish imkonini berishda yuzaga chiqadi. Diagnostik metodikalar bir-biri bilan bog'liq bo'lishi, bir-birini to'ldirishi bu tamoyilning asosiy tadbirlaridan biridir.

8. Diagnostikaning shaxs rivojlanishining kelajagini, oqibatlarini oldindan ko'ra olish (prognoz qilish) imkonini bera olish. Har qanday psixologik-pedagogik diagnostika shaxsning

kechagi yoki bugungi kundagi rivojlanish darajasini, o'quv jarayonining tashkil qilinganlik darajasini ko'rsatib berish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Diagnostik jarayonida o'rganilayotgan ob'ektning kelajagi, ertangi kuni ham taraqqiyot tendensiyalari, ham ma'lum omillar ta'sirining oqibatlari ochib berilishi kerak. SHu holdagina prognoz mohiyatidan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonida yo'l qo'yilayotgan xatolar, shaxs taraqqiyotidagi ko'zga tashlangan kamchiliklarni bartaraf qilish, to'g'ri yo'lga solish imkoniga ega bo'lamiz. Shu sababli psixologik-pedagogik diagnostika metodlarining prognostik bo'lishi eng muhim talablardan biridir.

Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo'yishni unga erishish bo'yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi.

Bir so'z bilan aytganda, o'qituvchi va o'quvchilarning xatti-harakatlariga asoslangan pedagogik metod natijasida o'quvchilar bilim, iqtidor va ko'nikmalarga ega bo'ladilar, o'z dunyoqarashini, tafakkurini va ma'naviyatini yuksaltirishga erishadilar.

Ta'lim-tarbiyaga taalluqli xatti-harakatlarni tafakkurga asoslanib tahlil qilish pedagogika va didaktikada yagona usul hisoblangan.

Diagnostika haqida jiddiy xulosa chiqarish uchun muntazam ravishda olib borilgan kuzatishlar, tajriba, faktlarga asoslangan empirik tadqiqotlar natijalariga asoslanish zarur.

Pedagogik diagnostikaning kuzatuv metodi.

Kuzatishni tadqiqotchi biror maqsadni ko'zda tutib tashkil etadi. Kuzatish rejalashtiriladi, uning dasturi tuziladi. Bunda kuzatish tezligi, soni, manzili, vaqti, vaziyatni kuzatish, materiallarni qayd qilish muddati belgilanadi. Kuzatish muddatiga ko'ra ikki turga ajraladi: qisqa va uzoq muddatli kuzatish - qisqa kuzatish ob'ektning kundalik faoliyatdagi o'zgarishlaridan ma'lum xulosaga kelish. Uzoq muddatli kuzatish-qo'yilgan maqsad, reja va dastur asosida olib borilib, ma'lum ilmiy, yakuniy

xulosaga kelinadi. Kuzatishni yakuniy qayd qilishda kinos'yomka, video yozuvi, televidenie va boshqa texnik vositalardan foydalanish mumkin. Kuzatish metodidan to'g'ri foydalanish o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi. YAngi ijodiy faoliyatga boshlaydi.

Pedagogik diagnostikada kuzatuv metodi o'quvchi-talabaning o'qish talabini, munosabatini, mas'uliyatini, qiziqishini, bilimga intilishini aniqlaydi. Tabiiyki, o'quvchi-talabadagi bunday xislatlarni belgilashda uning xarakteri, xulq-atvori va ijtimoiy jihatlariga katta ahamiyat beriladi. Chunki, o'quvchi-talabaning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlashda shaxsiy, oilaviy, axloqiy ko'rsatkichlar muhim rol o'ynaydi.

Pedagogikaning kuzatish metodi ta'lim-tarbiya jarayonlarining amaldagi holati bilan tanishtiradi, ularning oqibat natijalarini bilishga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalillar, omillar yig'ish imkonini tug'diradi. Bu metodni qo'llanish jarayoni ancha murakkab bo'lib, nazarda tutilgan maqsad qanday amalga oshayotganligini aniqlash, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqalari, individual farqlarini qiyoslash uchun ham qo'llaniladi.

Tajribalarning ko'rsatishicha, maqsad asosidagi kuzatuv ma'lum reja asosida yig'ilgan dalillarni haqiqiy tahlil qilish, qiyoslash asosida tashkil etilsagina samarali bo'ladi.

Kuzatishlar faqat oddiy hodisalarni kuzatish, ayrim dalillarni yig'ish, hisobga olish, aniqlash uchungina emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash va mukammallashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Odatda pedagogik kuzatish orqali o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi.

Ilmiy kuzatishlar esa nafaqat o'quvchilarning tabiiy faoliyatini, balki ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllanishi, fikrlash jarayoni kuchi, xulosalar chiqarishdagi faolliklarini aniqlaydi, ularni tahlil etadi va tegishli xulosalar chiqarishga

imkoniyat tug'diradi. Bunday kuzatishlar pedagogika fani mazmunining boyishiga sabab bo'ladi.

Pedagogik diagnostikada so'roqlash metodi qadim-qadimlardan qo'llanib kelinadi. Bu metod deyarli o'qish, o'qitish, o'rganish jarayoni boshlangandan bo'yon mavjud. Agar diagnostikaning kuzatish metodida o'quvchi-talabanning axloqiy- ma'naviy tamoyillari, qiziqishi, munosabati, fikrlash doirasi, hamkorlikka moyilligi o'rganilsa, pedagogik diagnostikaning so'roqlash metodi o'quvchi- talabalarning o'zlashtirish va bilim sifati haqida ko'proq axborot to'plash imkoniyatini beradi. SHu bilan birgalikda u yoki bu shaxs to'g'risida ob'ektiv yoki sub'ektiv ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

Tadqiqot mavzusining biror tomoni yoki hodisalari haqida bilib olish maqsadida mas'ul shaxslar bilan og'zaki savollar berilib, ulardan axborot olish jarayonidir. So'roqlar mavzu doirasida mantiqan mazmunli, tartibli, aniq ifodaga ega bo'lishi lozim va uni to'g'ri yoki noto'g'rililigiga qarab jadval tuzib natijasi aniqlanadi

Eksperiment - har qanday diagnostik tadqiqotning amaliy asosidir. Pedagogik eksperiment yordamida ilmiy farazlarning ishonchliligi tekshiriladi, pedagogik jarayonlarning ayrim elementlari o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlari aniqlanadi. Pedagogik eksperiment ikki turga bo'linadi: qayd qiluvchi va shakllantiruvchi. Qayd qiluvchi eksperiment orqali ta'lim yoki tarbiya jarayonidagi mavjud muammolar aniqlanadi.

Shakllantiruvchi eksperimentda esa zaruriy ma'lumotlar o'quvchilarda shakllantiriladi. Pedagogik jarayonni aniqroq o'rganish maqsadida eksperimentator o'zi tashkil etgan jarayonni kuzatadi. U pedagogik jarayonga aralashadi, tarbiyalanuvchilar bilan tarbiyachi faoliyatining muayyan sharoitlarini yaratadi. Pedagogik eksperiment dastlabki ma'lumotlarni, aniq sharoitlarni va o'qitish usullarini yoki tadqiq qilinadigan materiallarni aniq belgilashni, shuningdek, eksperiment natijalarini har tomonlama hisobga olishni talab etadi. Quyidagilar pedagogik eksperimentning bosqichlari hisoblanadi: eksperiment o'tkazish

va natijalarni sharhlash. Rejalashtirish, eksperiment maqsadi va vazifasini belgilash, eksperiment natijasiga ta'sir etuvchi omillar va ular darajasining miqdorini aniqlash, kerakli kuzatishlar soni, eksperiment o'tkazish tartibi, olingan natijalarni tekshirish metodlarini o'z ichiga oladi. Eksperimentni tashkil etish va o'tkazish belgilangan rejaga qat'iy amal qilgan holda olib borilish kerak. Sharhlash bosqichida ma'lumotlar yig'iladi va qayta ishlanadi. Eksperiment o'tkazish ishonchlilik tamoyiliga javob berish uchun quyidagi shartlarga rioya qilishi kerak, ya'ni:

1. Tekshiruvchilar soni va tajribalar miqdorining aniq bo'lishi.

2. Tadqiqot metodlarini ishonchliligi.

3. Farqlarning statistik jihatdan ahamiyatligini hisobga olish. Turli metodlarning o'zaro qo'shib olib borilishi pedagogik tadqiqotlarning samaradorligini va sifatini oshirishga imkon beradi. Bunga matematik metodlarning hamda hisoblash-echish qurilmalari yordamidagi eksperiment natijalarining pedagogikaga kirib kelishi ham yordamlashadi. Odatda, o'rtacha arifmetik miqdor, modda, meridian, dispersiya, tanlab olinadigan to'plam majmuining o'rtacha kvadratik chetga chiqishi, o'rtacha olingan qiymat xatosi, belgilarni tuzatish koeffitsientlari hisoblab chiqiladi. Ilmiy tadqiqot natijalari amalda qo'llaniladi. Tugallangan tadqiqotda eng muhim narsa uning natijalari amalda qo'llanilishidir. Mustaqil O'zbekiston sharoitida yangi ilmiy bilimlar juda tez to'planib bormoqda. Biroq, ularni amaliy ishga joriy etish yo'lida qiyinchiliklar ham borligi ko'zga tashlanmoqda.

Bu qiyinchiliklar o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish haqidagi bilimlarining ortib borishi bilan ulardan foydalaniishning faol imkoniyatlari o'rtasidagi nomuvofiqlikdan iboratdir. Shunday bo'lsa-da, bu ularni joriy etish yuzasidan maqsadga muvofiq ishlar olib borishni istisno etmaydi. Joriy etish jarayoni pedagogik tajribani takomillashtirishga qaratilgan faoliyat deb qaraladi. Shu sababli joriy qilinishi lozim bo'lgan tavsiyalarga yuqori talablar qo'yiladi. Talablarning ilmiy asoslanganlik darajasi, ular mazmunining aniqligi pedagoglar bilan o'quvchilarning

mo'ljallangan kuch – g'ayrati mezonini to'g'ri baholashni nazarda tutadi. Joriy etish butun bir tadbirlar kompleksi bo'lib, u olingan xulosalar haqida pedagogik jamoatchilikni xabardor qilishni, yangi o'quv va metodik qo'llanmalar yaratishni, metodik yo'l - yo'riq va metodik tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Nazorat savollari:

1. Qanday pedagogik diagnostika tamoyillari va metodlari mavjud.
2. Diagnostika metodlarini tasniflang
3. Pedagogik diagnostika metodlaridan foydalanish yo'llarini ko'rsating.

4-MODUL. MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANI TASHKIL ETISHNING IIMYI ASOSLARI

4-MAVZU. PEDAGOGIK NAZORATNING ASOSIY VAZIFALARI

4.1. Pedagogik nazorat haqida tushuncha va uning mohiyati.

Pedagogik diagnostikani tayyorlash va joriy etishda ilmiy yondashuv: pedagogik diagnostika natijalarini pedagogik guruh bilan hamkorlikda o'rganish, pedagogik guruh bilan hamkorlikda muayyan o'qitishni o'rganish, diagnostika jarayonining pedagogik fan va amaliyotning zamonaviy yutuqlari bilan rioya etilishi, o'qituvchi va shaxsning tizimli va uzluksizligi.

Shunday qilib, pedagogik diagnostika o'quv jarayonini takomillashtirishning bir qator muhim vazifalarini hal qilish uchun ishlab chiqilgan degan xulosaga kelish mumkin. Pedagogik diagnostika o'ziga xos funktsiyalardan tashqari, boshqa funktsiyalarni ham amalga oshirishi muhimdir. Shu sababli, u ta'lim jarayonida etakchi rollardan biriga mansubligini aytishi mumkin.

Fridman LM shaxsiyat va fazilatlarni o'rganish usullarini eng to'liq tasniflashini beradi.

1. Tadqiqotda ishtirok etish xususiyati:

a) passiv (*kuzatuvlar, faoliyatning sifatli va miqdoriy tahlillari va boshqalar.*);

b) faol (*so'rovlar, testlar, sosyometrik usullar, proektiv, instrumental va texnik uslublar va boshqalar.*).

Kuzatuv vaqtlari bo'yicha:

a) bir bosqichli (*savol so'rash, sinov*);

b) uzoq muddatli (*maqsadli kuzatishlar, biografik usul va boshqalar.*).

3. Manzil bo'yicha:

a) maktab (*salqin, darsdan tashqari*);

b) laboratoriya;

4. Shaxsiy jalb qilish maqsadlari uchun:

- a) nonexperimental (*kuzatuvlar, so'roq qilish, suhbat, ishlash tahlili, shaxsning tavsifi*);
- b) diagnostika (*o'lchov, test, maslahat va boshqalar.*);
- c) hodisalarni tushuntirish (*tabiiy modellashtirish modeling laboratoriyasi tajribasi*);
- d) rivojlanish imkoniyatlarini identifikatsiya qilish (*formatlash tajribasi*).

Tashxis jarayonida ikki bosqich mavjud. Birinchisi, o'qituvchilikning shaxsiyati va faoliyati to'g'risida empirik ma'lumotlarning to'planishi. Ikkinchi bosqichda axborotni qayta ishlash, o'rganilayotgan ob'ektning mohiyatini tan olish, olingan ma'lumotlarning amaliyot bilan o'zaro bog'lanishi va o'qituvchining faoliyati turli darajadagi tarkibiy qismlarga ajralib turadi.

1) o'qituvchilik xususiyatini aniqlashga qaratilgan so'rovnomalar, so'rovnomalar, testlar (*o'z-o'zini baholash sinovlari*), uning jamoaviy (*sosyometriya*), uning professional malakasi darajasini aniqlash (*test-holatlar, test-yutuqlar*);

2) shaxsiyat parametrlarining maxfiy, aniq belgilarini aniqlash uchun mo'ljallangan ob'ektiv testlar (*T + tipi*). Bunga qobiliyat testlari, in'ikoslar, test sinovlari, dizayn testlari kiradi. Ushbu holatda axborotni aniqlash tavsifi yopiq bo'lib, testlarning mazmunini tushunishga bog'liqdir.

Ularning talqini juda shaxsiydir. Mutaxassislarni sinashda ishtirok etish (turdagi testlar) ob'ektni "tashqi kuzatuvchi" nuqtai nazaridan o'rganishga imkon beradi, unga o'zgartirish kiritilmaydi. Shuning uchun bu usul eng samarali hisoblanadi.

Ushbu sohada ishlaydigan deyarli barcha mualliflar pedagogik diagnostika sohasida asosiy metodlar sifatida eksper metodlarini qo'llashni tavsiya qiladi.

O'qituvchining shaxsini, uning kasbiy bilimlarini, malakasini va qobiliyatini tashxislash tajribali mutaxassislar guruhining ishtirokini talab qiladi va o'qituvchilarning o'zaro tekshirilishini tashkil etish, metodik assotsiatsiyalarni jalb qilish, metodik maslahat va boshqalarni amalga oshirish orqali amalga oshirilishi

mumkin. Shu bilan birga, o'z-o'zini tahlil qilish rag'batlantiriladi, ekspert bahosini o'tkazadi. Ekspert baholashning eng yuqori aniqligi.

Ikkinchi bosqichda (darajadagi) odatda birinchi bosqichda olingan empirik ma'lumotlarning statistik tahlil usullari qo'llaniladi.

Pedagogik diagnostika natijalari pedagogik diagnostika natijalarini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishda qo'llaniladi: o'qituvchi qiyinchiliklarni engib, ijobiy tajribani mustahkamlaydi, insonning psixologik fazilatlarini o'zgartiradi.

Pedagogik tashxisni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun aniq o'rganishimiz kerak, ya'ni diagnostika mavzusi va qaysi ko'rsatkichlar bo'yicha o'rganilayotgan ob'ektning holatini baholash mumkin.

Pedagogik faoliyatning quyidagi jihatlari o'rganiladi:

- 1) boshqaruv tomoni (*talabalar bilan o'zaro munosabatlar jarayonini rejalashtirish, tahlil qilish, nazorat qilish va tartibga soladi*);
- 2) psixologik jihat (*o'qituvchining shaxsiyati o'quvchilarga qanday ta'sir qilishi, o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, motivatsiyani aniqlaydi va yaratadi*);
- 3) pedagogik jihatdan (*qanday texnologiyalar, usullar, texnikalar va usullar qo'llaniladi*).

Ushbu yondashuv bilan o'qituvchining faoliyati talabalarni o'qitish, o'qitish va rivojlantirish maqsadlarini muvaffaqiyatli hal qilishga olib keladigan ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish hisoblanadi. Odatda bunday tuzilmalar "maqsadlarni belgilash - sabablarni yaratish - maqsadni amalga oshirish yo'llari - yakuniy natijalar" sxemasiga asosan quriladi.

O'qituvchi faoliyatining ilmiy asoslangan tahlili o'quv jarayonini takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchilarning amaliyotini tahlil qilish asosiy maqsadi - o'quvchilarning rivojlanishi darajasida ifodalangan faoliyatining natijalari va uning natijalari o'rtasidagi aloqani ko'rishdir.

Shu bilan birga, faoliyatning mazmunini va uning natijalarini bir vaqtning o'zida tashxislash mumkin emas. Ko'pincha ishda yangi texnologiyalar, usullar va texnikalar, o'tmishdagi tajribani modernizatsiya qilish masalalari e'tiborga olinadi. Bunday hollarda, birinchi navbatda, o'quvchilarning bilimlari, ularning mehnat qobiliyati va motivatsiyasi qanday o'zgarganini aniqlash kerak. Shuningdek, bolani ijobiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan eski, an'anaviy ta'lim va ta'lim usullari samaradorligini tahlil qilish muhimdir.

Diagnostika o'qituvchining ishida yangi va eskilarning oqilona birikmasini aniqlash uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari, o'qituvchilarning odatiy xususiyatlarini, yoshga bog'liq psixologik xususiyatlarini va o'quvchilarining shaxsiy xususiyatlarini bilish kerak. Bu bolalar va ularning ota-onalari bilan ishlashning kollektiv, guruh va individual usullaridan keng foydalanish imkonini beradi.

O'qituvchining ishini tahlil qilish talablarini aniq ko'rsatish kerak. Birinchidan, uning ishini tahlil qilishda qo'lga kiritilgan barcha dalillarni tushunish kerak, aniqroq bir g'oyaga keltiriladi. Ikkinchidan, har qanday pedagogik sa'y-harakatlar va olingan natijalar o'rtasidagi munosabatni aniqlash har doim muhimdir, bu ba'zan qo'shimcha darslar, ortiqcha yuklamalar, uy vazifalari bilan ta'minlanadi. Uchinchidan, o'qituvchining ta'limdagi ta'siri, uning mahoratining etukligi o'rganilmoqda. To'rtinchidan, pedagogik ko'nikmalarning o'sishi, tanqidga munosabat, uning ishiga bo'lgan talabga bog'liqligi tufayli, o'qituvchining o'z-o'zini tahlil qilish va qo'shma tadbirlarni o'z-o'zini baholash qobiliyatini aniqlash muhimdir.

O'qituvchilardan tashhis qo'yishning to'rtta asosiy yo'nalishi:
Tajribalarni oqilona foydalanish, an'anaviy usullar;
Yangi texnologiyalar, o'qitish uslublari va metodlari;
Materialning muayyan mazmunini oshkor etishda ularni oqilona birlashtirishi;
O'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini hurmat qilish haqida mulohaza mavjudligi.

O'qituvchining ishi sifati uning vakolati va malakasi bilan belgilanadi. Pedagogik faoliyat samaradorligini baholash mezonlari:

O'quvchilar bilimlari doirasi va sifati;

Amaliy ko'nikma va qobiliyatlar, chunki bilim bilim va ko'nikmalar orqali amalga oshiriladi;

Bolaning integral rivojlanishi (fikrlash, xotira, diqqat, aql, nutq va boshqalarni rivojlantirish).

O'qituvchining o'z-o'zini tashkillashtirishning to'rtta yo'nalishi:

Oldingi tajribani, an'anaviy usullarni oqilona foydalanish;

Ta'lim berishning yangi usullari va uslublarini o'zlashtirish;

Materialning muayyan mazmunini ochishda birinchi va ikkinchi moddalarning oqilona tarkibi;

O'z-o'zini tahlil qilish va o'zini baholash jarayonida qayta aloqalarni amalga oshirish.

O'z-o'zini diagnostika qilish tartibi quyidagi tarzda aniqlanishi mumkin:

1. faoliyatini o'rganish;

2. ularning qiyinchiliklarini aniqlash va o'rganish;

3) uning faoliyatini qayta tashkil etish uchun sabablar, ehtiyojlar, imkoniyatlar;

4. mehnat samaradorligini va uni modernizatsiya qilish natijalarini aniqlash qobiliyati;

5. Pedagogik faoliyatning to'g'ri tashkil etilgan yo'nalishlari bo'yicha mumkin bo'lgan ta'sirlarni, yangiliklarning salbiy qismlarini aniqlash.

Shunday qilib, o'z-o'zini tashkillashtirish mashg'uloti o'qituvchining professional va shaxsiy fazilatlarini yaxshilashga, o'quv jarayonining maqbul bosqichiga o'z hissasini qo'shishga, o'quv jarayonini mustaqil ravishda tahlil qilish va moslashishga imkon beradigan o'qituvchi o'z-o'zini diagnostikasi ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan.

Bu holatda o'qituvchi uzluksiz pedagogik o'zini-o'zi yaxshilash va qidirish rejimida o'z-o'zini tashkil etishning yangi darajasiga kiradi.

Yuqorida aytilganidek, pedagogik faoliyat ko'p qirrali. Diagnostika, asosan, ishlab chiqilgan.

Tizimga mavjud usullarni olib kirib, ularni maktabgacha ta'limning o'qituvchilarining mehnat sharoitlariga moslashtirib, turli tomonlardan o'qituvchi *uning professional salohiyati, shaxsiy fazilatlari va pedagogik aloqalari*) - boshning maqsadi.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonini nazorat va tahlil qilish pedagogik jamoa ishiga rahbarlik qilishning asosiy shakllaridan biridir. Nazorat va tahlil qilishning asosiy maqsadi kamchiliklarni topish, ishning holatini tasdiqlash emas, balki o'qituvchilar tomonidan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonining to'g'ri rejalashtirilayotgani, oqilona tashkil etilayotgani orqali ularning o'qitish metodikasini yaxshilash, ishlaridagi xato va kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish hamda ularga kerakli metodik tavsiyalar berishdan iboratdir.

Nazariy dars va amaliy mashg'ulotlarni (kelgusida «o'quv mashg'ulotlari» deb yuritiladi) tahlil etish deyilganda, pedagog faoliyatini o'rganish, uning ijobiy va salbiy tomonlarini chuqur bilishga asoslanib, amaliydidaktik yordam berish tushuniladi.

Pedagogik nazoratning mohiyati shundan iboratki, unda ta'lim muassasasi rahbarlari yoki monitoring va ichki nazorat bo'limi xodimlari (kelgusida «rahbar-nazoratchi» yoki «kuzatuvchi» deb yuritiladi) oldindan rejalashtirilgan maqsad bo'yicha o'quv mashg'ulotlarining sifati va fanlar bo'yicha ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajalarini har tomonlama o'rganadilar.

Ta'lim-tarbiya jarayonini o'rganishda mutaxassis bo'lmagan o'quv muassasa rahbarlari ayrim fanlar bo'yicha ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirishda tajribali mutaxassis o'qituvchilar bilan birgalikda darsni kuzatishlari lozim.

To'g'ri tashkil etilgan nazorat ishi o'qituvchilarning eng yaxshi tajribalarini aniqlashga hamda ularning pedagogik mahoratini ommalashtirishga yordam beradi.

O'quv faoliyatini nazorat qilish doimiy, rejali bo'lishi kerak. Uni shunday tashkil etish kerakki, u o'qituvchilarda o'quv mashg'ulotlari jarayonida ijobiy tashabbus, mas'uliyat, ta'lim oluvchilarga nisbatan ijobiy munosabat hamda o'quv jarayoniga bo'lgan javobgarlik hissini uyg'otsin.

Rahbar-nazoratchi o'quv mashg'ulotlarini tahlil etishda oldindan quyidagi tayyorgarlik bosqichlarini ko'rishi zarur:

1. O'quv mashg'ulotlariga kirishni rejalashtirish.
2. O'quv mashg'ulotlariga kirishning maqsadi va vazifalarini aniqlash.
3. O'quv mashg'ulotlarini nazorat va tahlil qilishga tayyorlanish.
4. O'quv mashg'ulotlariga kirish.
5. O'quv mashg'ulotlari tahlilini reja asosida olib borish.
6. O'quv mashg'ulotlarini tahlil qilish uchun baholash mezonlarini oldindan ishlab chiqish.
7. Nazorat natijalaridan samarali foydalanish. Ta'lim muassasasi rahbarlarining o'quv mashg'ulotlariga kirishlaridan quyidagi maqsadlar nazarda tutiladi:
 - o'quv mashg'ulotlari mazmunining o'quv dasturiga muvofiqligi;
 - o'rganilayotgan materialning ilmiy rejasi va uning g'oyaviy yo'nalganligi;
 - o'quv mashg'ulotlarida didaktikaning asosiy tamoyillariga rioya qilinayotganligi;
 - o'quv mashg'ulotlari turi o'qitishning metodi, vositalari va shakllariga mos ravishda tanlanganligi;
 - o'quv mashg'ulotlarining tarbiyaviy ahamiyati;
 - o'qituvchining shu fandan dars berishi va mazkur darsni olib borishiga tayyorgarligi;
 - o'quv mashg'ulotlarining to'g'ri tashkil qilinganligi va baholanishi.
- o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning nutq madaniyati; – ta'lim oluvchilarning o'quv mashg'ulotlari jarayonida faol bo'lishlari; – mantiqiy va o'rinli misollar o'z vaqtida keltirilishi va boshqalar. Metodik tahlil, bunda o'qituvchi o'quv materialini ta'lim

oluvchilar diqqatiga qanday tarzda etkazishi, dars jarayonida qoʻllagan taʼlim metodlarining maqsadga muvofiqligi va turli-tumanligi, taʼlimning turi va uning oʻziga xos xususiyatlariga qarab tahlil qilinadi.

Oʻqituvchi oʻquv materialini bayon qilishi, tushuntirishi jarayonida qoʻllagan oʻqitish metodlari, foydalanilgan vositalari va shakllarining shu mavzuga mosligi yoki mos emasligi metodik tahlil davomida aniqlanadi.

Oʻqituvchi oʻquv mashgʻulotlari jarayonida qoʻllagan oʻqitish metodlarining samaradorligi rang-barangligi, namunaviyligi, uning oʻtgan yoki yangi mavzu materialiga bogʻlanganligi hamda uning taʼlim oluvchilar tomonidan qanday darajada oʻzlashtirilganligi bilan belgilanadi.

Oʻqitish metodlarini tahlil qilishda dastlab oʻqituvchi oʻquv mashgʻulotlari jarayonida taʼlim oluvchilarga ularni qanday metodika asosida etkaza olish koʻnikma va malakalari oʻrganiladi.

Soʻngra oʻquv mashgʻulotini metodik jihatdan tahlil etishda quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

- dars yoki mashgʻulotlarning texnologik xaritasi ishlab chiqilganligi;
 - oʻquv maqsadi va natijalarining toʻgʻri belgilanganligi;
 - dars bosqichiga mos ravishda taʼlim metodlarining toʻgʻri tanlanganligi va qoʻllanilganligi;
 - metodlarni amalga oshirishda taʼlimning tashkiliy shakllaridan unumli foydalanilganlik darajasi;
 - dars jarayonida texnika vositalaridan samarali foydalanganlik holati;
 - taʼlim metodi, shakli va vositalarining oʻzaro uygʻunlashuviga erishilganligi;
 - taʼlim oluvchilarning oʻquv mashgʻulotiga boʻlgan qiziqishi va ularning faolligi;
 - baholash metodlarining toʻgʻri tanlanganligi;
 - baholash mezonlarining toʻgʻri ishlab chiqilganligi kabilar.
- Didaktik tahlil – oʻqituvchi tomonidan oʻquv mashgʻulotlarini

ta'lim tamoyillariga amal qilgan holda (darsga qo'yiladigan talablar asosida) olib borilishi nazarda tutiladi.

O'quv mashg'ulotini didaktik jihatdan tahlil etishda quyidagi mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- o'quv mashg'ulotlari kirish, asosiy va yakuniy qismlardan iboratligi;
- o'quv mashg'ulotlari jarayonida ta'lim metodlari samarali va majmuaviy holda qo'llanilganligi;
- ta'lim vositalarining to'g'ri tanlanganligi va ulardan o'rinli foydalanilganligi;
- o'quv mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarning faolligiga erishilganlik darajasi;
- o'quv mashg'ulotlariga ajratilgan vaqtdan unumli va samarali foydalanilganligi;
- nazariy bilimlarning amalda qo'llanilganlik darajasi kabilar.

Umumiy pedagogik tahlil, bunda o'quv mashg'uloti mazmunining ilmiy, metodik va didaktik jihatlari majmuaviyligi nazarda tutiladi, ya'ni:

- o'quv xonasining jihozlanganlik darajasi;
- o'quv xonasining sanitar-gigienik holati;
- o'quv mashg'ulotida o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning maqsadga erishilganlik darajasi;
- o'quv mashg'ulotining ilmiylilik jihat;
- o'quv mashg'ulotining ilmiy-metodik jihatdan ta'minlanganligi;
- o'quv mashg'uloti jarayonida didaktik jihatning talabga mosligi va boshqalar. Umumiy psixologik tahlil, bunda o'quv mashg'uloti jarayoni natijasida quyidagi ruhiy holatlar orqali dars samaradorligiga erishish nazarda tutiladi:
- o'qituvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro bir-birlarini tushunishi va qo'llab quvvatlashi;
- ularning o'zaro bir-birlarini idrok etishi, his qilishi, ruhiy holati va kechinmalarini hurmat qilishi;
- o'qituvchi va ta'lim oluvchilar o'quv mashg'uloti jarayonida va o'quv mashg'ulotidan tashqarida o'zaro bir-birlariga bo'lgan munosabatlari, kayfiyatlari va boshqalar.

4.2. Ta'limiy vazifalar, tashkiliy vazifalar, tarbiyalovchi vazifalar

Ta'limning mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni deganda, o'quvchilarni o'qish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarni aniq doirasi tushuniladi.

Ta'limning mazmuni bir qator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

a) ijtimoiy ishlab chiqarishni eng zarur ehtiyojlari, ijtimoiy tuzimni xususiyatlari.

b) davlatning xalq ta'limi va muayyan turdagi o'quv yurt oldiga qo'yadigan maqsad hamda vazifalari;

c) o'qitish qoidalaridan kelib chiqadigan va o'quvchilarning imkoniyatlarini (yosh imkoniyatlar va boshqalar) etiborga oluvchi didaktik talablar.

Ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri — nazorat va hisobga olishdir. Bu tushunchalar o'ziga xos mohiyat va xususiyatlarga ega. O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab borishi lozim. Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa tekshirish deb ataladi. Tekshirish — nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida aks aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashdir. Tekshirishning maqsadi nafaqat o'quvchining bilim darajasi, sifati, balki uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat. O'quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish quyida ko'rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib borilishi kerak: Tekshirish tizimidagi birinchi bo'g'in ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oldindan aniqlash

hisoblanadi. Odatda, u o'quv yili boshida o'quvchilar tomonidan avvalgi o'quv yilida o'zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o'quv yilining o'rtasida yangi bo'lim (kurs)ni o'rganishga kirishilganda ham o'tkazilishi mumkin va o'rinli bo'ladi. Bilimlarni tekshirishning ikkinchi bo'g'ini bir mavzuni o'zlashtirish jarayonidagi joriy tekshirishdir. Joriy tekshirish ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashxislash imkonini beradi. Mazkur tekshirishning asosiy vazifasi o'rgatishdir. Bunday tekshirishning shakl va metodlari turlicha bo'lib, ular o'quv materialimazm uni, murakkabligi, o'quvchilarning yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqichi va maqsadlari, muayyan pedagogik sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Takroriy tekshirish bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning uchinchi bo'g'ini sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo'lishi mumkin. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga o'quvchilar avval o'rganilganlarni takrorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko'maklashadi, biroq o'quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarni o'zlashtirish mustahkamligi darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Ushbu tekshirish tashxisning boshqa turlari va metodlari bilan birga qo'mlanilsagina kutilgan samarani beradi. Ijtimoiy bilimning to'rtinchi bo'g'ini o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yaxlit bog'im yoki kursning alohida mavzusi bo'yicha davriy tekshirish hisoblanadi. Mazkur tekshirishning maqsadi — kursning turli qismlarida o'rganilgan o'quv materialining strukturaviy elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'zlashtirish sifatini tashxislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi — tizimlashtirish va umumlashtirish. Tekshirishni tashkil etishda beshinchi bo'g'in ta'lim oluvchilarning, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini yakuniy tekshirish va hisobga olishdir. O'zlashtirishning yakuniy hisobi har bir chorak va o'quv yili oxirida o'tkaziladi. U olingan baholarni qo'shib, o'rtacha arifmetik ballni matematik tarzda chiqarishdangina iborat bolmasligi

lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqichda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda amaldagi ta'lim olganlik darajasi (sifati)ni tashxislashdir. Tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholashni (jarayon sifatida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi. Baholash deb bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rsatkich, qolip, o'lchagich)lar bilan solishtirishni aytamiz. Baho deb baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchamiga aytiladi. O'zlashtirish tabellari, sinf, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilari va hokazolar baho ko'rinishida qayd etiladi. O'quvchining o'zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinadi. Miqdor ko'rsatkichlari ko'proq ballar yoki foizlarda, sifat ko'rsatkichlari esa a'lo, yaxshi, qoniqarli va hokazo baholovchi fikrlar yordamida qayd etiladi. Har bir baholovchi fikrga oldindan kelishilgan (belgilangan) ball, ko'rsatkich (masalan, o'rin — 1, 2, 3, 4 va hokazo) tayinlanadi. Bunda baho o'lchash va hisoblashlar natijasida olinadigan son emas, balki baholovchi fikrga yuklangan miqdor ekanini unutmash muhim. Baholarni son sifatida qo'llashga berilib ketishning oldini olish uchun bir qator mamlakatlarda baholar harfli (A, V, S, D va hokazo) ifodaga ega. Bahoni amalda egallangan bilim, ko'nikma va malakalar bilan davlat ta'lim standartiga ko'ra o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar umumiy hajmi o'rtasidagi nisbat sifatida tushunish (ta'riflash)dan ta'lim darajasining miqdoriy mazmuni kelib chiqadi. www.ziyouz.com kutubxonasi O'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) ko'rsatkichi $B-AT \cdot 100\%$ nisbat asosida hisoblanadi. Bunda: B — o'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) bahosi; A — amalda o'zlashtirilgan bilim va malakalarning hajmi; T — o'zlashtirish uchun taklif etilgan bilim va malakalarning to'liq hajmi. Ko'rinib turibdiki, o'zlashtirish ko'rsatkichi (baho) bu o'rinda 100% — axborotni to'liq o'zlashtirish va 0% — uning umuman mavjud emasligi o'rtasida bo'ladi. Ma'lumki, baholash

funksiyasi ta'lim darajasini qayd etish bilangina cheklanmaydi. Baho — pedagog ixtiyoridagi o'qishni, ijobiy motivatsiyani rag'batlantirishning va shaxsga ta'sir ko'rsatishning yagona vositasi. Aynan xolis (obyektiv) baholash ta'sirida, o'quvchilarda adekvat o'z-o'zini baholash, shaxsiy muvaffaqiyatlarga tanqidiy munosabat yuzaga keladi. Shu bois bahoning ahamiyati, vazifalarining xilma-xilligi o'quvchilar o'quv faoliyatining barcha jihatlarini aks ettiradigan va ularni aniqlashni ta'minlaydigan ko'rsatkichlarni izlab topishni talab etadi. O'qituvchi o'qitish bilan bir vaqtda O'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga harakat qilishini va uni amalda qo'llash malakalarini egallashini hisobga olib borishi kerak. Hisobga olish — bu o'qitishning muayyan bir davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash. Hisobga olish natijasida o'qituvchi ham, O'quvchi ham o'zlarining keyingi bajaradigan ishlarining shaklini va mazmunini belgilaydi. O'zlashtirishni hisobga olish O'quvchilarning bilish faoliyatini rag'batlantirib, m a'lum bir harakatlarni bajarish uchun uning irodasini tarbiyalaydi. Shuningdek, o'zlashtirishni hisobga olish o'qituvchining faoliyatini ham tashkil etadi. O'qitish metodlari va shakllarining tobora takomillashuvi natijasida baho o'qituvchining pedagogik mahorati ko'rsatkichiga aylanmoqda va o'qituvchining o'z malakasini oshirib borishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. To'g 'ri tashkil etilgan hisobga olish natijasida o'qituvchi O'quvchilarning o'zlashtirishini aniq baholay oladi, ularning o'z bilimlarini takomillashtirishga intilishini yuzaga keltiradi, aqliy va axloqiy rivojlanishiga ta'sir etadi. O'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini hisobga olishda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim: 1) o'quv dasturi asosida mavzu va bo'limni o'iganishda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama nazorat qilish; 2) har bir yakunlangan mavzu bo'yicha o'quvchilarning faoliyati to'g'risida to'liq xulosa chiqarish; 3) o'rtacha arifmetik ma'lumotlarga tayanibgina o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholamaslik; 4) o'quvchilarning mavjud bilimlariga aniq, batafsil ma'lumot

(tavsif berish uchun ularning bir necha o'quv yilidagi statistik o'zlashtirish ma'lumotlarga asoslanib tahlil etish. Demak, o'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi. Nazorat qilish vazifasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o'quv materiallarini o'rganishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi hamda o'qituvchining o'quv metodlarini va usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o'quv materiallarini o'rganishning maqbul yo'llarini topish bilan bog'liqdir. O'qitish vazifasi o'quvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko'rinadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda o'quvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilib olishlariga imkon tug'iladi. Chunki guruhdagi boshqa o'quvchilar javob berayotgan o'quvchining fikrlarini diqqat bilan tinglashadi va avval egallangan bilimlarni mustahkamlab, qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitishadi. O'rtoqlarining javoblariga qo'shimcha qilishga yoki yechilmay qolgan savollarga javob berishga shaylanish orqali o'rganilgan mavzuni aniqlashtirishga harakat qiladi. Nazoratning tarbiyalash vazifasi shundan iboratki, o'quvchilar tekshirishga tayyor bo'lish uchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydilar, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o'rganadilar. Shuningdek, tekshirish va baholash o'quvchining o'z bilimlari va qobiliyatlarini o'zi mustaqil aniqlashiga ham yordam beradi. O'zidagi kamchiliklarni ko'ra olishga va uni tugatish yo'llarini izlashga ko'maklashadi. Lekin o'quvchining bilimini baholashda o'qituvchi nohaqlikka yo'l qo'ysa, o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi. Uy vazifalarining esa haddan ziyod ko'p bo'lishi ham o'quvchilarning yuzaki dars tayyorlashiga olib keladi. Eng asosiysi, o'zlashtirishni hisobga olish, shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirish, yaxshi o'qishga xohish uyg'otish, o'quv kutubxonasi ishlariga vijdonan yondashish, javob berishga tayyorlanishda mustaqil bolish hamda bilish faoliyatini

chuqurlashtirishga qaratilmogda lozim. Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirishga, xis-tuyg'ulari va axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug'iladi. Bu esa o'z-o'zidan nazoratning rivojlantiruvchi vazifasi sanaladi.

Nazorat uchun savollar

- 1. Pedagogik nazoratning asosiy vazifalari nimalardan iborat?**
- 2. Pedagogik nazoratning ta'limiy, tashkiliy tarbiyalovchi vazifalarini ayting.**

**5-MODUL.PEDAGOGIK DIAGNOSTKANI
O'TKAZISHDA TEST METODIDAN
FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI
5-MAVZU. TESTLARNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY
METODLARI HAQIDA TUSHUNCHA
5.1.Test metodi haqida tushuncha**

Test atamasi inglizcha-sinov, tekshirish, tadqiqot ma'nolarini bildirib "Sinalayotgan shaxsning psixofiziologik va shaxsiy xususiyatlarini, shuningdek, intellektual rivoji, qobiliyati va malakasini tekshirishda qo'llaniladigan standart mashqlar" demakdir.

Odatda tekshiruvchi tomonidan amalga oshirilgan barcha nazorat shakl va uslublari ham testga kiradi.

azoratning test uslubi ilmiy asoslarga ko'rilgan bo'lib, u ma'lum talab, qonun-qoidalar zaminida olib boriladi.

Test asosan psixolog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga tavsiya etilgandir. Test pedagogik diagnostika metodlari orasida eng qulay hisoblanib, u har jihatdan sifatli ma'lumot berishi bilan ajralib turadi.

Test sinovi muntazam takomillashib boradi. Unga turli bosqichlarda turlicha ta'rif berib kelingan. Masalan, nemis olimi Linert «Test shaxsning turli holatlarini, shaxsiy xususiyat, imkoniyat va qobiliyatini aniqlovchi ilmiy metoddur» deb ta'riflaydi.

Test usuli chinakamiga pedagogik diagnostika metodi bo'lib, u o'quv jarayonining pirovard natijasini ob'ektiv aniqlab berishga qodir mezondir. U doimo tahlil asosiga ko'rib, aynan shu xususiyatiga ko'ra, pedagogik jarayon natijalarining takomillashib borishiga yordam beradi. Ayni paytda testlar ta'limiy xulosalar bilan birga, texnologik vaziyatni, istiqbolni, harakat yo'nalishini ham belgilab beradi. SHunga ko'ra testlar quyidagilarga bo'linadi:

1. Ta'limiy muvaffaqiyatlarni aniqlaydigan test;
2. SHaxs taraqqiyoti va uning imkoniyatlarini belgilaydigan test;

3. Intellektni aniqlovchi test;
4. Umumiy natijani belgilaydigan test;
5. Muayyan hududda, maktabda u yoki bu fanni o'qitish samaradorligini ko'rsatuvchi test;
6. Professional kasbga moyillik layoqatini, shaxsning funksional imkoniyatlarini aniqlovchi test;
7. SHaxs psixologiyasini ochib beruvchi test;
8. SHaxsning yo'naltirilganligini belgilovchi test;
9. SHaxsning qiziqishi, moyilligini aniqlab, shu sohani takomillashtirishga yordam beruvchi test;
10. Klinik test va h. k.

Yuqorida bayon etilganidek, test ham baholash, ham pedagogik diagnostika hisoblanadi. O'quvchilar bilimni bu usulda baholash 1930 yilda boshlangan. Lekin keyingi paytlarda u keng joriy qilinmoqda. Istiqbolda o'quvchilar bilimni baholashda test, reyting tizimi ustuvor bo'lib qoladi. 5 ballik baholash tizimi o'quvchini har tomonlama baholashga noqulayligi uchun, undan voz kechish fikridamiz. Test imkoniyatlarini bayon etishni davom ettiramiz.

Amaliyotda o'zlashtirishga qaratilgan testlar tobora ko'proq o'rin olib bormoqda.

O'zlashtirishga qaratilgan testlar:

- ◆ muayyan predmetni o'zlashtirishga qaratilgan testlar;
- ◆ o'zbek tilini o'zlashtirishga qaratilgan testlar;
- ◆ chiroyli yozuvni belgilashga yo'naltirilgan testlar;
- ◆ o'qish tezligi va texnikasini baholovchi testlar;
- so'z boyligini aniqlovchi testlar;
- ◆ bolaning rivojlanishini va maktabga tayyorligini aniqlovchi testlar;
- bolaning intellektual faoliyatini aniqlashga qaratilgan testlar;
- ◆ bolaning didaktik ko'nikma va malakasini belgilovchi testlar va h. k.

O'zlashtirish nima va u qanday aspektlarda namoyon bo'ladi?

- 1) O'zlashtirish bu – o'quvchining fanlarni o'qib, o'rganishda erishgan natijalari;
- 2) O'zlashtirish bu o'quvchiga maktab, demakki, davlat va jamiyat tomonidan qo'yilgan talabga erishish;
- 3) O'zlashtirish o'quvchining muayyan davrda qilgan mehnatining yakunidir.

5.2. Pedagogik testlarni ishlab chiqishning umumiy metodikasi

Ma'lumki, ta'lim markazida inson, shaxs turadi va barcha ta'limiy jarayonlar uning qobiliyati, imkoniyati, ehtiyojiga qaratiladi. Pedagogik diagnostika esa, ana shu intilish, mehnat, faoliyat samarasini ham ijobiy, o'am salbiy jihatdan belgilab beradi.

Test asosida o'quvchi o'zlashtirishini aniqlash pedagogik diagnostikaning metodi ekanligini yuqorida bayon etgan edik. Egallagan bilimlarni qiyoslash, solishtirish, samaradorlikni, kamchilik va nuqsonlarni belgilashda uning imkoniyati nihoyat darajada katta. Uni umumiy o'rta ta'lim maktabida qo'llash ta'limni takomillashtirish ishiga katta naf keltiradi.

Oli Kyuforker maktabda amalga oshiriladigan testni 3 ko'rinishga bo'ladi. Ular quyidagilar:

- a) o'zlashtirishni muayyan bir davr ichida aniqlovchi test (masalan, turli sertifikatlar olish uchun topshirilgan test);
- b) o'quv qo'llanmasining ma'lum bir qismi, bo'limi, bobda olingan axborotlarni qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlovchi test;
- v) o'quv dasturi yoki darslikdagi bir qism mashg'ulotlar o'tkazilgandan keyingi o'quvchi o'zlashtirishidagi yutuq va nuqson tamoyillarini aniqlash testi.

Pedagogik diagnostikaning o'lchovi, ishonchlilik koeffitsienti mukammal va ishonchli bo'lmog'i uchun;

- ◆ qayta testdan o'tkazish metodi;
- ◆ ikkiga bo'lgan holda paralleli testni amalga oshirish, shu orqali olingan ma'lumotning ishonchliligini tekshirish mumkin.

Aniqlik, ishonchlilikni tekshirish maqsadida 4 xil usul qo'llaniladi. Ular:

- ◆ mazmun tasdig'i;
- ◆ har xil uslublar bilan olingan natijalarni bir xil ko'rsatkichga olib kelish tasdig'i;
- ◆ tahlillar natijalarining mos kelishi tasdig'i;
- ◆ loyihalashning tasdig'idan iboratdir.

Pedagogik diagnostikada amal qilayotgan test sinovlari hududiy diagnostikani yo'lga qo'yishda ham katta imkoniyat va qulayliklarga ega. Masalan, keyingi yillarda oliy o'quv yurtlariga talabalar qabul qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan test sinovlari natijalariga ko'ra quyidagi aniq va ishonchli tahlillarga osongina ega bo'lish mumkin. Bu test sinovlaridan bizga:

- ◆ qaysi tuman (shahar) maktablarida qaysi o'quv fani qay ahvolda o'qitilayotganligi ma'lum bo'ladi;
- ◆ pirovard natijada Vatanimiz sarhadlarida kim qanday ishlayotgani, kim qanday o'qiyotgani ma'lum bo'ladi;
- ◆ shaxsning o'z kamchilik va xulosalarini belgilab olishga, qaysi yo'nalishda ko'proq ishlash lozimligini aniqlashga yordam beradi.

Pedagogik diagnostikani ta'lim sohasining istalgan sohasini tahlil qilishda ham joriy etish mumkin. Masalan, Xalq ta'limi vazirligi xalq ta'limining hududiy boshqarma va bo'limlari faoliyatini uzoq yillardan beri 15 yo'nalish bo'yicha aniq tahlil etib bormoqda. Tahlil natijalari esa har qanday baxs va munozaralardan holidir.

Maqsad esa bitta - kamchilik va nuqsonlardan to'g'ri amaliy xulosalar chiqarish, faoliyatning asosiy va to'g'ri yo'nalishini belgilab olish va ularni bartaraf qilishda sabot bilan ishlashdan iborat.

Testdan ko'zlangan maqsad oz vaqt ichida o'quvchilarning bilimlarini yoppasiga aniqlash, baholashdir.

Bunda test savollarini qanchalik aniqlik va aql bilan, fikrlash jarayoniga zarar tegmaydigan qilib tuzish ahamiyatli ekanligini nazarda tutish lozim. Test savollarining o'rni va ularni mazmunan

rang-barang qilib tuzilishi, o`quvchilarning mustaqil fikrlarini o`stiradi, kelajakni real baholash imkonini beradi.

Testlar tipologiyasi asosida topshiriqlarni tanlash, ularning strukturaviy o`zaro aloqadorligi va ta`riflari quyidagi omillarga bog`liqdir.

1. Testlarning fanlararo qo`llanish sohasi.

a) oraliq nazorat testlarida mavzular, boblar bo'yicha bilim va o'zlashtirish elementlarini tekshirish;

b) ko'p mavzular bo'yicha fanlarning bir-biriga bog`liqligini hisobga olmagan holda bilim va o'zlashtirishning chegaraviy nazoratini o'rnatish;

v) ko'p fanlar bo'yicha fanlarning bir-biriga bog`liqligini hisobga olgan holda bilim va o'zlashtirishlarning chegaraviy nazoratini hisobga olish;

g) butun kurs bo'yicha bilimlarni nazorat qilish (test asosida fanlararo turkum testlarni ham yaratish mumkin).

Bu hollarning har birida fan topshiriqlarining quyidagi savollari har xil qo'yiladi: marketing-moliya, menejment, soliqlar kabi integrativ bilimlar va H.k.

2. Normativ test tuzilishining umumiy yo`nalish bo'yicha maqsadi yoki kriterial xarakterdagi testlardan farqi shundaki, normativ testlarda yio`ilgan ballar hisob natijalariga ko'ra bir guruhni boshqa guruh bilan, guruh ichidagilarni esa bir-biri bilan solishtirish mumkin.

Kriterial testlarda esa har bir o`quvchining qandaydir o`quv yoki mutaxassislikka oid topshiriqlarini echish uchun zarur bo`ladigan bilim va o'zlashtirish qobiliyatlari ochib beriladi, ya'ni kriterial testlar va unga mos topshiriqlar o`quvchilarning bilim va ko`nikmalari aniq fan sohalari bo'yicha o`qitish maqsadining minimal talablariga qay darajada erishgani yoki erishmaganligi haqidagi savollarga javob beradi.

Normativ testlarda asosan topshiriqni "echdi" yoki "echmadi" deb belgilansa, kriterial testlarda esa topshiriqni qaysidir yo`l bilan echgan o`quvchilarni murakkab ishlarga qo'yish mumkinligi, ularning murakkab dasturlar bo'yicha ishni

davom ettira olishligi hisobga olinishi kerak.

3. Testlarning didaktik-psixologik yoʻnalishi qanday test ishlab chiqilayotganligi yoki adaptatsiyasidan oʻtayotgan testni uning muallifi qanday xarakterlashni aniqlaydi;

a) nazariy bilimlarni nazorat qilish uchun oʻzlashtirish testlari;

b) berilgan fan (oʻquv va mutaxassislik) boʻyicha bilim va malakalarni nazorat qilish testlari;

v) oʻqitish testlari (maʼlum fan yoki uning sikli boʻyicha oʻquv imkoniyatlarining diagnostikasi).

4. Nazorat bosqichlari boʻyicha yoʻnalish;

a) kirish nazorati (oliy oʻquv yurtiga kirishdagi yoki kursni, fan iqlimini va oʻqitish bosqichining boshlanishidagi nazorat);

b) kundalik (joriy) nazorat har kuni amalga oshiriladigan yoki oʻquv jarayoni mavzulari boʻyicha;

v) chegaraviy nazorat oraliq nazorat maʼlum fanning alohida boʻlimi tugashi munosabati bilan oʻtkaziladi;

g) maʼlum kursning tugashi munosabati bilan oʻtkaziladi (yoki fan sikli, oʻqitish bosqichi hamda oʻquv yurtini tugatish munosabati bilan).

5. Testlashtirishning diagnostik darajasi (chuqurligi) berilgan testdan koʻzlangan maqsad:

1. simptomatik diagnostikaga, yaʼni bilim va oʻzlashtirishning “yuqori qatlamlariga” qaratilishi (yaʼni, maʼlum qonuniyat yoki formulalarni bilish, bilmasligi yoki tanish-notanishligi va boshqalar);

2. etiologik diagnostikaga, tekshiruv - aloqa sababi (nima uchun aynan oʻsha bilimlarni bilmasligi va buning qay darajada boshqa bilimlarni bilishga boʻliqligi)ga qaratilishi;

3. tipologik diagnostikada esa oʻquvchining oʻtilayotgan dars va

bilimlarni bilishga, oʻzlashtirish va uddalay olishida qanday oʻoyalarni kuchaytirish kerakligiga qaratilgan boʻladi.

6. Sinaluvchining testni bajarish faolligini oshirishda esa yozma va ooʻzaki testlarga mos ravishda yozma va ooʻzaki javoblarni qoʻllash. Masalan, harakat testlarida (ayniqsa, kompyuterlarda

klavishlarni bosishdan tortib, qism programmalarni chiqarishgacha) hamda hisoblash ishlarini o'tkazish va grafiklarni chizish, loyihalashtirish va h.k.da. Harakat testlari o'qish yoki ishlash qurilmalarida, mashq (trenajerlarda) testlarini, ayniqsa, mutaxassislik bo'yicha o'qitish tizimlariga kiritish mumkin.

7. Testning nomogenlik darajasi (bir jinslik) testni tuzuvchi muallif tomonidan rejalashtirgan bo'ladi. SHu jumladan:

a) ko'zlangan maqsadga qarab testning nimani tekshirish kerakligi, ayniqsa, integrativ xarakterdagi asosiy elementlardan (masalan, ma'lum amallarning talab qilingan darajada yoki shu amallarni bajarishda sifat, miqdor, tezlik, ketma-ketlik, javobgarlik kabi bir qancha) omillarni hisobga olish;

b) formal aspektda esa topshiriqlar tuzilishi shaklining bir jinsliligi (gomogenligi) yoki turli shaklda bo'lishligi.

8. Vaqt omili - testning tezkor bo'lishi, topshiriqlarning funksional ravishda ma'lum belgilangan vaqtda bajarishining zarurligi qaysi yo'l bilan, nimaga asoslanib vaqtini, baholash vaqtining sarflanish chegarasi belgilangan bo'lishligi.

9. Testlashtirishni tashkil etish usullariga esa umumiy, individual yoki juda kam qo'llaniladigan lekin juda samarali hisoblangan alohida usuli ham tekshiriluvchilarning tashxischi bilan yuzma-yuz, xolis (testlashtirishning EHM vositalaridagi individual dasturning zamonaviy varianti) turishi kabilar kiradi.

Test savolnomalarini ishlab chiqish va shakllantirishda quyidagi muammolarga e'tibor qaratilmog'i kerak:

Birinchidan, savolnomalar javoblari "ha" yoki "yuq" deyishga muljallanishi.

Ikkinchidan, savolnomalar "ishonmayman", "bilmayman", "qiyna-laman" kabi suzlarga muljallanmasligi.

Uchinchidan, savolnomada kutilayotgan javob aniq va ravshan bulishi, boshqa tashqi mezonlar bilan ulchanganda uzini qayta tasdiqlash mumkin bulishi kerak.

To'rtinchidan, olingan javoblarda bitta tug'ri javob kuzda tutilib, uning boshqa analogi bulmagani ma'qul.

Beshinchidan, savolnoma tuplamlari darsliklardagi mavzu

mazmunini uz ichiga olib, standart talablari doirasida bulishi kerak.

Oltinchidan, har bir test uz ichiga beshtadan kam bulmagan savollardan iborat bulib, ularda ayrim hollarda 2 ta tug'ri javob bulishi mumkin.

Test tuzish jarayoni, uning ilmiy asoslanganligi, qayta ishlanishi, takomillashtirilishi bir qator bosqichlarda amalga oshiriladi:

1) test utkazishning maqsadini aniqlash, test turini tanlash, uni tuzishga yondashuvni belgilash;

2) urganilayotgan mavzu mazmunini tahlil etish, uning sifat kursatgichlarini aniqlab olish;

3) testning strukturasini aniqlash, topshiriqlarning joylashtirish strategiyasini belgilash;

4) testni kasbga moslab ishlab chiqish, testning savolnoma hajmini va unga sarflanadigan vaqtni aniqlash;

5) testdan oldingi vazifalarni aniqdashtirsh;

6) test va uning topshiriqlarini tanlash, tanlangan strategiya asosida ularning orentirovkasini, qiyinlik darajasini, mualliflik bahosini belgilab chiqish.

7) test oldi topshiriq va testlarning mazmunini ekspertizadan utkazish;

8) test oldi topshiriqlar shakllarining ekspertizasi;

9) ekspertiza xulosalarini, topshiriq va uning mazmunini qayta ishlash;

10) aprobotsiyadan utkaziladigan testlarning metodikasini ishlab chiqish;

11) testlarni aprobotsiyadan utkazuvchi instruksiylar ishlab chiqish;

12) testlarni aprobotsiyadan o'tkazish;

13) empirik natijalarni to'plash;

14) bajarilgan test natijalarini statik tahlildan o'tkazish;

15) test savolnomalarining tahlillari asosida sharhlarni tahlil qilish va bu orqali uning sifatini oshirish;

16) topshiriqlar shaklini, uning mazmunini tahlillar asosida

korreksiyalash, testning oson yoki qiyinlik darajasi hamda berilgan vaqtni qayta ko‘rib chiqib, uni optimallashtirish.

Nazorat savollari

1. Test metodini ta’riflang. Ushbu metodni qo‘llashda nimalarga e’tibor berish kerak?
2. Test metodi boshqa metodlardan nimasi bilan ajralib turadi?
3. Test metodi kimlar tomonidan ishlab chiqilgan hamda tavsiya etilgan?

6-MODUL. SHAXS RIVOJLANISHINING IJTIMOIIY DAGNOSTIKASI

1-MAVZU. SHAXSNING RIVOJLANISHI HAQIDA TUSHUNCHA

6.1.Shaxsning rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi omillar.

Shaxs — alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiyaxloqiy olam. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Sh. ijtimoiygumanitar fanlarda o'z yo'nalishi, tadqiqot ob'yekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi.

U o'ta murakkab, ziddiyatli, qaramaqarshi, o'zini o'zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aqlidrok, tafakkur ob'yekti sifatida, hatto, falsafiy va mantiqiy, yashash huquqi va hayot mantig'i jihatidan tadqiqot manbaiga aylanishi mumkin.

Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha. Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, konkret kishi, ya'ni, muayyan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.

“Individ” nima? Bola ma'lum yoshga qadar “individ” sanaladi. Individ lotincha “individium” so'zidan olingan bo'lib, «bo'linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma'nolarini anglatadi.

Individuallik esa tarbiya jarayonini amalga oshirishda bolaning shaxsiy xususiyatlari va yashash sharoitlarini chuqur bilish hamda hisobga olishdan iborat. Individual yondashuv o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo'lgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Shaxs – muayyan jamiyatning a'zosi bo'lib, u psixologik jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida ham shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuharoning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanishning o'zi nima?

Rivojlanish oddiyda murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ta'minlovchi murakkab harakat jarayoni sanaladi. Rivojlanishining manbai qarama-qarashliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. SHuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlari birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi.

Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. SHunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Shaxs tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar. Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda.

Insonning shaxs sifatida rivojlanishiga ijtimoiy voqealar, tabiiy omillar yoki tarbiya ta'sir etadimi? Bu uch omilning o'zaro munosabati qanday?

Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim – bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir. Progmatisizm oqimi va uning vakillari D.D'yul, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni fahat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar.

Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishi ijtimoiy omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar.

Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. SHu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga yetadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin.

Faylasuflar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan g'oyani ifodalaydi.

Jamiyat taraqqiyoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat o'rtasida ham uzviy aloqa mavjud.

Shunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit, inson o'rtasidagi murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga faol ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayoti va o'z tabiatini o'zgartiradi.

Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi.

Birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga yetadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

SHunday ekan, yoshlarni tarbiyalab rivojlantirish bir-biriga ta'sir etadigan bu tarbiya tamoyilidir.

Bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Shaxs rivojlanishida faoliyatnig o'rni. SHaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi.

Faoliyat o'zi nima? **Faoliyat** inson tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq o'zgartirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-tarixiy turmushning o'ziga xos shaklidir. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi.

Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi,

tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi.

O'smir va o'spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish va mehnat kiradi. Ular yo'nalishiga ko'ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqishga ko'ra tanlangan sohalardan iborat. Faoliyatning asosiy turi – muloqotdir.

Faoliyat faol va passiv bo'lishi mumkin. O'smir faoliyati muhit va tarbiya ta'sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o'z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilish, o'zini shaxs sifatida ko'rsata olishi unda o'z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko'zga tashlanadi.

Ta'lim jarayonida faollik o'quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o'z qobiliyatini namoyon etishga yo'llaydi. Bilishga bo'lgan faollik o'quvchining intellektual rivojlanishini ta'minlaydi.

Faollik ko'rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatining ham turlarini kengaytiradi. SHunga ko'ra, o'quvchining turli yosh davrlarida ularning faoliyati turlicha bo'ladi. Ta'lim muassasasida hamma vaqt bir xil talab shaxs rivojlanishida ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o'zgarib turishi kerak.

Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. CHunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi.

Zero, barcha ma'naviy-axlohiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ymaganligidadir.

SHuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish – uning

shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari. Ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlari yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. SHunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. CHunki bola orginizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi, qobiliyati kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual – o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish metodikasini bilish muhim.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Masalan, 5-sinf o'quvchilari bilan 10-sinf o'quvchisini tenglashtirib bo'lmaydi. SHuning uchun bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Go'daklik davri – chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo'lgan davr.

2. Bog'chagacha bo'lgan yosh davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.
3. Maktabgacha ta'lim yoshi – 3 yoshdan 7 yoshgacha.
4. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar –7-11-12 yoshgacha.
5. O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar (o'smirlar) 14-15 yosh.
6. Katta yoshdagi maktab o'quvchilari (o'spirinlar) – 16-18 yosh.

Zero, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ham ta'kidlab o'tilganidek, uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari ta'limning ijtimoiylashuviga erishish dolzarb masaladir. Ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni shakllantirish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar muhim ijtimoiy talablar hisoblanadi.

Tashxis deganda avvalo, ob'ektning axvolini aniklash va belgilash nazarda tutiladi. Biz tibbiy, psixologik va pedagogik tashxis kabi tushunchalar bilan kuch kelganmiz. Lekin ijtimoiy pedagogikada ijtimoiy pedagogik tashxis jarayoni uziga xos xususiyatlarga ega. Ijtimoiy pedagogik tashxis - bu pedagogik faktorlarning samaradorligini oshirish maqsadida sotsiologik, ekologik va ijtimoiy - psixologik faktorlarning sotsiumga hamda xar bir shaxsga ta'sir ko'rsatishi xakidagi axborotlar majmui kabi bilish jarayonining tashkiliy qismidir. Ijtimoiy pedagogning tashxis ob'ekti - ijtimoiy mikromuhit bilan munosabati tizimida bolaning shaxs sifatida rivojlanishi va ijtimoiylashuvi jarayonidir. Ijtimoiy pedagogik tashxis orqali mikromuxitning ijtimoiy psixologik tavsifi, oila tarbiyasi va pedagogik jarayonlar shaxsining individual - psixologik tavsifi urganiladi.

Ijtimoiy - pedagogik tashxisning umumiy tuzilish. Ijtimoiy pedagogik tashxis quyidagi tuzilishga, ya'ni strukturaga ega:

- bolaning faoliyatidagi nuksonlarni aniqlash konstatatsiyasi;
- bolaning faoliyatidagi ushbu nuqsonlarning sabablarini aniqlashush;
- ushbu bola haqidagi to'plangan materiallar asosida dastlabki farazni ilgari surish;

➤ ushbu farazni sinashga doir qo‘shimcha axborotlar to‘plash, agarda faraz isbotlanmasa, barcha muolajalarni qayata ko‘rib chiqish.

Bola yoki o‘smir shaxsi bilan olib boriladigan bu ishlarni bir so‘z bilan aytganda ijtimoiy pedagogik tekshiruvdan o‘tkazish deb yuritsa ham bo‘ladi.

Demak, ijtimoiy pedagogik tekshiruv ijtimoiy pedagogik tashxisning asosini tashkil etadi.

Maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishi

Malakali kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati shaxsni intellektual va ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo‘lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo‘nalishi bo‘yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi.

Individning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo‘ladi. Ana shular ta’sirida individ inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o‘rishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Mohiyatan rivojlanish oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o‘tish, yangilanish, yangining paydo bo‘lishi, eskining yo‘qolib borishi, miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarshiliklarni o‘rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta’limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyaglari ham muhim ahamiyatga ega. SHuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta’sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Chunki shaxsning

faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga etadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida uziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi. SHaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirshi vazifasini to'g'ri xal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar, shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish hamda hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Maktabgacha yoshdagi bola shaxsi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Fanda, individning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda: insonning shaxs sifatida, rivojlanishida ijtimoiy xodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi, yoki tabiiy omillar etakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qanday?

Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar etakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, degan g'oyani iltari suradi. XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyondalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning rolga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi. Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim - bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyondalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi.

Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir. Pragmatizm oqimi va uning vakillari D.Dyui, A.Kombelar ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazardan asoslaydi. Ular rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydi. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladi. Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydi. Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishi ijtimoiy omil bilan belgilaydi. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'lik deb ko'rsatadi.

Muhit deganda inson yashaydigan sharoitdagi barcha tashki ta'sir tushuniladi. SHu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chikadi. Ular ijtimoiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydi. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, tarakkiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga etishida nael (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi. Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb xisoblaydi. Xakikatdan ham, shaxs mehnat faoliyati ta'sirida rivojlanadi, kamolga etadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy hayot maxsulidir.

Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ruyobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. SHaxsning shakllanishiga ijtimoiy muhit ham ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy muhitning shaxsning shakllanishiga ta'siri tarbiya asosida kechadi. Zero, birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'lik ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham bartaraf etilib, shaxs kamolga

etadi. Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin. To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bunday tarbiya doimiy va uzluksizdir. SHunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham etakch o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir to'rt yondashuv qaror topgan:

1. Biologik yondashuv - inson tabiiy mavjudot bo'lib, uning butun xatti-harakatlari tug'ma instinkt va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat talablariga bo'ysunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi.

2. Ijtimoiy yondashuv - inson biologik mavjudot sifatida tug'iladi, faqat hayotiy faoliyati davomida boshkalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarining ta'siri ostida ijtimoiylashadi

3. Psixologik yondashuv - insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilar) tabiiy tavsifga ega, insonning yo'nalganligi - kizikishlari, qobiliyatlari ijtimoiy hodisa sanaladi.

4. Yaxlit yondashuv - shaxs yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o'ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari - motiv, maqsad, qiziqish kabilar ham uning rivojlanishida muhim rol uynaydi.

6.2.Shaxs rivojlanishining ijtimoiy dagnostikasi

Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari.

Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. SHunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi. Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli

yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. CHunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida xilma-xil bo'ladi. Abu Ali ibn Sino, YAn Amos Komenskiy, K. D. Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tgan. Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. CHunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

M: ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, xovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual, o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish metodikasini bilish muhim. Temperament (lot. "temperamentum" - qismlarning bir-biriga munosabati) shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'linadi:

- go'daklik (1 yoshgacha);
- bolalik yoshi (1-2 yosh);
- ilk yosh guruhi (2-3 yosh);
- kichik yosh (3-4 yosh);
- o'rta yosh (4-5 yosh) ;
- katta yosh (5-6 yosh);
- maktabga tayyorlov davri (6-7 yosh)

Go'daklik davri bolalariing rivojlanishidagi uziga xosliklar. Insonning rivojlanish davri ona qornidan boshlanadi. Bola ona qornida to'qqiz oy mobaynida juda tez rivojlanish jarayonini va murakkab taraqqiyot davrini o'taydi. Bu davrda ham bola ma'lum darajada tashqi muhit ta'sirida bo'ladi. SHuning uchun ham bu ta'sirning ijobiy bo'lishini ta'minlash lozim. Bir yoshgacha

bo'lgan davrda bolaning rivojlanishi asosan oila muhiti ta'sirida bo'lib, u ona suti bilan ozikdanishi lozim.

Bola bu davrda nutqqa ega bo'lmasa ham nutqni tushunish, anglash, harakatlarni idrok etish, oila a'zolarini tanish qobiliyatiga ega bo'ladi. SHuning uchun ham go'daklik davridan boshlab uch yoshgacha bo'lgan davrda bolaning nutqi va tafakkuri jadal rivojlanadi. Bola bir yoshgacha bo'lgan davrda dastlabki so'zlarni ayta boshlaydi. Bu davrda kattalar, asosan, oila a'zolari go'dakni to'g'ri parvarish qilishni yo'lga qo'yishlari lozim.

Oilada bolani tarbiyalashda ota-ona bilan bola o'rtasida qalban yaqinlikka erishish lozim. Ota-onalar hech qachon tarbiyani o'z xoliga tashlab qo'ymasligi, ya'ni bolaning ilk yoshligidan bu jarayonga kirishish talab etiladi. CHunki, bola oilada birinchi hayotiy tajribani o'rganadi, kuzatadi va o'zini turli xil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini o'rganadi. Bola nimaga o'rgatilsa, uni aniq, hayotiy misollar bilan mustaxkamlash zarur, ya'ni bola kattalar aytgan gaplariga amal qilishlari, shaxsan tarbiyaning samaradorligini ta'minlaydi.

Ilk yosh guruh (2-3 yoshli (bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari). Bu davr o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bir yoshdan ikki yoshgacha bo'lgan davr mobaynida bolaning nutqi va o'zgalar tomonidan aytilgan so'zlarni tushunish qobiliyatlari jadal rivojlangan bo'lsa, 2-3 yoshga kelib, o'zgalar nutqiga taqlid qilish jarayoni boshlanadi, bola musiqa, badiiy so'z ta'siriga tez beriladi. SHuning uchun ham unta xuddi shu davrdan boshlab she'rlar aytish hamda raqsga tushishni o'rgatish lozim. Ularda kattalarga jo'r bo'lib qo'shiq aytish, musiqaga muvofiq harakat qilish, ohangni his etish ko'nikmasi shakllanadi.

Bu yoshdagi bolalarni bir joyga jamlaganda ular orasida o'zaro muloqotga kirishish ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Ta'lim- tarbiyaviy ishlar bolalarda shakllana boshlagan xuddi ana shu ko'nikmalarni rivojlantirishga va ularni malakalarga aylantirishga yo'naltirilmog'i lozim.

Kichik gurux; (3-4 yoshli bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola 3 yoshga qadam qo'yganda jismoniy o'sishi

bir qadar sekinlashadi. Ulardagi mustaqillik ortib boradi, xissiyot hamda sensor idroki rivojlanib boradi. Jamoa bo'lib uynash ko'nikmalari shakllanadi. O'yin asosida amalga oshiriladigan mehnat faoliyatini farqlash imkoniyati kengayadi. Tasviriy faoliyat hamda ko'rish-yasash faoliyatining dastlabki ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Uch yoshli bolalarning diqqati kisman markazlashadi, xotirasi mustahkamlanib boradi, moddiy borliqni idrok etish jarayoni boshlanadi, faraz qilish imkoniyatlari vujudga keladi. Bunda o'yin faoliyati etakchi rol uynaydi. Mazkur dastur xuddi mana shu faoliyatni kengaytirishga va rivojlantirishga keng yo'l ochadigan ta'limiy mashg'ulotlar tizimini belgilab berishga yunaltirilgan.

O'rta guruh (4-5 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari. Bola to'rt yoshga ettach, uning jismoniy o'sishi bir muncha jadallashadi. Bu davrda bolaning miyasi tez rivojlanadi. Katta yarim sharlar pustlogining faoliyati takomillashib boradi. Boladagi asosiy harakatlarning rivojlanishida jiddiy-sifat o'zgarishlar sodir bo'ladi, ularni bajarishda tabiiylik ortib boradi, bolalarda qiyoslash ko'nikmasi shakllanadi. Bu yoshdagi bolalarning nutqi ravon, xotirasi ancha teran, mustaqil fikrlash darajasi bir qadar rivojlangan bo'ladi. Barcha harakat va faoliyatlarni uzi mustaqil bajarishga intiladi. Bu yoshda bola nixoyatda serharakat, o'yinqarok, o'ta qiziquvchan bo'ladi. U har qanday tadbirga bajonidil qatnashadi. SHuning uchun ham ularni to'g'ri ovqatlantirish, o'z vaqtida uxlatish, salomatligini muxofaza qilish, ruhiy holatini nazorat qilib borish, quvnoq kayfiyatda bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ular bilan olib boriladigan mashg'ulotlarning mazmunini xuddi mana shunga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Katta guruh (5-6 yosh bolalar) ning rivojlanish xususiyatlari. Bolalarning umurtqa suyaklari qotmaganligi tufayli tez qiyshayib qolishi mumkin. SHuning uchun ham suyaklarning to'g'ri usishini ta'minlashga alohida e'tibor berish kerak. Ularning yuragi chakalok yuragiga nisbatan 4-5 barobar kattalashgan, biroq muskullari xali etarli darajada mustahkamlanmagan bo'ladi. Olti

yoshga etganda miya pustlogining asab katakchalari rivojlanib, og'irligi va tashki ko'rinishidan kattalarnikiga yaqinlashadi.

Shuning uchun ham bolaning asablariga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish talab etiladi. Uning talaffuzi aniq nutqi ravon bo'lishini ta'minlash kerak. Bolaning bu faoliyatida nuqson bo'lgan takdirda uning oldini olish choralari ko'rish lozim.

Bu yoshdagi bolalarning so'z boyligining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim. Ularning nutqidagi so'zlar bolaning fikr ifodalash ehtiyojlarini to'la qondirishi kerak. Bu davrda bolalarning matematik tafakkuri, hisoblash ko'nikmalarini rivojlanishi lozim. Dastlabki iqtisodiy tushunchalarga ehtiyoj seziladi. Bolaning faraz qilish qobiliyatini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor karatish maqsadga muvofiqdir.

Maktabga tayyorlov guruhi (6-7 yosh bolalar) ning rivojlanish xususiyatlari. Bola hayotining ettinchi yilida undagi harakatlar ko'lami kengayadi va aniqlashadi, uning jismida harakatlarning o'zaro moslashuvi boshlanadi. 6-7 yoshli bolalar uzini idora qilish va o'z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'la boshlaydi. Bu yoshdagi o'g'il bolalarda mustaqil faoliyat ko'rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi hamda kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakllanadi. Bu yoshda bola chiniqadi. qiziquvchan bo'ladi, o'z salomatligini nazorat qila oladi, Uning idrok kuchi va tafakkuri jadal rivojlanadi, moddiy borliqni bilishga intila boshlaydi. Bolalarda gigienik malakalar shakllana boradi.

Bolani maktabga tayyorlash jarayonida ularda faoliyatning yangi turi bo'lgan ta'lim olishga o'qishga ishtiyoq uyg'otish lozim. Bu o'rinda bolalarni ruhan ta'lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida dastlabki o'quv elementlarini o'rgatish lozim.

Har qanday olti yoshli bola maktabga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun u jismonan, ruhan hamda aqliy jihatdan ta'lim olishga tayyor bo'lishi kerak.

Bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashda tashxis markazlarining xulosalariga tayanish lozim. SHu bilan bir

qatorda maktabning moddiy-texnik bazasi olti yoshli bolalarga ta'lim berish imkoniyatiga ega bo'lishi shart.

Tarbiyachining pedagogik-psixologik bilim darajasi, axloq-odobi va shaxsiy sifatlari olti yoshli bolalarga ta'lim va tarbiya berish uchun loyiq bo'lganda, u olti yoshli bolalarni o'qitish huquqiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham 6-7 yoshli bolalar, ularni qabul qiladigan maktablar hamda bu bolalarni o'qitadigan tarbiyachilar pedagogik- psixologik nuqtai nazardan alohida-alohida diagnostika qilinishi va shundan keyingina ta'lim jarayoniga kiritilishi kerak.

Demak, maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishi o'ziga xos, murakkab jarayon sanaladi. Maktabgacha ta'lim yoshi bolalarining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi.

Bu yoshdagi bolalarning tulaqonli rivojlanishida biologik (irsiyat), ijtimoiy (ijtimoiy muhit) va tarbiya kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, maktabgacha ta'lim yoshining o'zi ham ettita o'ziga xos, alohida davrlarga ajratiladi. Shu sababli maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning o'qitish va tarbiyalash ishiga mas'ul bo'lgan shaxslar - tarbiyachi va ota-onalar, vasiylar bolalarning yosh davri xususiyatlaridan to'la xabardor bo'lishlari zarur.

Nazorat uchun savollar

- 1. Shaxsning rivojlanishi haqida tushuncha bering/**
- 2. Shaxs rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?**
- 3. Shaxs rivojlanishining ijtimoiy dagnostikasi qanday amakga oshiriladi?**

7-MODUL.MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANGANLIK DARAJASINI ANIQLASH

1-MAVZU. SHAXSNING JISMONIY RIVOJLANISHI HAQIDA TUSHUNCHA

7.1.Shaxsning jismoniy rivojlanishi mazmuni

Jismoniy tarbiya shaxsni har tomonlama tarbiyalash ishining muhim komponenti hisoblanadi, ayni paytda u aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi vazifalarini kompleks tarzda hal etadi.

Bolalar jismoniy tarbiyasini tashkil etishning turli shakllarida (mashg'ulotlar, harakatli o'yinlar, mustaqil harakat faoliyati va h.k.) tarbiyachining e'tibori fikrlaydigan, o'z yosh imkoniyatlariga ko'ra ongli harakat qiladigan, harakat ko'nikmalarini muvaffaqiyat bilan egallaydigan, atrof-muhitda mo'ljal ola biladigan, uchraydigan qiyinchiliklarni faol tarzda bartaraf etadigan, ijodiy izlanishga intiladigan bolani tarbiyalashga qaratiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalarida, oilada jismoniy tarbiyalashning asosiy vazifalari ularni sog'lom va baquvvat qilib o'stirish, ular organizmini chiniqtirish, ta'lim va tarbiyani to'g'ri tashkil etishdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lomlashtirish vazifalari - bu jismoniy tarbiyaning eng asosiy vazifasi bo'lib, bola hayotini muhofaza qilish, uning sog'lig'ini mustahkamlash, organizmini chiniqtirish yo'li bilan o'zini himoya qilish va turli kasalliklarga chidamlilik xislatlarini oshirishdan iborat.

Bola organizmining rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgani sababli, uning vazifalari ancha aniqroq shaklda ifodalanadi; bola suyagini bexato va o'z vaqtida qotishiga orqa umurtqadagi egik joylarning shakll anishiga, tovon yuzasining yaxshi rivojlanishiga, pay-bo'g'im apparatlarni pishitishga yordam ko'rsatiladi.

Ta'limiy vazifalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash jarayonida ta'limiy vazifalarni hal etish ham

muhimdir. Chunonchi: harakat ko'nikma va malakalarini shakllantirish, jismoniy sifatlar (chaqqonlik, tezkorlik, egiluvchanlik, muvozanat, ko'z bilan chamalash, kuchlilik, chidamlilik)ni o'stirish, to'g'ri qaddi-qomat, gigiyena ko'nikmalarini tarbiyalash, jismoniy tarbiya haqidagi bilimlarni o'zlashtirish. Bolalar asab tizimining plastikligi tufayli ularda harakat ko'nikmalari nisbatan yengil shakllanadi.

Ularning ko'pchiligidan (emaklash, yurish, chang'ida yurish, velosipedda sayr qilish va boshqalar) kundalik hayotda harakat vositasi sifatida foydalaniladi. Harakat ko'nikmalari tashqi muhit bilan aloqani osonlashtiradi va uni bilishga yordam beradi: bola emaklab o'zini qiziqtirgan narsalarga yaqinlashadi va ular bilan tanishadi; velosipedda sayr qila oladigan bolalar qor, shamollarni oson idrok etadilar; suzish chog'ida esa bolalar suvning xossalari bilan tanishadilar. Jismoniy tarbiya mashqlarini to'g'ri bajarish muskullar, paylar, bo'g'imlar, suyak tizimini rivojlantirishga samarali ta'sir qiladi.

Mustahkam shakllangan harakat ko'nikmalaridan foydalanish bolaga mashqlarni bajarishda jismoniy kuchni tejash va o'yin faoliyatida e'tiborni kutilmagan vaziyatlarda yuzaga keladigan turli vazifalarni olishga yo'naltirish imkonini beradi. Bolalarda 7 yoshgacha shakllangan harakat ko'nikmalari maktabda ularni yanada takomillashtirish uchun zamin bo'lib xizmat qiladi va kelajakda sportda yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Bolalarda harakat ko'nikmalarining shakllanishi jarayonida birmuncha murakkabroq harakatlar va bu harakatlarni o'z ichiga oluvchi turli faoliyat turlarini osongina egallash qobiliyati hosil qilinadi. Yosh guruhlariga oid harakat ko'nikmalarining hajmi dasturda berilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda saflanish, umum-rivojlantiruvchi mashqlar, asosiy harakatlar, sport mashqlarini bajarish ko'nikmalarini shakllantirish lozim. Bundan tashqari, bolalarni sport o'yinlariga (Badminton, stol tennisi) va sport o'yinlari elementlari (basketbol, xokkey, futbol, voleybol)ni bajarishga o'rgatish zarur. Harakat ko'nikmalari hajmi

maktabgacha ta'lim muassasalarida sharoitning mavjudligi, bolalarning jismoniy tayyorgarligi, tarbiyachilarning malakasi, ota-onalar yordamiga qarab kengaytirilishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni, o'tirgan, turgan holatda va yurganda qaddi-qomatni to'g'ri tutish ko'nikmalariga o'rgatish muhim. Bu yoshda shaxsiy va ijtimoiy gigiyenaning boshlang'ich ko'nikmalari (qo'l yuvish, kiyim-kechak, poyabzalni yaxshi tutish, o'yinchoqlar, jismoniy inventarlari, xona va hokazolarni toza tutish) ko'nikmalarini singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga mashg'ulotlarning foydasi haqidagi, jismoniy mashqlarning ahamiyati va texnikasi, ularni o'tkazish metodikasi haqidagi, harakatli o'yinlar va hokazolar haqidagi jismoniy tarbiyaga oid bilimlarni berish muhimdir. Bolalar gavda qismlarning nomini, harakat yo'nalishi (yuqoriga, pastga, oldinga, orqaga, o'ngga, chapga, to'la aylanish va boshqalar), jismoniy inventarlarning nomini, ularni saqlash, kiyim, poyabzallardan to'g'ri foydalanish va ularga qarash qoidasini bilishlari lozim.

Olingan bilimlar bolalarga jismoniy mashqlar bilan juda ongli va to'laqonli shug'ullanish, maktabgacha ta'lim muassasa va oiladagi jismoniy tarbiya vositalaridan mustaqil foydalanish imkonini beradi. Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish jarayonida tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot, hayvonlar, qushlar, hasharotlar haqidagi bilimlarni mustahkamlash zarur.

Tarbiyaviy vazifalar. Jismoniy tarbiya jarayonida bolalarda rejimga rioya qilish, jismoniy tarbiya mashqlari bilan har kuni shug'ullanish ehtiyojini hosil qilish bu mashqlar bilan maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada mustaqil shug'ullanish malakalarini rivojlantirish, ularni o'z tengdoshlari va kichik yoshdagi bolalar bilan o'tkazish. Bolalarda sport mashg'ulotlariga muhabbat, ularning natijalariga, sportchilarning yutuqlariga qiziqishini tarbiyalash lozim. Jismoniy tarbiya jarayonida axloqiy, aqliy, estetik va mehnat tarbiyasini amalga oshirishning katta imkoniyatlari mavjud.

Mashqlarni bajarish jarayonida bolalarda xarakterning ijobiy xususiyatlari (uyushganlik, intizomlilik, kamtarlik, ko'ngilchanlik va hokazo) va axloqiy fazilatlari – halollik, haqqoniylik, o'rtoqlik hissi, o'zaro yordam, jamoada shug'ullanish malakasi, jismoniy inventarni ehtiyot qilish, topshiriqni mas'uliyat bilan — botirlik, qat'iylik, o'z kuchiga ishonch, qiyinchiliklarni yengishda sabotlilik, chidamlilik va boshqalarni namoyon qilish uchun juda qulay sharoit yaratiladi. To'g'ri tashkil etilgan jismoniy tarbiya bolalarning aqliy o'sishi shiga yordam beradi, chunki asab tizimi va boshqa organ hamda tizimlarning normal faoliyati uchun qulay sharoit yaratiladi, bu esa yaxshiroq idrok etish va eslab qolishga yordam beradi.

Bolalarda barcha ruhiy jarayonlar (idrok, tafakkur, xotira, xayol va boshqalar), shuningdek, tafakkur jarayonlari (kuzatish, taqqoslash, analiz, sintez, umumlashtirish va boshqalar) rivojlanadi.

Bolalarda harakat faoliyati sohasida olingan bilim va ko'nikmalardan faollik, mustaqillik, fahmlilik, ziyraklik va topqirlik ko'rsatgan holda ijodiy foydalana olish malakasini tarbiyalash zarur. Bolalarda ijobiy emotsiyalar, tetik, xushchaqchaq kayfiyatni tarbiyalash, shuningdek, salbiy ruhiy holatni tezda yengib o'tish malakasini rivojlantirish juda muhimdir. Bu shuning uchun ham zarurki, ijobiy emotsiyalar barcha organlar va organizm tizimlari ishiga yaxshi ta'sir qiladi, harakat ko'nikmalarining tez va barqaror shakllanishini ta'minlaydi.

Jismoniy tarbiya estetik tarbiyani amalga oshirish uchun qulaylik yaratadi. Mashqlarni bajarish jarayonida estetik zavqni his qilish va idrok etish, go'zallikni, harakatlarning ifodaliligini, qomatning nafisligini, kiyim-bosh, sport inventarlari, tevarakatrofning go'zalligini tushunish va to'g'ri baholay olish qobiliyatini rivojlantirish; estetik jihatdan ma'qul xulqqa intilishni, faoliyat, so'z va xatti-harakatda qo'polikka murosasiz bo'lishni tarbiyalash lozim.

Mehnat tarbiyasi ham jismoniy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Bolalar sog'lig'i mustahkamlanadi, harakat ko'

nikmalari shakllanadi, mehnat qilish uchun zarur bo'lgan jismoniy fazilatlar rivojlanadi.

Bolalar binoni, maydonchani jihozlash (sakrash uchun qum to'ldirilgan o'ralar, qor uyumlari), jismoniy tarbiya inventarini yasash va ta'mirlash (uloqtirish uchun qopchalar tikish, ni t honlarni bo'yash va hokazo), sport kiyimlari, poyabzalini saqlash, ularga qarash, bino va uchastkani mashg'ulotga tayyorlash (uchastkani qordan tozalash, to'kilgan barglarni yig'ib olish, maydonchaga suv quyish va hokazo) jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida jismoniy inventarlar, atributlar, o'yinchoqlarni yig'ib olish va joy-joyiga qo'yish bilan bog'liq mehnat ko'nikmalarini egallaydilar. Bundan tashqari bolalar jismoniy inventarlarni saqlashga oid mehnat ko'nikmalarini hosil qiladilar: gimnastika devori, skameykasi, doska, to'p, tayoqlar, chambarak va boshqalardagi changni artadilar; foydalangan velosipedni changdan tozalab, o'z o'rniga qo'yadilar. Bolalarda o'z-o'ziga xizmat qilish (kiyim- boshni, poyabzalni o'zi kiyish va yechish), shuningdek, chiniqish va hokazo mashg'ulotlarini o'tkazishda tarbiyachiga yordam lashishga intilish ko'nikmalari shakllanadi.

Mashg'ulotlar vaqtida bolalarda kattalar va tengdoshlari mehnatiga hurmat hissini tarbiyalash zarur. Bolalarda maktabgacha yoshdanoq ularning mehnatga tayyorlanishlarida jismoniy tarbiyaning rolini tushunishini shakllantirish muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash jarayoni sog'lomlashtirish, ta'limiy va tarbiyaviy vazifalari kompleks ravishda hal etish tarzida qurilishi zarur.

7.2.Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning umumiy jismoniy rivojlanganishining o'ziga xos xususiyatlari

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalashning mazmuni va vositalari Jism oiy tarbiya m azm uni ijtim oiy-tarixiy tajribaning shunday qismiki, u odam salom atligini saqlashni va m ustahkam lashni, harakat m adaniyatini ta 'minlovchi bilimlar, m alakalar, ko'nikmalarni o 'z ichiga oladi. Shuningdek, sanitariya-gigiyena m adaniyati va norm alari, qoidalarini (tana, ovqat

yeyish, turarjoy va h.k.) bilishni va ularni bajara olishni o'z ichiga oladi.

Harakat m adaniyati turli harakatlarning ishlab chiqilgan normativlarini egallashni va shu asosda chaqqonlik, tezlik, chidamlilik kabi sifatlarni rivojlantirishni nazarda tutadi. M aktabgacha tarbiya pedagogikasida bola egallashi lozim bo'lgan m adaniy-gigiyenik k o'nikm alarning quyidagi guruhlar ajratiladi: a) ovqat yeyish ko'nikm alari (ovqatni tartib bilan olish, yaxshilab chaynash, qoshiqdan, sanchiqdan, salfetkadan foydalanish va h.k.); b) o'z tanasini parvarish qilish k o'nikm alari (yuvinish, soch tarash va h.k.); d) xonada tartibga rioya etish, kiyim lardan foydalanish va unga qarash ko'nikmalari (tez kiyinish va yechinish, kiyim larni tartibli, ozoda saqlash va h.k.).

Bolalar harakat ko'nikm alari va m alakalarini egallaydigan jism oniy m ashqlar ham belgilangan: a) asosiy harakatlar (yurish, yugurish, sakrash, tirm ashish chiqish, uloqtirish, m uvozanatni saqlash m ashqlari); um um iy rivojlantiruvchi m ashqlar, safga turish va qayta safga turish; b) sport m ashqlari (suzish, ch an g 'ida yurish, konki uchish va h.k.).

Harakatli o'yinlar (m azm unli, m azm unsiz, sportning tarkibiy qismlari b o'lgan o'yinlar va boshq.), yozgi va qishki davrda uchastkadan tashqariga qilinadigan uzoq sayrlar k o'zda tutilgan.

Jismoniy tarbiyaning mazmunini belgilab beruvchi asosiy hujjat «U chinch m ing yillikning bolasi» tayanch dasturidir. U bolalam i izchil harakat m alakalari va ko'nikm alariga o'rgatish im - konini beradi, harakatlarning muvofiqliligini rivojlantiradi, jism oniy sifatlari (chaqqonlik, tezlik, chidamlilikni tarbiyalaydi. Jism oniy tarbiya tizim idagi ishlar xilm a-xil yo'llar yordam ida am alga oshiriladi, m asalan, gigiyenik om illar (to'g'ri rejim, m aqsadga muvofiq ovqatlanish, gigiyenik vaziyat, m adaniy-gigiyenik k o'nikm alarni shakllantirish, m ustahkam lash uchun) jism oniy m ashqlar shular jum lasidandir. Rejim (tartib). Bolalar hayotining tartibi, bu — bedor yurish, uxlash, ovqatlanish, faoliyat xilm a-xil turlarining har kuni m uayyan izchillikda takrorlanib, oqilona alm ashinib turishidir. Tartib uchun qulay

sharoit ta'minlash kerak, shuning uchun u bolaning yoshi, uning salomatligi, kattalar munosabatining xususiyatlari.

Bola tarbiyalanayotgan oila turmushi va munosabatlarga bog'liq tarzda o'zgaradi. Muayyan vaqt ichida rejimning asosiy tarkibiy qismlari bir muddatda va doimiy bo'lishi uning ajralmas xususiyatlaridir.

Tartibning bir muddatligi tabiat hodisalarining muddati, organizm faoliyatining maromiga asoslanadi. Bu bedor yurish va uxlashning, tana haroratining o'zgarishi, nafas olish, yurak urishining qisqarish muddatida, ovqat hazm qilish traktining ishi muddatida namoyon bo'ladi va hokazo.

Oqilona tartib bedor yurish va uxlashning eng muvofiq nisbati asosida quriladi, bu vaqtda bosh miya qobig'i uchastkalari o'rtasidagi vazifalar qayta taqsimlanadi, olingan axborot qayta ishlanadi, aqil va jism oniy ishlarning nisbati, ovqat hazm qilish muddatini hisobga olish asosida quriladi. Tartibdan chetga chiqish darhol bolaning kayfiyatida, shu bilan birga uning xulq-atvorida namoyon bo'ladi. Tartibni tuzishda quyidagilarni hisobga olish zarur:

1. Oliy asab faoliyatining yosh xususiyatlarini.
2. Ovqat hazm qilish sistemasi ishidagi yosh xususiyatlarini.
3. Alohida xususiyatlar: asabiy bolalar va asab tizimi zaif bo'lgan bolalar ko'proq uxlashlari kerak.
4. Yil fasli, iqlim sharoitlarini bolalar uyqusini tashkil etishda hisobga olish lozim.

Ovqatlanish. To'g'ri tashkil etilgan ovqatlanish bolalarni to'laqonli jism oniy tarbiyalashning muhim jihati hisoblanadi. Ovqatlanish o'sib borayotgan organizm uchun g'oyat muhimdir, chunki u barcha to'qimalar, alomatlarning normalligi va rivojlanishini ta'minlaydi. Chiniqtirish deganda organizmning atrof-muhitdagi turli tabiiy ta'sirlar (harorat, namlik, quyosh nuri darajasining o'zgarishi)ga eng ko'p chidamliligi, munosabatlarni tarbiyalash tushuniladi. Bolada faqat harorat, iqlim o'zgarishlariga tez ta'sir bildirishgina tarkib topmagan shu bilan birga gemoglobin muddati iqdori oshadi, ularning imkoniyatini tizimiy yaxshilanadi. Bolalar turli

kasalliklarga kam roq chalinadilar va ularning organizm lari kasalliklarni tezda yengadi.

Chiniqtirishni tashkil etishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. Chiniqtirishni bu tu n yil davom ida m avsum iy holatlarn i hisobga olib, m untazam o'tkazish kerak.

2. Ta'sir etuvchi vositalarning kuchini asta-sek in kuchaytirish zarur.

3. Bolaning salom atligini, yosh xususiyatini, hissiy holatini, uy va m aktagacha ta 'lim m uassasasining sharoitini hisobga olish zarur.

Kundalik hayotda chiniqtirish tadbirlarini jism oniy m ashqlar, bolaning xilm a-xil faoliyati bilan bog'liq holda olib borish chiniqtirish uchun ham , organizm ni m ustahkam lash uchun ham yaxshi natija beradi. Madaniy-gigiyenik ko'nikm alar va odatlarni tarbiyalash.

Madaniy-gigiyenik ko'nikmalarga tanani ozoda tutish, to'g'ri ovqatlanish, tartibga rioya qilish va bolalarning bir-birlari bilan, kattalar bilan, o'zaro madaniy m unosabatlariga doir ko'nikm alar kiradi.

Madaniy-gigiyenik ko'nikm alarni shakllantirishda quyidagi shartlarga e'tib o r qaratish zarur:

1. Maktabgacha ta'lim muassasasi va oilada harakatlar ham da topshiriqlarni bajarish uchun qulay vaziyatni (qulay mebel, jihozlar) yaratish.

2. O'zlashtirilayotgan m adaniy-gigiyenik ko'nikm alarni qat'iy belgilangan tartibda bir vaqtda bajarishga o'rgatish.

3. Har bir bola bilan yakka tartibda ish olib borish.

4. Bolalam i madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini nazorat qilib borish.

5. Bolalami kattalam ing gigiyena va axloqqa oid barcha talablarini so'zsiz bajarishga o'rgatish. Jismoniy m ashqlar va massajdan foydalanish.

Jismoniy mashqlar — jismoniy tarbiya vazifalarini hal etishga qaratilgan maxsus harakatlar, shuningdek harakat faoliyatining m

urakkab turlaridir. Jism oniy m ashqlar organizm ga ko'p qirrali fiziologik ta'sir ko'rsatadi.

U modda alm ashinuvini, qon aylanish jarayonlarini faollashtiradi, suyaklarning o'sishiga yordam beradi. Kichik bolalarni tarbiyalashda passiv gimnastika turlaridan biri — massaj (uqalash) qo'llaniladi.

Uqalash ta'sirida qon aylanishi, shuningdek teri va muskullarning oziqlanishi yaxshilanadi, issiqlik chiqishi ko'payadi, muskullarning charchashi yo'qoladi. 6.3. Ilk yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash Bolalarni jismoniy tarbiyalashning yosh tavsifi va vazifalari.

Ilk yoshdan bola organizmida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Skeletning to'g'ay to'lqim asida suyak to'lqimasi paydo bo'la boshlaydi, muskul va paylar zaif bo'ladi, lekin ularning qisqarish xususiyatlari yaxshilanadi.

Bolaning vazni ortib boradi, uning asab tizimi rivojlanadi, miyaning tez o'sishi va analizatorlarning rivojlanishi kuzatiladi. Kip tartibi. Ilk yoshdagi tartib bolaning to'g'ri rivojlanishi va tarbiyalanishining asosidir. Ilk yoshdagi bolalar uchun uxlash va bedor yurish qonuniyatlariga bog'liq ravishda tabaqalashtirilgan tartiblar ishlab chiqilgan.

1. Ilk yoshdagi bolalarning birinchi guruhida uchta kichik yosh guruhi uchun tabaqalashtirilgan tartib tashkil etiladi: 2,5— 3 oydan 5—6 oygacha; 5—6 oydan 9— 10 oygacha; 9— 10 oydan 1 yoshgacha.

2. 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan bolalar guruhida 2 ta tartib mavjud. 1,5 yoshgacha bo'lgan bolalar 2 marta uxlaydilar 1,5 yoshdan keyin esa bolalar bir marta uxlashga o'tkaziladi.

3. 3 yoshga qadam qo'ygan bolalar 1 ta tartibga o'tadilar. Ovqatlantirish. Ilk yoshdagi bolalar har 3—3,5 soatda gigiyenik sharoitda, belgilangan vaqtda ovqatlantiriladi. 2 yoshga qadam qo'ygan bolalarni ovqatlantirishda ular kichik gum hlargab olinadi. 3 yoshli bolalar esa ovqatlarni mustaqil va tartibli yeyishga o'rgatib boriladi.

Madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni tarbiyalash. Ilk yoshdagi bolalarda kiyinishga, yuvinishga, ovqatlanishga ijobiy munosabatlarni tarbiyalash o'ziga o'zi xizmat qilish ko'nikmalarini, mustaqil harakatlarni shakllantirishga tayyorgarlik berib olib xizmat qiladi. 1,5—2 yoshli bola deyarli ham mustaqil kiyimlarini o'zi yecha oladi, taxlab qo'yadi va kiyimlarining ayrimlarini kiyadi oladi.

Bu yoshdagi bolalar o'zlari yuvinadilar va artinadilar. 2—3 yoshli bolalar mustaqil ovqat yeyishga, kiyimlarini kiyib-yechishga o'rganadilar. Jismoniy mashqlar va uqalash. Bola hayotining dastlabki yilida uqalash va gimnastika har kuni yakka tartibda o'tkaziladi. 2 yoshga qadam qo'ygan bolalar bilan mashg'ulotlar otkazayotganda yurish, sakrash, buyumni uloqtirish o'rgatiladi, mustavozlanishni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi.

3 yoshdan 7 yoshgacha bolgan bolalarni jismoniy tarbiyalash metodikasi Bolalarni jismoniy tarbiyalashning yosh tavsifi va vazifalari. Bu yosh davrida bola organizmida katta o'zgarishlar sodir bo'ladi.

7 yoshga borib bolaning bo'yi o'rtacha 120 sm gacha o'sadi. Organ va tizimlarda morfologik va funksional o'zgarishlar bo'ladi. U mustaqil egiluvchanligi ortadi, mustakullarning kuch darajasi kuchayadi, o'pkaning hajmi o'sadi.

Nafas olish chuqurroq va uzoqroq bo'ladi. Ovqat hazm qilish apparati barqaror ishlaydi. Bolalarning shu davrdagi jismoniy va ruhiy rivojlanishi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi o'ziga xos vazifalar o'rta qo'yiladi: 1) to'laqonli uyg'un jismoniy rivojlanishi, yurak-qon-tomir va nafas olish tizimini mustashq qilish, qadddi-qomat va oyoqni shakllantirish; 2) organizmni chiniqtirish; 3) barcha asosiy harakatlarni, sport mashqlarini bajarish ko'nikmalarini tarbiyalash; 4) jismoniy qobiliyatlar, sifatlarini rivojlantirish; 5) ozodalik, tartiblilik odatlarini tarbiyalash.

Turli vositalardan kompleks foydalanganda bu vazifalarning barchasi muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Kip tartibi. 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarning uyquasi 12—13 soat (shundan

1,5—2 soati kunduzgi), 5 yoshdan 7 yosh- gacha bo'lgan bolalarda 11 — 12 soat davom etadi.

O'yinlar uchun salkam 4 soat, harakat faoliyati uchun (turli shakllarda) qariyb 5 soat, kunduzgi uyquga 1 soat-u 5 m inutgacha ajratish zarur. Bolalarning aktiv faoliyati — o'yin, o'quv, m ehnat va turm ush faoliyati kun mobaynida bir necha bor o'zgaradi. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar 8 m inutga yaqin aqliy faoliyat bilan faol shug'ullanishlari m um kin, katta m aktabgacha yoshdagi bolalar esa ana shunday faoliyat bilan 12— 14 m inut shug'ullana oladilar. Shundan keyin ularning diqqati susayadi.

Agar mashg'ulotlar orasida va mashg'ulotning o'zida harakatli m ashqlar jismoniy tarbiya daqiqalari, jism oniy tarbiya tanaffuslaridan foydalanilsa, bolalarning im koniyatlari birm uncha ko'payadi.

Bolalar bog'chasi kun tartibida xilma-xil o'yinlarga alohida o'rin beriladi. Vaqtdan to'laqonli foydalanish uchun tarbiyachi o'yinchoqlar va q o llan m alarn i oldindan tanlab qo'yishi, bolalarda bajarish k o'nikm alarini tarbiyalashi zarur. Sayr qilish har tom onlam a tarbiyaviy ishlar uchun keng imkoniyatlar beradi. Sayr ch o g id a, tabiat va ijtimoiy hodisalar kuzatiladi, bolalarning m ehnat va o'yin faoliyati, sport m ashqlari uyushtiriladi.

Ovqatlanish. Maktabgacha ta 'lim m uassasalarida ovqatlanishni tashkil etish bolalarda taom ni yeyishga ijobiy m unosabatni yaratishga qaratilgan b o iish i kerak. Muayyan vaqtda, 3,5—4 soat oralig'ida bolalarga mazali tayyorlangan, chiroyli bezatilgan taom lar beriladi.

Ovqatlanish uchun zarur b o'lgan ham m a narsa oldindan tayyorlab q o'yiladi, chunki kutish ishtahani pasaytiradi, asab tizim ini q o lzg'atadi. Stolni enaganing o'zi bezaydi, o'rta guruhdan boshlab esa bu ishda navbatchi bolalar faol ishtirok etadilar. N avbatchilikning tartibi va harakatlarning xususiyatlari tarbiyachi tom onidan puxta o'ylanadi va bolalarga aniq ketm a- ketlikda tushuntiriladi. Norm al ovqatlanish jarayoni uchun osoyishta vaziyat katta ahamiyatga ega.

7.3.Bolalarni jismoniy rivojlanishi bo'yicha dagnostik karta tuzish.

Madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni tarbiyalash. Maktabgacha yosh davomida madaniy-gigiyenik ko'nikm alam i shakllantirish yuzasidan katta ishlar olib boriladi. H arakatlar muvofiqligini rivojlantirishda, fikrlashda ro'y bergan katta siljishlar bolalarning o'ziga-o'zi xizmat qilishi, navbatchilik, jam oadagi m uloqot davrida zarur b o lg an xilm a-xil harakatlarni uddalashi uchun im kon beradi. 4 yoshga qadam q o'ygan bolalar qo'llarini to'g'ri yuvishni (qo'llam i bir-biriga ishqab sovun surtish, sovunni yuvib tashlash va har bir barm oqni artishni), tish yuvishni (dastlab oddiy h o'l ch o'tka bilan, 4 yoshdan boshlab poroshok bilan), ovqatdan keyin og'izni chayqashni, dastro'm olchadan foydalanishni, stol atrofida o'zini m adaniy tutish qoidalariga rioya etishni (qoshiqdan, sanchqidan foydalanishni, ovqatni to'km aslikni) bilishlari kerak.

Bolalar o'yinchoqlarga ehtiyotkorlik bilan m unosabatda b o'lishni, ozodalik va tartib saqlaslm i o'rganadilar. 5 yoshga qadam qo'ygan bolalar ancha mustaqil bo'lib qoladilar, ular endi sovun bilan yuzlarini, b o'yinlarini, quloqlarini yuva oladilar, ancha puxtalik bilan kiyina oladilar, har bir harakatni bajarish tartibini biladilar, bir-birlarining tashqi ko'rinishlaridagi yoki atrofdagi nuqsonlarni seza boshlaydilar. 6—7 yoshli bolalar o'ziga-o'zi xizm at ko'rsatishga doir barcha harakatlarni ancha tezroq va aniqroq bajara oladilar.

U lar tez, toza, kiyim larini, polni h o'l qilm asdan yuvina olishlari, puxta va tez kiyina olishlari, o'z tashqi ko'rinishlarini kuzatib borishlari kerak.

Ovqatlanish ko'nikmalariga katta talablar q o'yiladi: bolalar sanchqi, pichoqdan to'g'ri foydalanadilar, tartibli ovqat yeydilar.

O'yin burchaklarini yig'ishtirish, navbatchilik turlari, m ajburiyatlari va ko'nikmalari doirasi kengayadi, navbatchilarning vazifalari m urakkablashadi. M adaniy-gigiyenik ko'nikmalarni m untazam m ustahkam lab borish kerak.

Tarbiyaviy ishlar tizim ining o'zgarishi, m alakalarni shakllantirish va ulardan foydalanishga e'tiborning yo'qligi ularning tezda yo'qolishiga olib kelishi m um kin. M aktabgacha yoshdagi bolalar bilan ish olib borishda jism oniy m ashqlar katta o'rin tutadi. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrda bolalar tarbiyachi rahbarligida va m ustaqil ravishda asosiy harakatlarni, sport m ashqlarini egallagan, xilm a-xil harakatli o'yinlarni o'ynashni organgan bo'lishlari kerak.

Bu keng dastur ishning xilm a-xil vositalari va shakllaridan foydalangandagina bajarilishi m um kin. H ar kuni bolalar bir necha bor jism oniy m ashqlarni bajaradilar: ertalab gimnastika shaklida, haftasiga ikki m arta jism oniy tarbiya m ashglulotlari tarzida bajaradilar, ularga turli xildagi saf tortish - lar, um um iy rivojlantiruvchi m ashqlar, asosiy harakatlar, harakatli o'yinlar kiradi. O'rta va katta yoshdagi bolalar bilan o'tirib bajariladigan m ashqlarda jism oniy tarbiya daqiqalari, m ashglulotlar orasida jism oniy tarbiya tanaffuslari o'tkaziladi. Sayr chog'ida sport m ashqlari, harakatli o'yinlar uyushtiriladi, bolalarning kichik guruhlari bilan ish olib boriladi.

Kunduzgi uyqudan keyin saf tortishlar, qayta saf tortishlar, raqs harakatlari, m aroqli mashqlar bajarilib, ular chiniqtirish tadbirlari bilan qo'shib o'tkaziladi. Sayr chog'ida va xonada bolalarning turli qo'llanmalar va m otorli o'yinchoqlar bilan m ustaqil o'yinlari uyushtiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida jism oniy tarbiya an ing quyidagi o'ziga xos vositalaridan foydalaniladi:

1) harakatli o'yinlar o'tkazilib, ularga eng ko'p o'rin beriladi;

2) asosiy gimnastika (asosiy harakatlar, um um rivojlantiruvchi va saf tortish mashqlari);

3) sport mashqlari (konki uchish, chang'ida yurish, suzish, velosipedda uchish);

4) bolalar turizmi.

K o'rsatilgan vositalardan uyg'un foydalanish bolalarning har tomonlama jismoniy rivojlanishini ta'minlaydi.

Nazorat uchun savollar

- 1. Shaxsning jismoniy rivojlanishi haqida tushuncha bering**
- 2. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning umumiy jismoniy rivojlanganishining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?**
- 3. Bolalarni jismoniy rivojlanishi bo'yicha dagnostik karta tuzishda nimalarga e'tabor qaratiladi?**

8-MODUL.PEDAGOGIK ME'YORDAN OG'ISHLIKNING XUSUSIYATI

8-MAVZU. MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING HULQIDAGI SALBIY HOLATLARNI TASHXIS QILISH.

8.1.Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning hulqidagi salbiy holatlarni tashxis qilish mazmuni

Rivojlanishning qaysi bosqichida bo'lishian qat'iy nazar, har qanday jamiyatda, u eng jamiyatda, u eng rivojlangan, farovon, iqtisodiy rivojlangan mamlakat bo'ladimi yoki rivojlanayotgan jamiyatli ularda o'zlariga maxsus alohida e'tibor talab etadigan insonlar bo'ladi.

Bunday insonlar biror bir jihatdan: jismoniy, psixik yoki ijtimoiy rivojlanishdan nuqsoni bor insonlardir. Bunday insonlar jamiyat va davlatda doimo alohida guruhga mansub bo'lib ajralib turadi. Ularga doimo maxsus munosabatda bo'lib kelingan. Biroq bu toifadagi insonlarga jamiyatning tarixiy-madaniy sharoitiga muvofiq turli davrlarda turlicha munosabatda bo'lib kelingan. Masalan, Qadimgi Spartada jismoniy, psixik nosog'lom bolalarni spartachilar qoyalardan uloqtirganlar. Bunday toifadagi insonlarga boshqa bir jamiyatda esa insonparvarlik nuqtai nazardan yondashganlar, ular mehribonlik va g'amxo'rlik ko'rsatganlar. AQSh va Yevropaning mamlakatlarida hozirgi davrda nosog'lom, jismoniy kamchilikli bolalarga barcha teng huquqli insonlar qatori munosabatda bo'ladilar.

Ularga jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida qarab, bu insonlarni muammoli yoki imkoniyati cheklangan shaxs sifatida alohida maxsus e'tibor beriladi. "Muammoli inson" tushunchasi AQSha keng qo'lianilsa, Yevropa mamlakatlarida "imkoniyati cheklangan inson" iborasi ko'p ishlatiladi. Bugungi kunda imkoniyati cheklangan insonlarga munosabatda, eng avvalo sog'liq masalasi dolzarb masala hisoblanadi.

Chunki bunday insonlar soni dunyo miqyosida o'sib bormoqda. YUNESKOning istiqbol bo'yicha ma'lumotlarida

yaqin vaqtda jahon hamjamiyati bu ko'rsatkichni o'zgartira olmaydi. Sog'lom muhit doimo insonlar ongida o'z chegarasiga ega bo'lib, chegaradan tashqi bo'lganlar "nome'yoriy", "potologik" deb belgilanadi.

Amaliyotda inson anglagan yoki anglamagan holda o'zgalarni belgilariga muvofiq layoqatli yoki layoqatsiz deb baholaydi. Me'yor tushunchasi tibbiyotda, psixologiya, pedagogika, sosiologiya va boshqa fanlarda keng qo'llanilib kelinadi. Bu tushuncha aniq va yaxlit, yagona, ta'rif berishga bo'lgan intilash muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlangan. Masalan, faqatgina tibbiyotda olimlar 200ga yaqin ta'rif berganlar.

"Me'yor" tushunchasi ifodalab berishning murakkabligi shundaki, u nafaqat terminologik, balki mazmun mohiyat jihatidan ham yagona ifodaga ega emas. Masalan, axloqiy me'yorlar doimo bir xil, hamma uchun deb belgilana olmaydi. Shu sababli ham ular birinchidan, milliy o'ziga xoslik bundan tashqari, vaqt o'tishi bilan qayta-qayta o'zgarib turadilar. A

Aslida qanchalik jamiyat demokratik tuzumga asoslangan bo'lsa, shunchalik shaxsning nostandart shakldagi xususiyatlariga chidamlimunosabatda bo'linadi, agar totalitar rejimga asoslangan bo'lsa, inson xulqini qattiq chegara doirasiga oladi, mabodo xulqiy og'ishlik xolatlariga yo'l qo'yilsa, ular rahmsizlik bilan jazolanadilar.

Shuni unutmashlik loimki, me'yor bu shunday g'oyaviy hosilaki, unda ob'ektiv borliq (reallik) shartli ravishda, o'rtacha statistic ko'rsatkich bo'yicha, real haqiqat tavsiflanadi, biroq unda mavjud holatlar ifodalanmaydi. Tibbiyot, psixologiya, sosiologiyada me'yorning o'z ko'rsatkichlari parametr (o'lchami), tavsifnomalari mavjud.

Me'yorga muvofiq bo'lmagan bo'lmagan holatlar barchasi boshqa so'z "me'yordan og'ishlik" deb yuritiladi. Ijtimoiy pedagogika "me'yor" va "me'yordan og'ishlik" tushunchalari juda muhimdir. Ular bolaning ijtimoiy xulq – atvori rivojlanish jarayonini xarakterlash uchun qo'llaniladi. Xulqiy og'ishlik negaiv va pozitiv xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Masalan, me'yordan xulqiy og'ishlik xolati bola rivojlanishida ham aqliy norasolik va qobiliyatlilik bo'lib ifodalanishi mumkin. Bola xulq-atvoridagi bunday negativ xulqiy og'ishlik jinoyatchilik, alkogolizm, giyohvandlik va boshqalar sifatida insonning (nafaqat inson, balki jamiyatning) ijtimoiy shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xulq atvordagi pozitiv og'ishlikka ijtimoiy ijodning barcha shakllari taalluqli bo'lib, ular: iqtisodiy tadbirkorlik, ilmiy vabadiiy ijodkorlik va boshqaalr, aksincha eski me'yorlar o'rniga almashinuvi ijtimoiy tuzim rivojlanishiga xizmat qiluvchi omil hisoblanadi.

Me'yordan og'ishlik tiplari. Me'yordan og'ishlikni shartli ravishda 4 guruhga bo'lish mumkin: 1. Jismoniy 2. Psixik 3. Pedagogik 4. Ijtimoiy Me'yordan jismoniy og'ishlik insonning sog'lig'i bilan bog'liq bo'lib, tibbiy ko'rsatkichlar orqali belgilanadi.

U bolalarning yosh ko'rsatkichlari va jinsi bilan (og'irlik, bo'y uzunligi, ko'krak kengligi va boshqalar) ifodalanadi. Ular bolaning sog'lig'ini xarakterlaydi. Aslida bular ideal ko'rsatkichlar bo'lib, bunday ko'rsatkichlarga to'la muvofiq keladigan bolani topish qiyin bo'lsa kerak.

Jismoniy jihatdan me'yordan og'ishgan bolalarni ijtimoiylashtirish alohida qiyinchilik bilan amalgam oshirilib, maxsus ishlarni talab etadi. Sog'lig'I jihatdan me'yordan og'ishganlik biror kasallik asorati yoki avloddanavlodga o'tuvchi omillar ba'zan tashqi vaziyat orqali yuzaga kelishi mumkin.

Masalan, og'ir ekologik vaziyat; oziq-ovqat; ichimlik suvining ifloslanishi, sifatsizligi; oilaning umumiy yashash sharoitining og'irlashishi va boshqalar. Sog'lig'I va o'sishida me'yordan og'ishlik bo'lgan insonlatning ko'pgina toifalari mavjud. 1980 yili jahon sog'liqni saqlash tashkiloti Britaniyaning imkoniyati cheklangan shaxslar uchunuch bo'g'inli shkalasini qabul qildi.

1 Xastalik: - inson sog'lig'idagi har qanday yo'qotish, yoki jismoniy funktsiya anatolik tuzilmasi elementlari, faolkiyatidagi biror-bir qiyinchilikning aniqlanishidir.

2 Cheklangan imkoniyat – inson uchu me'yordagidek hisoblanadigan har qanday cheklanish yoki o'z faoliyatining yo'qolishi (nuqsonning ko'pligi yoki asorati) yoki inson faoloiyati doirasidagi har qanday cheklanishlar.

3 Layoqatsizlik (nogironlik) – inson sog'lig'idagi nuqsonlar asorati yoki cheklangan imkoniyat, me'yoriy qaysidir rolning bajarilishiga to'siq bo'lgan, yosh ko'rsatkichlari, jinsiy yoki ijtimoiy omillardan kelib chiqadigan holat. G'arbiy davlatlarda "Sog'lig'ida imkoniyati cheklangan shaxslar" tushunchasi qabul qilingan. O'zbekistonda ham bu tushuncha kiritilib, unga jismoniy va psixik kamchiligi bo'lgan bolalar taalluqlidir.

Bunday bolalarning sog'lig'idagi nuqsonlari ularning standartdagi ta'lim olishlarida to'siqlik qiladi, shu sababli ta'lim olishda maxsus sharoitlar yaratilishini talab etadi. Shuningdek "nuqsonli" tushunchasi kiritilgan bo'lib, ular jismoniy, psixik og'ir va murakkab kabi turlarga ajratilgan. Me'yordan psixik og'ishlik eng avvalo bolaning aqliy rivojlanishi uning psixik nuqsonlari bilan bog'liq.

Bu guruhga eng avvalo psixik rivojlanishda to'xtalish (ZPR) bo'lgan bolalar va aqliy norasolar yoki oligofreniya (yunon tilidan oligis kichik va phren-aql) lar kiradi. Bu psixik og'ishlikning eng so'nggi shakli bo'lib autism (yunon tilidan, aytos sam, o'zi)-psixikaning holati, muloqotga ehtiyoji yo'qligi, odamoviligi bilan karakterlanadi va (o'zini-o'zi o'ldirish) suiqasdga moil bo'ladi. Me'yordan psixik og'ishgan bolallrnign alohida guruhiga iqtidorlilar kiradi.

Bu bolaga muvaffaqiyatga erishishni ta'minlovchi, biron-bir faoliyatni bajarishda, yutuqlarga erishuvida muhim bo'lgan bolalar iste'dodining o'ziga xos turlaridir. Hozirgi davrda bolalrdagi iste'dodni ulardagi musiqaga, san'atga, tasviriy san'atga, sport, aqliy qobiliyatlarini ertaroq aniqlovchi ajoyib metodikalar ishlab chiqilgan.

Bu metodikalarbolalar qobiliyatlarini shakllantirishga ham hizmat qiladi. Pedagogik me'yordan og'ishlik. Bu shunday tushunchaki, hozircha pedagogika juda kam qo'llaniladi.

Pedagogik me'yorlarda eng avvalo standartlar ko'zda tutiladi. Ular ta'lim darajalarini belgilab beradi. ta'limni egallaganlik yoki egallay olmaganlik me'yordan og'ish me'yorlari haqida firk yuritish mumkin.

Pedagogik me'yorlar bo'lib mamlakatda qabul qilingan umumiy ta'lim standartlar hisoblanadi. Bu standartlarga muvofiq darajadagi ta'limni o'zlashtirish lozim. Boshlang'ich ta'limni egallash, o'rta ma'lumot (9-sinf)ni olishi va o'rta maxsus yoki kasb ta'limini olgan bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasi "kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (1997) ga muvofiq umumiy o'rta ta'lim (1997) hamma uchu majburiydir.

Shu baza asosida mustaqil ta'limsifatida majburiy bo'lgan o'rta maxsus yoki kasb ta'limi (o'qish muddati 3 yil) davomida amalga oshiriladi. Biroq o'rta ma'lumotni olmagan bolalar ham bor. O'zi mustaqil kasb ta'limi faoliyati turlarini egallay olmaydigan bolalar ham uchrab turadi. Bunday bolalarning o'qishga xoxishi yo'qligi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasb faoliyati bilan shug'ullana olmasligi kabi xususiyatlari birlashtiradi.

Shunday holatlardan kasb xususiyatlari birlashtiradi. Shunday holatlardan kasb ta'limiga ega bo'lmagan bolalar kelib chiqadi. Bu me'yordan og'ishganlikni bartaraf etishda mutaxassisning ijtimoiy-pedagogik yordami zarur bo'ladi. Ijtimoiy me'yordan og'ishganlik ijtimoiy me'yorlar" tushunchasi bilan bog'liq. Ijtimoiy me'yorlar – bu jamiyatning u yoki bu davrida, bosqichida maxsus o'rnatilgan xulq-atvorga oid qoidalar, hatti-harakat namunalari yoki yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan (ruxsat etiladigan yoki majburiy) qoidalaridir.

Umumiy qabul qilingan xulq-atvorga oid qoidalar o'z tarixiy rivojlanish yo'liga ega. Ular qadimgi davrlardan ma'lumdir. Jamiyat doimo o'zini saqlab qolishga harakat qilgan. Shu maqsadda insonlar o'ryasidagi o'zaro munosabatlarda turli ijtimoiy cheklanishlar: miflar, tabu(ma'n qilish), an'analar, diniy dogmalar (aqidalar) kiritilgan. Insoniyat jamiyati doimo murakkablashib va takomillashib brogan.

Vaqt o'tishi bilan yanada mustahkamroq xuquqiy axloqiy me'yorlar vujudga kelib, insonlar xulq-atvoriga bo'lgan munosabatda u yoki bu jamiyatda qabul qilingan axloq va huquqiy me'yordan og'ish holatlari shakllanishiga aqrshi me'yorlar yuzaga keldi. Ijtimoiy me'yorlar ikkita katta guruhga bo'linadi:

1. Universal me'yorlar; jamiyatda har bir insonga taalluqli me'yorlar.

2. Xususiy me'yorlar; insonlarni alohida belgilangan kasbiy faoliyatlari sohalari yoki insonlar hayotiy faoliyatlari (masalan, shifokor, pedagog, aka, do'st va boshqa)ga taalluqli me'yorlar.

Ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish insonning ehtiyoji va odatlariga aylanishi zarur. Agar bola ijtimoiy me'yorlar va jamiyat qadriyatlarini o'zlashtirmagan bo'lsa uni xulqiy og'ishgan bola deb ataydilar. Xulqiy og'ishgan bolalar muammosi sosiologiya, psixologiya, va pedagogikaga oid adabiyotlarda asosan ishlab chiqilgan.

Xulqiy og'ishganlikning turlariga bolalar alkogolizmi, toksikonomiya, giyohvandlik, buzuqlik, qarovsizlik, nazoratsizlik, daydilik, jinoyatchilik, xuquqbuzarlik va boshqalar kiradi. Ilmiy pedagogik adabiyotlarda bu toifadagi bolalarni turlicha atamalar bilan beradilar: "tarbiyasi og'ir", "og'ir xulqli", "deviant bola", "xulqi og'ishgan", "asosial xulqli bola". Ijtimoiy rivojlanishda xulqiy og'ishgan bolalar orasiga yana shunday toifadagilar: Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar ham kiradi. Bunday bolalar-yetimlar va "ijtimoiy yetimlar"dir. Ular Biologik ota-onalari bo'la turib, turli vaziyat sababli birga yashmaydilar. "Ijtimoiy maydondan chetlatilgan" bolalarni jamiyatga qaytarish uchun ularga yordam berish zarur.

Shu sababli ijtimoiy pedagogning bunday bolalar bilan olib boradigan ishlari, bir tomondan, xulqiy og'ishganlikning oldini olish profilaktika ishlari, jamiyatda qabul qilingan me'yor va qoidalarning buzilish holatlarida ogohlantirish, boshqa tomondan, xulqi og'ishgan bolalarni reabilitasiya qilish ishlarini bajarish lozim.

8.2.Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning xulqidagi salbiy holatlarni korrektsiyalash.

Tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati Tarbiya pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida maz51 ta'limni ko'zda tutgan tarbiyaviy ta'sir majmuidir. Ta'lim jarayoni alohida m ashg1 ulotlardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy tadbirlardan tarbiya jarayoni vujudga keladi. Tadbirlar, tarbiyaviy ishlar tarbiya jarayonining bir boTagidir. Tarbiyaviy ish - bu tarbiyaning tizimlili, toialigi, uzviyligi va uzluksizligidir. Tarbiyaviy ish tarbiyalanuvchilarning muayyan faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi shakldir. Tarbiyaviy ishning asosiy xususiyati - zaruriylik, foydalilik va tatbiq etish imkoniyatidan iborat. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda yorqin namoyon bo'ladi: • maqsadga yo'naltirilganlik. Tarbiya jarayoni - bu natijasi jam iyat uchun foydali shaxsni shakllantirishga qaratilgan maxsus tashkil etiluvchi. boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi tarbiyachi va tarbiyalanuvchilaming birgalikdagi faoliyati. Boshqacha aytganda, mazkur jarayon qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan tarbiyachi va tarbilanuvchilarning o'zaro hamkorligidir; ko'p qirrali jarayon. Tarbiya jarayoni ko'plab obyektiv va subyektiv omillarga bogliq. Subyektiv omillar bolaning ichki ehtiyojlari bilan bogliq bo'lsa, obyektiv omillar tarbiyaviy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradigan bola yashaydigan muhit sharoitlari bilan tavsiflanadi; uzoq muddat davom etishi. Pedagogikada tarkib topgan qonuniyatga ko'ra tarbiya jarayoni inson tug'ilganidan boshlab umrining oxirigacha davom etadi; uzluksizligi. Tarbiya-tarbiyachi va tarbiyalanuvchilaming izchil, tizimli o'zaro harakati jarayoni. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun tarbiyaviy ishlar tizimli yo'lga qo'yilishi lozim; • yaxlitligi. Ya'ni tarbiya jarayoni maqsad, vazifa, mazmuni, shakl, uslub va vositalarining birligi. Bolani tarbiyalash jarayoni yaxlit tavsifga ega bo'lganligi bois tarbiyaviy ta'sirning ham to'laqonli boiishiga erishish lozim; •

variativligi. Tarbiya jarayoni xilma-xil ko‘rinishda amalga oshirilib, m azkur holatda tarbiyalanuvchilarning individual rivojlanishidagi o‘ziga xosliklar, tarbiyaviy jarayonga munosabati, ijtimoiy tajribalari alohida ahamiyat kasb etadi; natijalarning oldindan aniqlanmasligi. Tarbiya jarayonining murakkabligi shundaki, mazkur jarayon o'z mahsulini yillardavom idako‘rsatadi. 52 Kutilgan natijaga erishish ham tarbiyachining kasbiy mahoratiga, ham tarbiyalanuvchining shaxsiy faolligiga bevosita bog‘liqdir; ikki tomonlamalilik. Tarbiya jarayonining borishi ikki yo‘nalishda amalga oshadi: tarbiyachi - tarbiyalanuvchi (to‘g ‘ridan-to‘g ‘ri aloqa) va tarbiyalanuvchi - tarbiyachi (qayta aloqa). Tarbiya qonuniyatlari - bu bir tomondan, Tarbiya qonuniyatlari ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan barqaror aloqalardir. Tarbiya jarayonining quyidagi umumiy qonuniyatlari mavjud: • ijtimoiy muhitning obyektiv va subyektiv omillariga bog‘liqligi. Obyektiv omillar tarbiyani tashkil etish shart-sharoitlari (moddiy-texnik, ijtimoiy, madaniy, sanitar-gigienik) orqali yuzaga chiqsa, subyektiv omillarga tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar, ularning o ‘zaro birgalikdagi harakati, murakkab aloqalar, psixologik muhit va boshqalarni kiritish mumkin; tarbiyaning shaxsning rivojlanishi bilan birligi va o 'zaro bog 'liqligi. Tarbiya jarayoni bolalarning yosh davri rivojlanishi xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi; qo‘yilgan maqsad va vazifalar bolalarning yosh xususiyatlariga to‘liq mos kelishi lozim; • faoliyat va munosabatni e’tirof etish shaxsning ijtimoiy qimmatli fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbayi.- Tarbiyalanuvchilarning faoliyatga jalb etish orqali ularda mavjud jarayonga nisbatan munosabatni aniq baholay olish mumkin. O‘z navbatida munosabat bildiray olish tarbiyalanuvchining faoliyatga tayyorligini ko‘rsatadi; • tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'siri, o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyati o'rtasidagi bog'lanish. Tarbiyalanuvchilar bir-birlariga o‘zaro ta’sir etishlari va mazkur imkoniyatdan oqilona foydalana olish tarbiya

jarayonining ta'sirini kuchaytiradi. Ularning o'zaro munosabatlarining barqarorligi, shuningdek, birgalikdagi faoliyati ularda jamoaviylik, o'zaro ishonch, mehribonlik, bir-birlari uchun qayg'ura olish, hamdardlik, bag'rikenglik kabi fazilatlarning qaror topishiga ko'maklashadi; • tarbiya va o'zini-o'zi tarbiyalashning intensivligi. O'z-o'zini tarbiyalash - bu shaxsning o'zini, shaxsiy sifatlarini takomillashtirishidir, zamon talabiga javob beradigan darajada ongli intilishidir. O'z-o'zini tarbiyalash yaxshi tarbiya natijasida yuzaga kelib, shaxsning o'z-o'zini 53 kam olgayetkazishiga olib keladi. O'z-o'zini tarbiyalash bevosita tarbiyalanuvchilar hayot mazmuni, ulaming qiziqishlari, u yoki bu yosh davridagi xarakterga bog'liqdir. O'z-o'zini tarbiyalash muhim ahamiyatga ega bo'lib, tarbiyalanuvchiga o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olish, o'zidagi ijobiy va salbiy jihatlarni aniqlay olish imkonini beradi; • tarbiyalanuvchining "ichki olami"ga ta'sir etishning intensivligi (G.I. O'ukina). "Tarbiyalanuvchining ichki olami" deganda motiv, ehtiyoj, emotsiya, intellekt kabilarning birligi tushuniladi. Tajriba, bolaning ehtiyojlari orqali sinaladigan tashqi muhit ta'siri uning yutug'i sifatida yuzaga keladi. Aynan tarbiyaviy jarayonda tashqi ta'sir bolaning ichki muvaffaqiyatini kuchaytiradi; • tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta'sirini hisobga olish (G.I. O'ukina). Amaliyot ko'rsatadiki, hamma vaqt ham bolaning aqliy rivojlanishi uning verbal nutqi va harakatga doir sensomotor ko'rsatkichlariga mos kelavermaydi. Nazariy bilimlarga oson va erkin tayanuvchi bolalar uchun ba'zan elementar amaliy harakatlar, sohada mehnat faoliyatiga doir operatsiyalarni, jismoniy mashqlarni bajarish qiyin va murakkablik qiladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish dinamikasi bilan pedagogik ta'sirning uyg'unligiga erishish lozim.

8.3.Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning hulqidagi salbiy holatlarni profilaktika qilish.

Axloqiy tarbiya-shaxsni xar tomonlama rivojlantirishning muxim tarkibiy qismidir. U bolalarga axloqiy tasavvur va bilimlarni singdirish, ularda shaxsning axloqiy xis-tuygu va sifatlarini, ijobiy munosabatlar va xulq madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan jarayondir. Axloqiy tarbiya jarayonida bola axloqiy jixatdan kamolga etadi. Axloqiy tasavvurlarning rivojlanishi jarayonida eng avvalo ular o`zlarining boshqalar bilan bo`ladigan munosabatlarini ongli tushuna boshlaydilar; tengdoshlari va kattalar bilan bo`ladigan munosabatlarida axloq saboqlari rivojlana boradi.

Axloq kishilarning xulq-atvor normalari va qoidalarini, ularning o`z-o`ziga, boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyatga munosabati kabi axloqiy tushunchalarni o`z ichiga oluvchi ijtimoiy ongning aloxida bir shaklidir. Axloq sinfiy xususiyatga ega, chunki axloq xis-tuygu, tushuncha va printsiplar ma'lum ijtimoiy formatsiyaga xos bo`lib, ijtimoiy tuzum o`zgarishi bilan u xam o`zgaradi. Bizning jamiyatimizdagi axloq, eng yaxshi umuminsoniy xulq normalarini o`z ichiga olgan bo`lishi kerak.

«Odob-bu qalbni yomon so`zlardan va nojo`ya xulqdan saqlay olish, o`zini va o`zgalarni ham xurmat qila bilishdadir», deydi olim. Uning fikriga yaqin fikrni A. Navoiy ijodida xam bor. «Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar uchun yoqimlirog`idir», - deydi buyuk shoir. Abdulla Avloniy til va so`z odobi haqidagi umuminsoniy fikrlarni shunday ta'riflaydi: «... so`z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini ulchab kursatadigan tarozidir. Aql soxiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va kuvvati, qadr va qimmatini so`zlagan so`zidan bilurlar». Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy jitxatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy xislarini, shaxsiy sifatleri va xulqini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi.

Axloqiy tarbiyaning vaziflari asosan quyidagilardir:

1. Bolalarda axloqiy his-tuyg`ular, tasavvurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash.
2. Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash.
3. Shaxsda axloqiy his-tuyg`ularni tarbiyalash.
4. Xulqdagi salbiy xislarni barham toptirish.

Axloqiy tarbiyaning vazifasi va mazmuni bog`chadagi axloqiy tarbiya berishning asosiy printsiplari va pedagogik shart-sharoitlariga rioya qilish asosida bajariladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar axloqiy tarbiyasining vazifasi hamda mazmuniga muvofiq uning printsiplari ishlab chiqilgan. Axloqiy tarbiya metodlari-bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarini egallab olishiga, ularda ma'daniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning axloqiy xis-tuyg`ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat hisoblanadi.

Axloqiy tarbiya metodlari quyidagi guruhlarga bo`linadi:

I-guruh axloqiy ongini, ya'ni axloqiy tasavvur va bilimlarni, ularni bajarish xoxishini shakllantirishga qaratilgan metodlar.

II-guruh madaniy xulq-atvor va ijobiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan metodlar.

III-guruh axloqiy his-tuyg`ular va munosabatlarni rag`batlantirishga qaratilgan yordamchi metodlardir.

Nazorat uchun savollar

1.Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning hulqidagi salbiy holatlarni qanday tashxis qilinadi?

2.Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning hulqidagi salbiy holatlarni korrektsiyalash qanday amalga oshiriladi?

3.Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning hulqidagi salbiy holatlarni profilaktika qilishning o`ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?

9-MODUL. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA ASOSIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI REJALASHTIRISH METODIKASI

9-MAVZU. Pedagogik diagnostika asosida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirishning umumiy jihatlari.

9.1. Pedagogik diagnostika asosida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish jarayoni

Maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini optimallashtirishda professor-o'qituvchilar bilan uslubiy ishlarning samaradorligini oshirish muammolari muhim o'rin tutadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida metodik ishlarni boshqarish diagnostika asosida pedagogik jarayonni optimallashtirishga imkon beradi, chunki u bolalar va ota-onalarning ehtiyojlarini batafsil o'rganish, o'qituvchi xodimlar va har bir o'qituvchining salohiyatini batafsil o'rganishni o'z ichiga oladi, bu sizning kasbiy malakalarni oshiradigan metodik ishlarning shakllari, usullari, uslublarini aniqroq aniqlash imkonini beradi va ijodkorlikni rag'batlantiruvchi o'qituvchilar.

Pedagogik tashxis ikki tomonlama. Bir tomondan, u bolalarni tarbiyalashga emas, balki ta'lim sharoitlarini yaxshilashga, uning samaradorligini oshirishga, boshqa tomondan, o'qituvchining o'zini rivojlantirish va o'zini yaxshilashga, o'z faoliyatining xususiyatlarini (afzalliklari va kamchiliklari) tushunishga imkon beradigan fikrlash darajasini oshirishga qaratilgan.

Shunday qilib, zamonaviy ma'noda, pedagogik diagnostika maxsus ishlab chiqilgan usullar va texnikalar tizimi hisoblanadi ta'lim texnologiyalari, o'qituvchining malakasini oshirish, maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanish darajasini aniqlash, shuningdek kamchiliklarning sabablarini aniqlash va maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim xizmatlarini sifatini yaxshilash yo'llarini topish imkonini beruvchi usul va test topshiriqlari.

Pedagogik diagnostika faqat kamchiliklarni, ishdagi xatoliklarni aniqlash, o'quvchilar rivojlanish darajasini aniqlash uchungina amalga oshiriladi. Uning asosiy maqsadi - sabablarni tahlil qilish va yo'qotish, generatorlar bu kamchiliklari, ta'lim tajribasini to'plash va tarqatish, ijodkorlikni rag'batlantirish, o'qitish qobiliyatlari.

Ta'lim xizmatlarining sifatsizligi sabablari o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarligi, eskirib qolgan ta'lim dasturlari va pedagogik texnologiyalar va bolalar bilan ishlash usullari, innovatsiyalarning tezkor to'plami, ota-onalar bilan aloqalarning yo'qligi, moddiy muhitni shakllantirishda noto'g'ri tushuntirishlar bo'lishi mumkin. maktabgacha tarbiya va boshqa ko'plab sabablar.

Ularni aniqlash, maslahatchi bilan murabbiylik qilish, o'quvchilarning ota-onalari bilan ishlashni takomillashtirish bo'yicha aniq tavsiyalar berish, maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim yo'nalishi bo'yicha metodik ishlarning asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish bo'yicha boshqaruv qarorini ishlab chiqish bo'yicha reja ishlab chiqish.

O'qish jarayonida pedagogik faoliyat o'qituvchilar maktabgacha tarbiyachilarning turli o'yinlarini (o'yinlar, teatr va san'at, mehnat va hokazo) boshqarish uchun professional ko'nikmalarini baholaydi; nutqni rivojlantirish bo'yicha professional ko'nikmalar; bolalar bilan muloqot qilish uchun zarur bo'lgan kasbiy ko'nikmalar va sifatlarni qamrab oladi.

O'qituvchi I.A Komarov, R.L. Nepomnyashchaya ning pedagogik faoliyatiga bag'ishlangan ushbu tadqiqot uchun ular baholarni taklif qilishadi.

O'qituvchilarning pedagogik mahoratini o'rganish uchun o'qituvchilarning kasbiy fazilatlarini namoyon qilish, tashkiliy-uslubiy ko'nikmalar, shaxsiy xususiyatlar, tashqi ko'rinishlarning

namoyishi uchun bir xil mualliflar baholash ko'lamini ishlab chiqdilar.

Pedagogik jarayonni muvofiqlashtirishda rahbarning asosiy vazifasi pedagogning ishini nazorat qilish bo'lib qoladi va ishning asosiy qismi prognoz qilinmoqda.

Pedagogik diagnostika quyidagi masalalarni kompleks shaklda hal qilishga imkon beradi:

Pedagogik jarayonning tarkibiy qismini rejalashtirish va tashkil etishning ilmiy asoslanganligi;

Muayyan ta'lim texnologiyasini keskin testlash va qo'llash;

· Pedagogik jarayonning samaradorligi va samaradorligiga erishish;

Maktabgacha tarbiyasida shaxsning rivojlanishini taxmin qilish imkoniyatlari.

Pedagogik tashxis qo'yish sizning har bir o'qituvchi va etakchining ishini professional yo'naltirishni kuchaytirishga, ularning ishlarini ilmiy va uslubiy tushunishga qiziqishni oshirishga imkon beradi.

Ushbu sohada o'qituvchilar uchun malakali o'qitish bo'limlari:

1. Ilmiy nazariy bilimlarni joylashtiring. Pedagogik diagnostika diagnostika usullari va protseduralari ro'yxati emas, balki butun metodologiya kabi amaliy faoliyatning nazariy asosini tushunish kerak. Tashxisiy o'lchash sifatini baholashga imkon beradigan mezonlar · Ob'ektivlik;

· Ishonchlilik (aniqlik);

· Ishonchlilik (haqiqiyliги).

2. Bolalar rivojlanishining diagnostikasini tuzatish maktab yoshi.

3. Pedagogikaning tashxisi haqidagi g'oyalarni shakllantirish.

Tashxis pedagogik nazoratdan tashqarida emas. Ba'zi olimlar (S.F. Bagautdinov) pedagogik nazorat tizimini diagnostika usullaridan foydalanish orqali o'qituvchilarni jalb qilishni tavsiya

qiladi. Masalan: boshqariladigan nazoratdan voz kechish, ishonch tamoyiliga rioya qilish, o'z-o'zini nazorat qilish va o'zaro nazoratga o'tish, tekshirish bosqichlarini diagnostik tarkibiy qismlar bilan, ayniqsa tahlil qilish va prognozlash bilan o'zaro bog'lash mumkin.

Ishning keyingi bosqichi samarali diagnostika texnologiyasini, jumladan, samarali va oqilona tahlil usullari kompleksini va ulardan foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratish, natijalarni ro'yxatga olish usuli va ko'rsatkichlarini belgilash hisoblanadi.

Pedagogik nazorat va pedagogik diagnostika muammolari maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari uchun ham dolzarbdir.

Bir tomondan, ijodkorlikni va o'qituvchilarning erkinligini rag'batlantirish, ikkinchidan, bu jarayonni tartibga solish va tartibga solish kerak.

Pedagogik diagnostika modelini yaratish maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktabgacha va pedagogik xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish, maktabgacha ta'lim muassasasining davlat ta'lim standartiga muvofiqligini aniqlash masalalarini hal qilish imkonini beradi.

Hozirgi kunda maktabgacha tarbiya o'qituvchisi malakasi, ijodkorligi, innovatsion faoliyatdan foydalanishga tayyorligi va tajriba ishlarini olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Amaliy faoliyat madaniyati ostida tushuniladi professional faoliyat o'qituvchi, bolalarni tayyorlash, tarbiyalash va rivojlantirishda eng yuqori natijalarga erishishga qaratilgan. Quyidagi funktsiyalar bilan tavsiflanadi:

- Maqsad va vazifalarni belgilashda yangilik;
- Pedagogik muammolarni hal etishning yangi usullarini qo'llash va undan foydalanishning o'ziga xosligi;

· O'quv jarayonini insonparvarlashtirish va individualizatsiyalashga asoslangan yangi tushunchalar, mazmun, ta'lim texnologiyalari ishlab chiqish.

O'zini ongli ravishda o'zgartirish va rivojlantirish, kasbga hissa qo'shish qobiliyati.

Kasbiy malakaga ega bo'lish uchun maktabgacha ta'lim muassasalarining pedagogik diagnostika texnikasini rivojlantirish eng muhim shart. Hozirgi kunda ko'plab o'qituvchilar pedagogik diagnostika ahamiyatini tushunishadi va pedagogik jarayonning samaradorligi bilan uni o'rganish zarurligini birlashtiradi.

O'qituvchilar ustozlik qilishlari kerak:

- Bolalarni psixologik va pedagogik diagnostika usullari;
- Ota-onalarning pedagogik madaniyatini o'rganish usullari;
- Psixologik va pedagogik self-diagnostika metodlari;
- Bolalar ichidagi moddiy muhitni va tibbiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash qobiliyati bolalar bog'chasi;

9.2. Pedagogik diagnostika asosida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirishning asosiy tamoyillari.

Har bir inson qaysi faoliyat bilan shug'ullanishdan qat'iy nazar o'z faoliyatini oldindan rejalashtirsagina ishining unumi bo'ladi.

Dalada ishlaydigan tikuvchilik qiladimi, qaysi ishni qilmasin oldin rejasini tuzadi. Shunday ekan tarbiyasi ham o'zining faoliyati muvaffaqiyatli chiqishi uchun eng avvalo o'quv yili boshlanishidan oldin avgust oyida yillik reja, so'ngra har oy boshlanishidan oldin oylik reja va xaftalik reja tuzadi.

Yillik rejada yil davomida har bir yo'nalish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan dastur vazifalari aniq mavzular orqali aks ettiriladi. Bundan tashqari yil bo'yi o'tkaziladigan tadbirlar, ko'rik tanlovlar ham rejalashtiriladi. Barcha guruhlarda yil davomida barcha yo'nalishlar bo'yicha mavzular soni quyidagicha:

ILK YOSH GURUHI.

№	Yo`nalishlar	Xaftada	Oyda	Yilda
1.	Nutq o`stirish	1	4	36
2.	Tevarak atrof bilan tanishtirish	0,5	2	18
3.	Tabiat bilan tanishtirish	0,5	2	18
4.	Ilk matematika (sensor tarbiya)	1	4	36
5.	Musiq	2	8	72
6.	Tasviriy faoliyat	2	8	72
7.	Jismoniy tarbiya	2	8	72
	Jami:	9	36	324
Kichik guruh				
1.	Nutq o`stirish	1	4	36
2.	Tevarak atrof bilan tanishtirish	0,5	2	18
3.	Tabiat bilan tanishtirish	0,5	2	18
4.	Ilk matematika	1	4	36
5.	Badiiy adabiyot	1	4	36
6.	Musiq	2	8	72
7.	Tasviriy faoliyat	3	12	108
8.	Jismoniy tarbiya	2	8	72
	Jami:	11	44	396
O`rta guruh				
1.	Nutq o`stirish	1	4	36
2.	Tevarak atrof bilan tanishtirish	1	4	36
3.	Tabiat bilan tanishtirish	1	4	36
4.	Ilk matematika	1	4	36
5.	Badiiy adabiyot	1	4	36
6.	Tasviriy faoliyat	3	12	108
7.	Jismoniy tarbiya	3	12	108
8.	Musiq	2	8	72
	Jami:	13	52	468
Katta guruh				
1.	Nutq o`stirish	1	4	36
2.	Tevarak atrof bilan tanishtirish	1	4	36

3.	Tabiat bilan tanishtirish	1	4	36
4.	Ilk matematika	2	8	72
5.	Badiiy adabiyot	1	4	36
6.	Musiqa	2	8	72
7.	Tasviriyy faoliyat	3	12	108
8.	Jismoniy tarbiya	3	12	108
	Jami:	14	56	504
Maktabga tayyorlov guruh				
1.	Nutq o`stirish	2	8	72
2.	Tevarak atrof bilan tanishtirish	1	4	36
3.	Tabiat bilan tanishtirish	1	4	36
4.	Ilk matematika	2	8	72
5.	Badiiy adabiyot	1	4	36
6.	Musiqa	2	8	72
7.	Tasviriyy faoliyat	3	12	108
8.	Jismoniy tarbiya	3	12	108
	Jami:	15	60	540

Har qaysi guruhda tuzilgan mavzular dastur asosida har bir yo`nalishning hamma tomonini qamrab olishi kerak.

Masalan: badiiy adabiyotning hikoya qilib berish, o`qib berish va yod oldirish, ilk matematikaning son-sanoq, geometrik shakl, kattalik, tevarak-atrofni bilish, vaqtni chamalash, jismoniy tarbiyaning yurish yugurish, sakrash, irg`itish, emaklash, ilib olish, muvozanat saqlash, tirmashib chiqish ayrim bo`limlari nazardan chetda qolmasligi lozim. Quyida o`rta guruhda badiiy adabiyot yo`nalishi bo`yicha yillik reja mavzulardan namuna keltiriladi.

O`RTA GURUH.

Badiiy adabiyot

Yilda	Hikoya qilib berish	O`qib berish	Yod oldirish
36	12	12	12

Hikoya qilib berish

No	Mavzular	Vahti
1.	T.G`oyipovaning “Marsdan kelgan odam “asarini hikoya qilib berish.	
2.	O`zbek xalq ertagi “ovchi, kukcha va dono.	
3.	O`zbek xalq ertagi “Xalollik”	
4.	A.Avloniy “Taksim”	
5.	D.Mahmudov “Barno”	
6.	X.To`xtaboyev “Ta`zir”	
7.	O`.Xoshimov “Chana”	
8.	P.Muhammadiyorova “Nigora”	
9.	A.bolaligi	
10.	F.mustajonov “Shiqildoq”	
11.	K.Rahim “Dilbar”	
12.	Z.Ibraximova “Mashina nega bo`ldi mayna”	
O`qib berish		
1.	M.Murodov “Axillikda gap ko`p”	
2.	Ozbek xalq ertagi “Chivinboy”	
3.	O`zbek xalq ertagi “Oltin tarvuz”	
4.	T.Adashboyev “Qo`g`irchoqini avaylab”	
5.	K.Turdiyeva “Qanday yaxshi”	
6.	X.Nazir “Polvoncha”	
7.	R.Farxodiy “Tipratikan do`st axtaradi”	

8.	O`Xoshimov “Tong haqida ertak”	
9.	O`zbek xalq ertagi “Quyionjon va Laylak	
10.	A.Avloniy “Aqlli qarg`a”	
11.	A.Avloniy “Ochko`zlik”	
She`r yod oldirish		
1.	T.Adashboyev “Qovun edik”	
2.	Sh.Sa`dulla “Lola va mushuk”	
3.	X. Yoqubov “Qor”	
4.	N.Orifjonov “Qishda”	
5.	R.Tolib “Quyosh nega bekindi”	
6.	Sanamalar	
7.	Yu.Shomansur “Dovuchcha”	
8.	A.Obidjon “Qizilgul”	
9.	A.Obidjon “Paxta va chigit”	
10.	Y.Sulaymon “Buvim”	
11.	X.Murodov “Boychechak”	
12.	Erkalamalar	

Tarbiyachi yillik reja asosida oylik reja tuzadi. Oylik reja tuzish uchun xaftalik mashg`ulotlar taksimoti kerak bo`ladi.

MASHG`ULOTLAR JADVALI

Ilk yosh guruh

<i>Dushanba</i>	1. Nutq o`stirish Jismoniy tarbiya	<i>Payshanba</i>	1. Senson tarbiya (ilk matem) Jismoniy tarbiya
<i>Seshanba</i>	1. ko`rik-yasash (qirqib yopishtirish)	<i>Juma</i>	1. Tabiat bilan tanishtirish (tevarak- atrof bilan tanishtirish) Musiqa
<i>Chorshanba</i>	Rasm (loy) Musiqa	<i>Shanba</i>	Ko`ngil ochish

Kichik guruh

<i>Dushanba</i>	1. Badiiy adabiyot Rasm 2. Jismoniy tarbiya	<i>Payshanba</i>	1. Tevarak-atrof bilan tanishtirish (tabiat bilan tanishtirish)
<i>Seshanba</i>	1. Ilk matematika	<i>Juma</i>	1. Qirqib – yopishtirish (ko`rish- yasash) 2. Musiqa
<i>Chorshanba</i>	1. Nutq o`stirish Loy	<i>Shanba</i>	1. Ko`ngil ochish

O`rta guruh

<i>Dushanba</i>	1. Tevarak-atrof bilan tanishtirish 2. Jismoniy tarbiya	<i>Payshanba</i>	1. Nutq o`stirish 2. Musiqa
<i>Seshanba</i>	1. Matematika Rasm 2. Musiqa	<i>Juma</i>	1. Tabiat bilan tanishtirish Qirqib yopishtir, (ko`rish-yasash)

			2.Jismoniy tarbiya(sayrda)
<i>Chorshanba</i>	1. Badiiy adabiyot	<i>Shanba</i>	Ko`ngil ochish
Katta guruh			
<i>Dushanba</i>	1.Badiiy adabiyot	<i>Payshanba</i>	1.Matematika Musiqa
<i>Seshanba</i>	1.Ilk matematika Loy 2. Musiqa	<i>Juma</i>	1. Tabiat bilan tanishtirish (ko`rish-yasash) qirqib yopish. 2. Jismoniy tarbiya (sayrda)
<i>Chorshanba</i>	1. Nutq o`stirish Tevarak-atrof bilan tanishtirish 2.Jismoniy tarbiya	<i>Shanba</i>	Ko`ngil ochish
Maktabga tayyorlov guruh			
<i>Dushanba</i>	1. Badiiy adabiyot Rasm 2.Jismoniy tarbiya	<i>Payshanba</i>	1.Nutq o`stirish(savodga o`rgatish),ko`rish-yasash, 2.Musiqa
<i>Seshanba</i>	1.Nutq o`stirish (savodga o`rgatish) tevarak-atrof 2.Musiqa	<i>Juma</i>	1.Matematika tabiat bilan tanishtirish 2.Jismoniy tarbiya (sayrda)
<i>Chorshanba</i>	1. Matematika Loy 2.Jismoniy tarbiya	<i>Shanba</i>	Ko`ngil ochish

Katta va tayyorlov guruhda xorijiy tilga o`rgatish o`qituvchi bilan kelishgan holda xaftasiga ikki mashg`ulot o`tiladi.

Oylik rejada ikki yoki uch yo`nalish mujassam qilib mashg`ulot o`tilishini nazarda tutgan holda bitta mavzu qilib ko`rsatiladi.

Mavzu: “Oltin tarvuz” o`zbek xalq ertagini o`qib berish va shu asosda rasm chizish (o`rta guruhda). Bir oy davomida har qaysi yo`nalishlarining bo`limlarini aralashtirib, masalan, jismoniy tarbiyaning sakrash, yugurish, otish, ilib olish, emaklash, muvozanat saqlashlarni navbati bilan oylik rejada aks ettirish lozim.

Badiiy adabiyotdan birinchi xaftada hiko qilib berish 2-xaftada o`qib berish, 3-xaftada she`r yod oldirish, 4-xaftasida yana hikoya qilib berish olinadi.

Yillik rejadagi mavzular oylik rejaga olishga tevarak-atrof hayot bilan bog`lanadi. X.Yoqubovning “Qor”, N.Orifjonovning “Qishda” she`rlarini yod oldirish qish faoliga tegishli oylarda rejalashtiriladi.

Yillik rejadagi mavzular oylik rejaga olinib o`tkazilgandan keyin “vaqti” degan joyiga o`tilgan sanasi yozib qo`yiladi. Oylik rejadan keyin har oy uchun ertalabki badan tarbiyaning mashqlari yoziladi.

Keyin oy davomida ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar rejalashtiriladi. Keyin xaftalik reja yoziladi.

Unda quyidagi jadval asosida:

Sana	Ertalab	Mashg`ulotlar	Sayr	Kechki sayr

Ta`lim tarbiyaviy ishlar rejalashtiriladi.

1. Ertalab bo`limida bolalar kelganidan to mashg`ulot boshlanguncha amalga oshiriladigan ta`lim-tarbiyaviy jarayon rejalashtiriladi. Unda bolalar bilan har xil mavzularda

suhbatlashiladi, bolalar mehnati tashkil qilinadi, har xil loto, otol usti o`yinlari olinadi, nutqida kamchiligi bor bo`lgan bolalar bilan shug`ullaniladi.

II. Mashg`ulotlar bo`limida oylik rejadagi mashg`ulotlar va ularning mavzulari olinadi. Mavzudan keyin maqsad yoziladi. Maqsadda necha yo`nalish mujassam qilib o`tkaziladigan bo`lsa hamasida tegishli ta`limiy tarbiyaviy va rivojlantiruvchi tomoni batafsil ko`rsatiladi.

Sayr – qismida kuzatish/ qoidali xarakatli o`yin, bolalarning mehnati, ixtiyoriy – ijodiy o`yinlari rejalashtiriladi. Qoidali xarakatli o`yinlar bolalarning yosh guruhiga mos dasturdagi olingan bo`lishi kerak.

Kechki soat – bo`limida har xil o`yinlar qo`g`irchoq teatri, soya teatri, stol teatri, diafilm ko`rsatish, tug`ilgan kunlarni nishonlash rejalashtiriladi. Haftaning har kuni har xil qilib olinadi. Haftalik va kunlik rejalashtirishning boshqa ko`rinishlarini ham ijod qilib qo`llashi mumkin. Faqat davlat talablari dastur vazifalari amalga oshira olsa bas. Asosiysi bolalarning o`zlashtirishida.

Xaftalik reja tuzishning yana bir yangi shaklini namuna sifatida beriladi. Bunda dasturda berilgan yo`nalish va mashg`ulotlar umumlashtirilib, yagona kunlar tashkil qilinadi va o`ziga xos qilib nomlanadi.

DUSHANBA - “Bu turfa olam” (tevarak atrof bilan tanishtirish va tabiat bilan tanishtirish).

SESHANBA – “Al Xoazmiy kuni” (matematika, iqtisodiy ta`lim va mantiqiy o`yinlar).

CHORSHANBA – “Kamalak” tasviriy san`atning barcha turi (rasm, ko`rish-yasash, qirqib-yopishtirish, loy ishi va rassomlar haqida suhbatlar).

PAYSHANBA – “Oltin kapalak” (nutq o`stirish, badiiy adabiyot, xorijiy tillar kuni)

JUMA – “Mohir qo`llar” (mehnat turlari va kasblar haqida suhbatlar)

Musiq va jismoniy tarbiya mashg`ulotlari odatdagidek xaftada 2-3 marta olib boriladi. Bunday rejalashtirishda tarbiyachi “mashg`ulot qolipi bilan chegaralanmaydi. Bir mashg`ulot turini ikkinchi mashg`ulot turi bilan bog`lash ustida bosh qotirmydi.

“Kamalak” kunida bolalar biror bir mavzu bo`yicha rasm solishadi. Musiq mashg`ulotiga borib kelishadi, kitob rasmlarini tomosha qilishadi.

Uyqudan keyin kechki soatda loy bilan ham shug`ullanishlarida imkoniyat bo`ladi.

“Al-Xorazmiy” kunida esa kun davomida bolalarga hisob-kitob, mantiqiy rivojlantiruvchi o`yinlarni o`ynash taklif etiladi.

Bunday uslubda bolalarning diqqat, e`tibori chalg`imaydi, har bir olingan mavzu atroflicha chuqur o`rganiladi.

Eng muhimi dastur talabidan chetlashilmaydi. Endilikda tarbiyachilarimiz “ulgurmadim”, “mashg`ulotni o`ta olmadim” deyishni unutadilar, chunki olingan mavzu kun davomida ya`ni ertalabki soatda sayrda va kunning ikkinchi yarmida tashkil qilish imkoniyatini yaratadi. Misol uchun katta guruh tarbiyachisining “Mohir qo`llar” kunini quyidagicha o`tkazish mumkin.

ERTALAB –

1. Kun davomida ovqatlanish paytlariga tayyorgarlik ko`rish, (stollarni joy joyiga to`g`ri qo`ya bilishga o`rgatish).

2. Tabiat burchagida navbatchilik qilish.

PESHINDA –

3. Qizlar bilan tugma qadash, to`g`ri chok tikish. O`g`il bolalar bilan guruhdagi buzilgan o`yinchoqlarni tuzatish.

4. Qog`ozlar, qolgan matolardan o`yinchoqlar yasash.

5. Kasblar haqida suhbat (shu kungi bolalar mehnatiga kasb olinsa maqsadga muvofiq bo`ladi. Tikuvchi, duradgor).

SAYRDA

6. O`yin ayvonchasini tozalash va bezash.

7. Bog`bonga yordam berish (bog`dagi mevali manzarali daraxtlarga va gullarga suv quyish, tagini yumshatish va bog`ni xazondan tozalash.

KUNNING 2-YARIM

8. Kitoblarni ta`mirlash

9. O`yinchoqlarni yasashni tugatish.(ulgurmagan bolalar bilan).

Berilgan namunada, dasturdagi mehnat tarbiyasiga oid barcha vazifalar kiritilgan bo`lib, ular kun davomida amalga oshiriladi.

Nazorat uchun savollar:

- 1. Pedagogik diagnostika asosida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirishning umumiy jihatlari nimalardan iborat?**
- 2. Rejalashtirishning asosiy tamoyillarini aytib bering.**

10-MODUL. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANI O'TKAZUVCHI SHAXS VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR

10-MAVZU. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANI O'TKAZUVCHINING SHAXSIY XUSUSIYATLARI.

10.1. Pedagogik diagnostikani o'tkazuvchining mazmun- mohiyati va xususiyatlari.

Pedagogik tashxis pedagoglar bilan olib boriladigan metodik ishlarni tashkil etishda, ularning kasbiy va o'zaro rivojlanishida ilmiy èndashuvni ta'minlaydi.

SHuning uchun u metodik, ta'lim-tarbiya jaraènlarida hamda maktabni boshqarish jaraènida muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining kasbiy rivojlanish darajasini o'rganishning tizimi sifatida olingan pedagogik tashxis qo'yish ishdagi qiyinchiliklarni aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi, ularni engib o'tishning muqobil usullarini izlashga undaydi.

Shu bilan birga, u o'qituvchining kuchli tomonlarini aniqlashga, ularni mustahkamlash hamda pedagogik faoliyat va o'qitish modelining yakkaalashtirilgan metodlarini rivojlantirish yo'llari hamda aniq usullarini belgilab olishga ham imkon beradi.

Pedagogik mahorat, pedagogning muvaffaqiyatlarini diagnostika qilish attestatsiya muammolarini muqobil hal qilishga imkon beradi, chunki u ta'lim muassasasi ma'muriyatining bahosidagi sub'ektivizmni chetlashtiradi. Biroq ta'lim muassasasi rahbarlari shuni èdda tutishlari kerakki, diagnostika – bu shaxsiy maqsad emas, balki maslahat, korreksiya (to'g'rilash), moslashish va metodik-psixologik qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda pedagoglar bilan ishlash bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Pedagogik faoliyat diagnostikasini, ayniqsa o'zini-o'zi diagnostika qilishni o'tkazish har bir pedagog tomonidan o'zini-o'zi tahlil qilish va baholash malakalarini egallashga yo'naltirilgan. Bu hol pedagogik kadrlar bilan olib boriladigan ishlarning o'zini tartibga solish va korreksiyalashning faol tartibiga o'tkazishga imkon beradi.

Pedagogik diagnostika har bir pedagogni bilish, har birining ko'ngliga yo'l topa olish singari murakkab masalalarni muvaffaqiyatli echishda rahbar-metodistlarga èrdam beradi.

U o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini bilishga imkon beradi va shu bilan birga pedagog kadrlar bilan metodik ishlarning tashkil etilishini engillashtirib, ularning samarasini oshiradi. Zamonaviy diagnostikaning vazifalari. YAqin vaqtlargacha pedagogik diagnostika biron-bir belgilarni baholash muammosiga taqalar ekan, shaxs esa bir figura, fotosurat ko'rinishida ifodalanar edi (N. Golubev, P. Bitinas).

Bugungi kunda pedagogik diagnostika ko'p tarmoqli bo'lib bormoqda va o'zida ma'lumot, asl diagnostika, baholash, korreksion, yo'naltiruvchi, tahliliy kabi vazifalarni mujassamlashtirmoqda.

Diagnostik èndashuv ham o'quvchilar, ham butun pedagogik jamoa faoliyatining turli bosqichlaridagi harakatining majmuaviy diagnostikasi, o'zini-o'zi sinovdan o'tkazish va monitoringi tizimini tuzish hisobiga amalga oshadi va shuning uchun boshqaruv faoliyatining natijalarini xolisona baholashga imkon beradi.

Diagnostikani tashkil etish jaraènida sub'ektlarning rivojlanish dinamikasini o'rganish va xolislikni oshirish uchun bosqichlilik, davriylikka rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ob'ektning nafaqat asl holatini, balki oraliq va yakuniy natijalarini o'rganish zarurligi sababli, kamida uchta kesimda bajarilishi lozim: birinchi kesim – kirish nazorati (birinchi boshlang'ich diagnostika), ikkinchi kesim – joriy nazorat (qièsiy diagnostika) va uchinchi kesim – chiqish nazorati (yakuniy diagnostika).

Har bir pedagog mazkur ta'lim muassasasining metodik ishi tizimiga mos ravishda amalga oshiraètgan faoliyatni diagnostika va tahlil qilish dasturi pedagogik – ta'lim-tarbiya va metodik – jaraènni tashkil etishdagi jaraèn va omillarni aniqlash, zarur va kutilaètgan o'zgarishlarni bir ketma-ketlikka qo'yish, boshqaruv korreksiyasini amalga oshirish – bularning hammasi ta'lim

muassasasiga yutuqlar asosida mavjud muammolarni hal qilishda ularning qay darajada ekanligini, an'ana bilan innovatsiya o'zaro qanchalik uyg'unlashganini, manfaatdorlik vaziyati vujudga keltirilganligini, sinov, tajriba, izlanish va ilmiy- metodik tadqiqot jara'ènda pedagogik jamoa ko'pchiligining ichki kechinmalarini bilish va ko'rishga imkon beradi.

SHuni èdda tutish kerakki, diagnostika u èki bu sifatlar va xususiyatlarning mavjudligi èki ularning yo'qligini ko'rsatib beradi, rahbar esa, uning natijalaridan foydalangan holda, pedagogning kasbiy o'sishining istiqbollari, yo'llari va usullarini aniqlashda èrdam berishi kerak.

Pedagogning o'rganish ishlari nafaqat diagnostik, balki istiqbolli tavsifga ega bo'lsagina, ushbu yo'nalishda olib borilgan ishlarning u èki bu darajadagi natijaviyligi èki uning foydaliligi to'g'risida gapirish mumkin (V. M. Lizinskiy)

Pedagogik diagnostika - pedagogning professional darajasini o'rganish usullari va vositalaridir, ishdagi qiyinchiliklarni aniqlash uchun asos yaratadi, o'z bilimlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari haqida chuqur bilimga ega bo'lishga, yangi, maqbul usul va uslublarni izlashga yordam beradi. Diagnostika sizning pedagogik faoliyatning shaxsiy uslubida ishlab chiqilishi kerak bo'lgan va uni rivojlantirishga muhtoj bo'lgan g'amxo'rlik qilayotgan shaxsning faoliyati va shaxsiyatidagi ushbu kuchli tomonlarni aniqlash imkonini beradi.

Pedagogik diagnostika xodimlar bilan ishlashni tashkil etish, ularning malakasini oshirishga ilmiy yondashishni ta'minlaydi. Pedagogik faoliyat, muloqot, pedagogik hamkorlik uslublari va boshqalar diagnostikasini o'tkazish, ayniqsa, o'z-o'zini diagnostika qilish har bir o'qituvchini o'z-o'zini tahlil qilish, o'zini baholash va o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini o'zlashtirishga qaratilgan. Bu sizga o'z-o'zini boshqarish va o'zini o'zi tartibga solish rejimida professor-o'qituvchilar bilan ishlash imkonini beradi.

Har bir insonni bilish - bu murakkab vazifalar menejerga pedagogik tashxisni hal qilishga yordam beradi. Bu sizga o'qituvchilarning asosiy kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini

tushunish imkonini beradi va shu bilan DOW da ishlarni tashkil etish sifatiga ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik faoliyat sohasidagi mutaxassislarning aksariyati diagnostika jarayonining kamida 8 asosiy bosqichini ajratib ko'rsatish mumkinligini ta'kidlaydilar:

1. diagnostika maqsadlari va vazifalarini aniqlash
2. belgilangan mezonlar (ko'rsatkichlar) va obyektning (fenomen) ko'rsatkichlarini aniqlash
3. diagnostika muammolarini echish usullarini tanlash
4. diagnostik metodlarni qo'llash orqali axborot to'plash
5. natijalarni miqdoriy va sifatli qayta ishlash
6. pedagogik tashxisni ishlab chiqish va shakllantirish
7. pedagogik prognozni ishlab chiqish va shakllantirish
8. tuzatuv harakat rejasini ishlab chiqis

10.2. Pedagogik diagnostikani o'tkazuvchi shaxsning pedagogik odobi va axloqi.

O'qituvchilik kasbini sevish pedagogik odobning zarur talablaridan biri hisoblanadi. O'z kasbini sevgan kishigina butun kuch - g'ayratini qalb quri va dil haroratini bu ishga bag'ishlaydi va o'z faoliyatida yaxshi natijalarga erishadi. Shuningdek, bolalarni sevish, ularga mehr - muhabbatli bo'lish, o'qituvchilik kasbi, o'qituvchi axloqiy qiyofasida juda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining bolalarga bo'lgan mehribonligi talabchanligi va qattiqqullikni ham taqozo etadi.

Muallimning bilimdon bo'lishi, ma'naviy barkamolligi o'quvchi shaxsining shakllanishiga ijobiy axloqiy ta'sir o'tkazadi. "Qadimgi ajdodlarimiz, - degan edi I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida, - komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar".

Kishi qalbidan haromdan xazar, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lishi kerak.

O'qituvchi halollik, rostguylik, axloqiy poklik, odamiylik, kamtarlik kabi fazilatlariga ega bo'lishi pedagogik odobining muhim talab qoidasidir. Muallim deyarli har kuni o'quvchilar bilan uchrashadi, savol - javob qiladi, ularning yaxshi xulq, ezgu ishlarini ma'qullaydi, bilimni baholaydi, nojuya hatti - harkati uchun tanbeh beradi.

Albatta o'qituvchining fikri, mulohazalarida nisbiylik, sub'ektivlik alomatlari mavjud. U hammaga aynan birdek to'g'ri munosabatda bo'la olmasligi mumkin, lekin u hamma o'quvchilarga nisbatan xolis niyatli, yaxshilik qilishga intiluvchi, adolatli kishi ekanligiga barchaning ishonchi komil bo'lmog'i lozim. Sinfda o'qituvchi "yaxshi ko'radigan", "yomon ko'radigani" bor, degan taassurot tug'ilmasligi kerak. Pedagogik ijodkorlik manbai - pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba muammolariga, muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda o'qituvchining o'z vazifasiga ijodiy yangicha yondashishi, o'quvchilarning ta'lim sohasida yangi samarali yo'l va vositalarni qidirib topa bilishi tushuniladi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur, chunki hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi va nihoyat o'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga tadqiqot ishlariga o'rgatish va jalb etishni talab qiladi. Xullas, yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun bulajak muallim yuksak pedagogik odob madaniyatini egallashi zarur. Buning uchun bo'lajak o'qituvchi pedagogik odobning talab va qoidalarini bilib, o'zlashtirib olishi tajribada pedagogik faoliyatda qo'llashi, o'zining dunyoqarashi va axloqiy tajribasi bilan boyitishi lozim, fikrlash va his etish turmushda sinab ko'rish natijasida pedagogik odobning talab va qoidalari o'qituvchining shaxsiy e'tiqodiga, axloqiy fazilatlariga aylanadi.

Haqiqatdan, o'qituvchi yoshlrga ta'lim - tarbiya beruvchi kishi. Ta'lim to'g'risidagi qonunning 5-moddasiga shunday yozilgan: "Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan

shug'ullanish huquqiga ega". Chunki hukumat xalq ta'lim sohasida o'rta qo'yilayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq.

O'qituvchilarning bolalarga bo'lgan munosabati katta mehribonlik va g'amxo'rlik bilan xarakterlanadi. Bu esa oqilona talabchanlik bilan qo'shib olib boriladi. Bolalar o'qituvchiga doimiy ishonch bilan javob beradilar, har bir masala yuzasidan unga murojaat qiladilar.

O'qituvchining o'quvchilar bilan o'tkazadigan suhbatlaridan ham keng foydalanish mumkin. Bunda suhbatning maqsadi, uni o'tkazishning aniq plani belgilangan bo'lishi, u erkin formada o'tkazilishi va kishini zeriktiradigan savolga aylanib ketmasligi muhimdir.

Har qanday mutaxassis odob, axloq namunalariga ega bo'lishi tabiiy, lekin pedagogik odoblilik mutlaqo o'zgacha holdir. Chunki tabiatga, jamiyatga notanish kishilarga jism va ashyolarga o'z - o'ziga munosabatda haqiqiy mezon rolini bajaruvchi qobiliyatga ega bo'lishlik, aynan o'qituvchi shaxsiga mujassamlashadi. Pedagogik nazokat etno - psixologik his - tuyg'ulari, milliy xarakter xususiyati, xulq, faoliyat, muomala qoidalari, qonuniyatlari, hodisalari, mexanizmlari, vositalari va ko'nikmalaridan me'yoriy ravishda maqsadga muvofiq tarzda foydalanish o'z aksini topadi.

- emotsional his - tuyg'ular, kechinmalar stress va affektiv holatlar xossalari, chegaralariga batamom rioya qilishda;
- xulq atvor malakalarini amaliyotda oqilona qo'llashda;
- bachkana qiliqlar, ortiqcha harakatlar qilishdan o'zini tiyishda;
- nutq madaniyatidan tashqari chiqmaslikda, shaxsiyatiga tegadigan iboralar ishlatmaslikda, qo'pol va dag'al so'zlar qo'llamaslikda;
- hissiy, aqliy bilish jarayonida muayyan me'yorlarga asoslanishda, manmanlikni namoyish etmaslikda;

- o'quvchilar va o'qituvchilar jamoalari bilan ota - onalar hamda notanish kishilar bilan munosabatga kirishda rasmiy, qat'iy ishbilarmonlik uslublariga asoslanishda va hakoza.

O'qituvchi ziyolilar ichida ma'naviy dunyosi muayyan darajasi bilan tafovutlanib, ko'rsatkichi bo'yicha ancha yuksaklikka ega. Uning bu darajaga erishishi manbalari - o'qituvchining kundalik, ijodiy izlanish faoliyatini ko'rinishidan, ijtimoiy status va rolni qat'iy ijro etishdan iborat. O'qituvchining kasbiy mahoratidan tashqari uning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, tarixiy bilimlarga ega bo'lishidek zaruriyati, ehtiyoji, imkoiyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Pedagogik diagnostika va diagnostikalash, uning mazmuni nima?
2. Jamoaning mahoratga va ijodiy izlanishga yo'naltirilgan umumiy harakati nimadan iborat?
3. Pedagoglarning metodik ehtiyojlarining diagnostika yo'nalishlariga nimalar kiradi?
4. Metodik ish tizimida pedagogik diagnostikaning ahamiyati nimadan iborat?

GLOSSARIY

Abstraktlash – mavhumlashtirish orqali nazariy umumlashmalar hosil qilishdan iborat ta'lim metodi.

Avtoritar texnologiya – 1) an'anaviy ta'lim jarayonining ifodasi bo'lib, o'qitish jarayonida o'quvchi ob'ekt, o'qituvchi sub'ekt sifatida faoliyat ko'rsatishiga asoslangan tizim; 2) o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchini bo'ysundirish asosida boshqarish texnologiyasi.

Adaptatsiya – o'quv jarayoni, o'quv faoliyatiga moslashuv.

Adekvat (lotincha adequatus - tenglashgan, mos, aynan bir, o'xshash) – bilish nazariyasida narsa va hodisalarning xossalari va aloqalarini ularning ob'ektiv mazmuniga to'g'ri keladigan aniq va mos ilib olish. Inson ongi ob'ektiv borliqni ijtimoiy amaliyot asosida adekvat ettira boradi.

Adekvatlik – ilmiy tadqiqot ishi natijasining tadqiqot ob'ekti kechishi, ya'ni ob'ektning funksional vazifalarini (o'zgarish, ishlash qonuniyatlarini va h.k.) aynan aks ettirishini nazorat qilish.

Amaliy mashg'ulotlar – maxsus jihozlangan xona yoki alohida ajratilgan tajriba maydonida tashkil etilib, tahsil oluvchilarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikma va malakalarini hosil qilishga yo'naltirilgan ta'lim shakli.

Analiz metodi – 1) pedagogik tadqiqot metodi bo'lib, unda tekshirish ob'ekti fikran tarkibiy elementlarga ajratib tadqiq qilinadi; 2) o'quv vaziyatini har tomonlama tahlil qilish, chuqur tekshirish, o'rganish.

Analitik metod – tahlil qilishga yo'naltirilgan ta'lim metodi.

Anketa – pedagogik tadqiqot metodi bo'lib, tegishli ma'lumot olish, to'plash uchun belgilangan so'roq varaqasi

Atroflicha fikrlash – muayyan masalani tafakkur vositalaridan foydalanib, atroflicha bosqichma-bosqich hal qilishdan iborat aqliy faoliyat.

Axloq – 1) shaxsning o'zaro bir-biri, jamiyat a'zolariga nisbatan qabul qilingan me'yorlar asosidagi munosabatlari, hatti-

harakatlari majmui, jamiyat tomonidan qabul qilingan xulq me'yorlari; 2) xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya, adab.

Axloqli – yaxshi tarbiya ko'rgan; odobli, xushahloq. Axloqli bola.

Axloqiy tarbiya – o'quvchi yoki talabada o'zaro bir-biriga jamiyat a'zolariga nisbatan qabul qilingan me'yorlar asosida munosabatlarni shakllantirish jarayoni.

Axloqiy trening – turli vaziyatlarda, masalan, muomala madaniyatini egallashga oid xulq-atvor, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan trening.

Axloqiy xislatlar – ahloq odobga oid muhim sifatlar.

Axloqsiz – yaxshi tarbiya ko'rmagan, axloq qoidalariga bo'ysunmaydigan, intizomsiz bola.

Axloqsizlik – axloq qonun qoidalariga xilof ish, xatti-harakat.

Aql – inson miyasining dunyoni aks ettirish va shaxsning voqelikka bo'lgan munosabatlarini boshqarib turadigan faoliyati.

Aqliy tarbiya – barkamol shaxsni hayotga tayyorlash uchun zarur bo'lgan barcha aqliy jarayonlar, bilish qobiliyatlarini maqsadga muvofiq shakllantirish va rivojlantirishdan iborat jarayon.

Aqliy tarbiyalanganlik – aqliy sifatlarning rivojlanganlik darajasi.

Aqliy testlar – shaxs aqliy zahirasi namoyon qilishga qaratilgan psixologik diagnostika metodikasi.

Badiiy tarbiya – yoshlarni san'atga nisbatan qiziqish va mehr-muhabbatlarini tarbiyalash hamda ularda badiiy faoliyat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish jarayoni.

Badiiy qadriyat – muayyan qadriyat mezonlari talablariga javob beruvchi san'at asari.

Barkamol shaxs – kamolga etgan, bekamu ko'st, to'la-to'kis inson, aqlan va axloqan pok, jismonan sog'lom, nafosatli, jamiyatda o'zligini tanigan, mustaqil fikrlaydigan, erkin, ijodkor, tashabbuskor, ishbilarmon, fidoiy shaxs.

Barqarorlik – doimiy, mustahkam amal qiluvchi holatga erishish, shuningdek, ushbu holatning doimiyligi, mustahkamligini ifodalovchi pedagogik tushunchalar.

Bola huquqi – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari Konvensiyasi tomonidan tasdiqlangan umumiy, me'yoriy qonun qoidalar majmui.

Bolalar adabiy ijodkorligi – bolalarning badiiy soʻz san'ati yordamida oʻz tuygʻulari, fikrlari, borliqni badiiy-obrazli idrok etish va uni ifodalash imkoniyatlari.

Bolalar bogʻchalaridagi mashgʻulotlar – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bilan bolalar bogʻchalarida oʻtkaziladigan ta'limiy ishlar.

Bolalar bogʻchasi – maktab yoshigacha boʻlgan bolalarni tarbiyalovchi muassasa. Birinchi marta 1837 yil Germaniyada nemis pedagogi F.Frebel tomonidan tashkil etilgan. Bolalar bogʻchasi xalq ta'limi tizimining dastlabki boʻgʻini hisoblanadi. (q. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasi). Oʻzbekistonda odatdagi Bolalar bogʻchasi 3-7 yoshli bolalarga moʻljallangan.

Bolalar bogʻchasi tarbiyachilarining metodbirlashmalari – bolalar bogʻchasi tarbiyachilarining pedagogik malaka oshirish va tajriba almashish orqali metodik ishlarni tashkil etishga koʻmaklashadigan uyushmasi.

Bolalar bogʻchasida konstruksiyalash – “konstruktor” yordamida turli oʻyinli qurilish materiallaridan har xil ob'ektlar, masalan uycha, mashina, kema, koʻprikcha kabilarni yasashga qaratilgan oʻyin va mashgʻulotlar.

Bolalar va oʻsmirlar gigienasi – gigienaning bir sohasi; goʻdaklikdan boshlab to 17-18 yoshgacha boʻlgan bolalar va oʻsmirlarning salomatligini saqlash va mustahkamlash masalalari bilan shugʻullanadi.

Bolalar jamoasi – muayyan umumiy maqsadi va faoliyat turiga koʻra birlashgan bolalar guruhi.

Bolalar jurnallari – bolalarning oʻqishiga moʻljallangan davriy nashr.

Bolalar ijodiy koʻrgazmasi – bolalar havaskorlik ijodiy ishlarini ommaviy namoyish etish jarayoni.

Bolalar ijodiyot uyi – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tasarrufidagi maktabdan tashqari ta’lim muassasasi. 2005 yilda tashkil etilgan.

Bolalar kinofilmlari – bolalar yoshi va dunyoqarashiga mos bo‘lib, ularga ta’lim-tarbiya berishga qaratilgan kinofilmlar.

Bolalar konferensiyasi – turli asarlar va dolzarb masalalar muhokamasiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan sinfdan va maktabdan tashqari ta’limiy tadbirlar.

Bolalar kutubxonasi – maktab yoshidagi bolalalar va o‘smirlarga xizmat ko‘rsatadigan muassasa. O‘zbekistonda bunday kutubxonalar ommaviy ravishda 30-yillarda vujudga kela boshlagan.

Bolalar maydonchalari – maktab va maktabdan tashqari muassasalar qoshida bolalar bo‘sh vaqtini tashkil etishning majmuaviy shakli.

Bolalar musiqa maktablari – q. musiqa maktablari.

Bolalar musiqasi – bolalarning tinglashi va ijro etishi uchun mo‘ljallangan musiqa asari. Bolalar musiqasi namunalari sodda shakli, yorqin ifodasi, jonli badiiy mazmuni bilan ajralib turadi.

Bolalar nafaqalari – davlat nafaqalari to‘lashga oid Qonunga ko‘ra voyaga etmagan jismonan nosog‘lom bolalarga oylik nafaqa to‘lash.

Bolalar psixologiyasi – psixologiya sohasi, bolalar psixologik rivojlanishning umumiy va alohida xususiyatlarini, turli yosh bosqichlarida bu jarayon qanday kechishi, uni harakatlantiruvchi kuchlar va qonuniyatlarni tadqiq qiladi.

Bolalar sport maktabi – bolalarga sportning muayyan turlari bo‘yicha ta’lim-tarbiya beradigan maxsus ixtisoslashgan o‘quv muassasasi.

Bolalar tanlovlari – fan, texnika, adabiyot, san’at kabi sohalar bo‘yicha bolalarning o‘zaro musobaqalashishi.

Bolalar teatri – 1) bolalar tomonidan ijro etiladigan spektakllar.

Bolalar texnika ijodi - bolalar faoliyatining turi. Odatda bu faoliyat modellar, mexanizmlar, oddiyroq mashinalar, asboblari, radio elektron qurilmalari va sh.k.ni yasashdan iborat.

Bolalar uyi – q. Mehribonlik uyi.

Bolalar folklori – ogʻzaki ijod namunalari. Odatda bolalar yoki ular uchun kattalar tomonidan yaratiladi. Folklor janrining tarkibiy qismi.

Bolalar xori – yuqori va quyi ovoz tembriga ega boʻlgan oʻgʻil va qiz bolalardan tashkil topgan qoʻshiq kuylovchi jamoa.

Bolalar yaslisi – q. YAsli bogʻcha.

Bolalar oʻyin qoʻshiqlari – folklor janri. Bolalar oʻyini jarayonida aytiladi. Bolalar oʻyininig tarkibiy qismi boʻlib, oʻyin uchun zamin, kayfiyat hozirlaydi, ishtirokchilar harakatini toʻldiradi, dramatik holatni yuzaga keltiradi.

Bolalar oʻyinlari – bolalarni aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyalash vositalaridan biri. Bolalar oʻyinlari bolalarni jismoniy, aqliy va maʼnaviy tarbiyalash vositasi.

Bolalar – oʻsmirlar sport maktablari - q. Sport maktablari.

Bolalarni otaliqqa olish jamiyati – Rossiyada 19 asr oxiridan boshlab bolalarning hayot sharoitlarini yaxshilash va taʼlim-tarbiya samaradorligiga erishish maqsadida tashkil etilgan jamiyat.

Bolalarning anatomik-fiziologik xususiyatlari – bola organizmining tuzilishi, vazifalari, uning oʻsishi va rivojlanishini oʻrganuvchi oʻquv predmeti.

Daftar – tikilgan, muqovalangan toza qogʻozlar majmuidan iborat oʻquv quroli.

Deviant xulq-atvor – jamiyatda qabul qilingan meʼyorlarga zid boʻlgan alohida hatti-harakatlar tizimi.

Defektologiya – jismoniy va ruhiy nuqsonli bolalar rivojlanishining psixofiziologik xususiyatlarini oʻrganish, ularga maxsus taʼlim-tarbiya berish, undagi nuqsonlarni bartaraf etish qonuniyatlarini oʻrganuvchi fan.

Definitsiya – muayyan pedagogik tushuncha haqidagi qisqacha taʼrif.

Diagnostika – taʼlim jarayoni, oʻqituvchi hamda oʻquvchi faoliyatining muayyan qirrasini oʻrganish maqsadida amalga oshiriladigan tekshirish.

Diayrezis – aqliy tashxis

Dialog – ikki kishi; masalan, o‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi muloqot.

YOzma nutq – fikrni yozma, matn vositasida bayon qilish shakli.

YOndashish – ta’limga yondashishi turi; pedagogik tamoyilga ko‘ra, pedagogik jarayonda pedagogning talabalar bilan o‘zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida talabaning rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi.

Yosh davri – shaxs va organizm shakllanishiga xos maxsus qonuniyatlar yig‘indisi bilan izohlanuvchi inson rivojlanishining muayyan bosqichi.

Jamoa – 1) yagona jamiyat va kishilar uchun foydali maqsad, faoliyatga ko‘ra birlashgan, jamiyat va kishilar manfaatini ko‘zlaydigan kishilarning tashkiliy guruhi; 2) kishilarning qadimiy uyushuv shakli.

Jarayon – muayyan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan o‘quv harakatlar majmui.

Jismoniy madaniyat – 1) umuminsoniy madaniyatning bir qismi, inson salomatligini mustahkamlash, jismoniy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyat sohasi; 2) oliy o‘quv yurtlaridagi o‘quv fanining nomi.

Jismoniy mashqlar – jismoniy tarbiya vazifalarini hal etish vositasi.

Jismoniy tarbiya – insonni jismoniy kamolotga erishishiga yo‘naltirilgan pedagogik jarayoni.

Zakovat – o‘tkir aql-idrok, zehn, donishmandlik.

Zehn – o‘quvchi yoki talabaning muayyan bir faoliyat yoki hodisalarga nisbatan qiziquvchanligi, moyilligi, intilishi, idroki, tushunishi.

Ijodiy izlanish – pedagog boshchiligida qo‘yilgan muammolar, masalalarni echish yo‘llarini faol izlashni tashkil etishga xizmat qiladigan usuli.

Ijtimoiy tarbiya – ta’lim oluvchilardan ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlar va tajribalarni shakllantirish jarayoni.

Improvizatsiya – **tezkor favqulodda ijodkorlik**.

Individ – 1) alohida, mustaqil holda mavjud bo’lgan organizm. 2) alohida inson, shaxs.

Individual yondashuv – pedagogik jarayonni o’quvchining individual o’ziga xos jihatlari (mijozi, xarakteri, qobiliyati, moyilligi va boshqalarni e’tiborga olgan holda amalga oshirish usuli.

Individual rivojlanish – individning tug’ilganidan boshlab to hayotining so’ngigacha davom etadigan o’ziga xos shakllanish jarayoni.

Innovatsiya – yangidan kiritilgan tushunchalar, tartib qoidalar, texnologiyalar va yangiliklar.

Intellekt – 1) insonning aqliy qobiliyati; hayotni atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish va o’zgartirish, fikrlash, o’qish-o’rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; 2) turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea - hodisalarni oldindan ko’ra bilish layoqati; 3) shaxsning aql-idroki, zakovati, tashqi dunyoni idrok etish va ijtimoiy tajribani o’zlashtirish darajasi.

Intellektual – aql-zakovot egasiga xos bo’lgan aqliy, ma’naviy, qobiliyat, salohiyat.

Irsiyat – 1) organizmning o’z belgilari va xususiyatlarini kelgusi avlodga o’tkazish, ya’ni organizmning o’ziga o’xshash nasllarini bunyod etish xossasi; 2) anatomik, fiziologik, psixologik jihatlar, uning qobiliyat va iqtidorini rivojlantirishga yo’naltirilgan, ota-onasidan o’tgan belgilari.

Maktabgacha ta’lim – uzluksiz ta’limning bolalarni aqliy, ma’naviy, jismoniy rivojlantirish va maktabga tayyorlashga yo’naltirilgan dastlabki bo’g’ini.

Maktabgacha ta’lim gigienasi – maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning rivojlanishi va sog’lig’iga hayotiy shart-sharoitlar hamda pedagogik jarayonning ta’sirini o’rganishga qaratilgan maktab gigienasining maxsus tarmog’i.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar jamoasi – muayyan o'zaro munosabatlar tizimi (o'yin, hayotiy masalalar) yoki umumiy mashg'ulot turi asosida birlashgan kichik yoshdagi bolalar guruhi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar kitoblari – kichik yoshdagi bolalar ehtiyojiga mos qisqa va sodda yozilgan adabiy asar.

“Maktabgacha ta'lim” jurnali – ilmiy-metodik oylik jurnal, “Sog'lom avlod uchun” jurnali ilovasi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi – pedagogikaning maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiya berish hamda ularning shaxsiyatini shakllantirish

Mashq – biror faoliyatni ko'p marta takrorlash.

Mashq – biror faoliyatni puxta o'zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida uni ko'p marta takrorlash. Masalan, o'qish, yozish. Mashq ta'limda ko'nikma va malakalar hosil qilishda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
2. “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
3. “2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-sonli Qarori.
4. “Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-sonli Qarori.
5. “Nodavlat ta'lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentyabrdagi PQ-3276-sonli Qarori.
6. “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30 sentyabrdagi PQ-3305-sonli Qarori.
7. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.
8. Mirziyoev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.–T.:“O‘zbekiston”,2017.–48 b.

9. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.
10. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
11. Ayupova M.Yu. Logopediya «O‘zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati» T.: 2007 y.
12. Mo‘minjonova Z., Ziyayeva K., Karimova SH., Xalilova G.lar “Ona tili” yordamchi mehnat ta’limi maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Toshkent: “Artaprint” MCHJ 2005 y.
13. Nurkeldieva D.A., Chicherina Ya.ye. Ilk, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni psixologik, pedagogik va logopediya tekshirish. T.: Yangi asr avlodi, 2007 yil.
14. Po‘latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: «Fan va texnologiyalar», 2014 y.
15. Raxmanova V.S. «Maxsus pedagogika» T.:“G‘.G‘ulom” nashriyoti,2005 y.
16. Psixologo-pedagogikheskaya diagnostika. Pod redaksiey I.Yu.Levchenko i
17. S.D.Zabramnoy. M., ACADEMA, 2005g.
18. John W. Jacobson, James A. Mulick and Johannes Rojahn. Intellektual and Developmental Disabilities.2007 Springer Science+Business Media, LLC New York.
19. Raxmanova V.S., Nurkeldieva D.A. Alohida yordamga muxtoj bolalar ijtimoiy reabilitatsiyasi. T.: RBIMM, 2014 y.
20. Муминова Л.Р., Чичерина.Я.Е., Нуркелдиева Д.А. Диагностика психофизического развития детей первых трех лет жизни . T.: RSSAD, 2007г.
21. Maktabgach ta'lim konsepsiyasi.-T.:2019
22. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi T.: Ilm ziyo. 2012
23. Sodiqova SH.A , Maktabgacha pedagogika T.: Tafakkur bo'stoni 2013
24. N.Qayumova Maktabgacha pedagogika T.: TDPU 2013

25. "Pedagogicheskaya diagnostika (kurs leksii) sostovitel" R.A.Mavlyanova T.; 2002
26. В.А. Максимов " Педагогическая диагностика" М.; 2003
27. С.Д.Заброшная "Психолого-педагогическая диагностика умственного развития детей". М.; Владос. 1995
28. "Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablari-T.:
29. Выготский Л.С. Вопросы детской психологии. – М.: SPB. 1999.
30. A.Raxmonqulova, M.Fayzullaeva, M.Nuriddinova. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish (katta, tayyorlov guruhleri uchun). Metodik qo‘llanma, T., 2015.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I MODUL: PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI	6
1-MAVZU.Pedagogik diagnostika fanining maqsadi, obyekti, predmeti va vazifalari	6
1.1.Diagnostika ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ta’minlovchi jarayon	6
1.2.Pedagogik diagnostika mazmuni	11
1.3. Pedagogik diagnostikaning asosiy vaziflari	13
II MODUL: O'QUV TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA	18
2-MAVZU: PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING MOHIYATI VA FUNKSIYALARI	18
2.1. Ta’lim muassasasida pedagogik diagnostikaning asosiy mohiyati	18
2.2.Pedagogik diagnostika funksiyalari mazmuni	26
2.3. Pedagogik diagnostika bosqichlari	28
III MODUL PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING UMUMIY TAMOYILLARI VA PEDAGOGIK HODISAIARNING DARAJALARI	29
3-MAVZU.PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING ASOSIY TAMOYILLARINING MOHIYATI VA MAZMUN	29
3.1 Pedagogik diagnostikaning darajalari	29
IV MODUL: MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANI TASHKIL ETISHNING IIMY ASOSLARI	43
4-MAVZU. PEDAGOGIK NAZORATNING ASOSIY VAZIFALARI	43
4.1. Pedagogik nazorat haqida tushuncha va uning mohiyati	43
4.2.Ta'limiy vazifalar, tashkiliy vazifalar,tarbiyalovchi vazifalar	52

V-MODUL.PEDAGOGIK DIAGNOSTKANI O'TKAZISHDA TEST METODIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI	58
1-MAVZU. TESTLARNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY METODLARI HAQIDA TUSHUNCHA	58
5.1. Test metodi haqida tushuncha	58
5.2.Pedagogik testlarni ishlab chiqishning umumiy metodikasi	60
VI- MODUL. SHAXS RIVOJLANISHINING IJTIMOIIY DAGNOSTIKASI	67
1-MAVZU. SHAXSNING RIVOJLANISHI HAQIDA TUSHUNCHA	67
6.1. Shaxsning rivojlanishi va unga ta`sir etuvchi omillar	67
6.2. Shaxs rivojlanishining ijtimoiy dagnostikasi	78
VII-MODUL.MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANGANLIK DARAJASINI ANIQLASH	84
7-MAVZU. SHAXSNING JISMONIY RIVOJLANISHI HAQIDA TUSHUNCHA	84
7.1.Shaxsning jismoniy rivojlanishi mazmuni	84
7.2.Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning umumiy jismoniy rivojlanganishining o'ziga xos xususiyatlari	88
7.3. Bolalarni jismoniy rivojlanishi bo'yicha dagnostik karta tuzish	95
VIII-MODUL.PEDAGOGIK ME'YORDAN OG'ISHLIKNING XUSUSIYATI	98
8-MAVZU. MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING HULQIDAGI SALBIY HOLATLARNI TASHXIS QILISH	98
8.1.Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning hulqidagi salbiy holatlarni tashxis qilish mazmuni	98
8.2.Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning xulqidagi salbiy holatlarni korreksiyalash	104
8.3.Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning hulqidagi salbiy holatlarni profilaktika qilish	107

IX-MODUL. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA ASOSIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI REJALASHTIRISH METODIKASI	109
9-MAVZU. Pedagogik diagnostika asosida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirishning umumiy jihatlari	109
9.1.Pedagogik diagnostika asosida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish jarayoni	109
9.2.Pedagogik diagnostika asosida ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirishning asosiy tamoyillari	113
X-MODUL. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANI O'TKAZUVCHI SHAXS VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR	124
10-MAVZU. PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANI O'TKAZUVCHINING SHAXSIY XUSUSIYATLARI.	124
10.1.Pedagogik diagnostikani o'tkazuvchining mazmun-mohiyati va xususiyatlari	124
10.2.Pedagogik diagnostikani o'tkazuvchi shaxsning pedagogik odobi va axloqi	127
GLOSSARIY	131
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	129

[illegible]

[illegible]

G.Q.HASANOVA

**MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIK
DIAGNOSTIKA**

**5111800- Maktabgacha ta'lim yo'nalishi
talabalari uchun o'quv qo'llanma**

Muharrir:	E. Eshov
Tex.muharrir:	S. Turayev
Musahhih:	M.Shodiyeva
Badiiy rahbar:	M.Sattorov

**Nashriyot litsenziyasi № 022853. 08.03.2022.
Original maketdan bosishga ruxsat etildi: 28.04.2022. Bichimi 60x84.
Kegli 16 shponli. "Times New Roman" garniture 1/16.
Ofset bosma usulida. Ofset bosma qog'ozi.
Bosma tabog'i 9.25. Adadi 50. Buyurtma №14.**



**"BUXORO DETERMINANTI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahar Namozgoh ko'chasi 24 uy
Tel.: + 998 98 778 47 27**

